

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK – 811.152.133; 81,37
398.22 (575)

XOLIQOV AZAMAT BAHRIDDINOVICH

**QODIR BAXSHI RAHIMOV DOSTONLARI TILINING LEKSIK-
STILISTIK XUSUSIYATLARI**

**5A111201 – o‘zbek tili va adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha magistr akademik
darajasini olish uchun taqdim etilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: f.f.n. E.Jabborov

Qarshi - 2014

MUNDARIJA

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....	3
I BOB. XALQ DOSTONLARI TILINING O‘RGANILISHI VA UNING HOZIRGI BOSQICHDAGI MUAMMOLARI	
1.1. O‘zbek tilshunosligida бадиий асар тилига бағишланган тадқиқотлар....	8
1.2. O‘zbek tilshunosligida xalq og‘zaki ijodi namunalari tilining o‘rganilishi.....	14
Bob bo‘yicha xulosa.....	25
II BOB. QODIR BAXSHI RAHIMOV DOSTONIDA QO‘LLANILGAN LEKSEMALARNING MAVZUVIY GURUHLARI VA LEKSIK- SEMANTIK XUSUSIYATLARI	
2.1. Baxshi dostonlari tilidagi leksemalarning mavzuviy guruhlari.....	26
2.2. Baxshi dostonlarida qo‘llanilgan onomastik nomlarining geneologik va leksik-semantik xususiyatlari.....	37
2.3. Baxshi dostonlari tilida qo‘llanilgan eskirgan so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	45
Bob bo‘yicha xulosa.....	58
III BOB. QODIR BAXSHI RAHIMOV DOSTONLARI TILINING BADIY-USLUBIY XUSUSIYATLARI	
3.1. Baxshi dostonlari tilida qo‘llanilgan o‘xshatishlar.....	60
3.2. Baxshining metaforadan foydalanish mahorati.....	74
3.3. Baxshining sinonim, omonim va antonimlardan foydalanish mahorati.....	78
Bob bo‘yicha xulosa.....	82
UMUMIY XULOSA.....	84
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	88

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz Prezidenti I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida yosh avlod ma’naviyatini shakllantiruvchi vositalar aniq ko’rsatib berilgan. Shunday vositalardan biri xalq og’zaki ijodi ekanligi qayd etilar ekan, boy va bebaho tarixga, madaniyatga, ma’naviyatga ega bo’lgan xalqimizning noyob durdonasi sanalgan “Alpomish” dostoni va uning yoshlar kamolotiga ta’siri xususida e’tiborga molik fikrlarni bayon etadilar. Muhtaram Prezidentimiz “bu dunyoda har qaysi millatning o’z afsonaviy qahramonlari, o’zi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari” bo’lishini uqtirgan holda “xalqimiz azaldan o’z vujudi, o’z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo’lmoqqa intilib, o’z o’g’lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan”ini e’tirof etadilar¹.

Ayniqsa Prezidentimizning “xalq og’zaki ijodining noyob durdonasi bo’lmish “Alpomish” dostoni millatimizning o’zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o’tib kelayotgan qahramonlik qo’shig’idir”² – deya yuksak baho berishi birgina bu dostonga emas, balki xalqimiz qadriyatlarini o’zida ifoda etgan barcha xalq poetik ijodi namunalari uchun ham aytilgan deb tushinish to’g’riroq bo’ladi.

Darhaqiqat, xalq og’zaki ijodi namunalari bizga, ayniqsa yosh avlodga, Prezidentimiz e’tirof etganlaridek, “vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo’y bo’lishga, o’z yurtimizni, oilamiz qo’rg’onini qo’riqlashga, do’stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o’rgatadi”³.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan qayd etilgan ko’rsatmalar xalq og’zaki ijodi namunalarini nafaqat filologik nuqtai nazardan, balki falsafiy, pedagogik va psixologik yo’nalishlarda ham tadqiq etishni kun tartibiga qo’yadi.

¹Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 32-bet.

² Karimov I. Ko’rsatilgan manba, 32-33 –betlar.

³ Karimov I. Ko’rsatilgan manba, 33-bet.

“Baxshi-shoirlar o‘z xalqining biyron tilidir, - deb ta’kidlaydi muhtaram Prezidentimiz boshqa bir ma’ruzasida. - Ular yurtimizda doimo “Baxshili el - yaxshili el” deb ta’riflanadi. Qodir shoir va Shoberdi baxshi kabi dostonchilarning nomlarini e’tirof bilan tilga olamiz¹”.

Bugungi kunda baxshi-shoirlar ijodiga, umuman, xalq og‘zaki poetik ijodiga munosabat tubdan o‘zgardi. Taniqli baxshi shoirlar - Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Pulkan shoir, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining ijod namunalari filologik yo‘nalishda tadqiq etib kelinmoqda. Bir qator adabiyotshunos va tilshunoslar bu boradagi tadqiqotlarini yakunlab, fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajalarini olganligi fikrimizning isbotidir.

Baxshi shoirlar ijodining poetik merosi tilshunoslik fanining tekshirish obyektiga aylanayotganligi quvonchli holdir. Tilimiz qadimiy va boy tillardan biri ekanligini yaxshi bilamiz. Ana shu tilimizning jonli shakl-shamoyili bevosita xalq dostonlari, afsona va asotirlarida bo‘y ko‘rsatib turibdi. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “...ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur”²

Prezidentimiz fikrlaridan kelib chiqib ta’kidlash joizki, o‘zbek tilshunosligi fani oldida hali hal etilishi kerak bo‘lgan muammolar juda ko‘p. Ana shu muammolardan biri xalq dostonlari tilini to‘la o‘rganishdir. Ayniqsa, deyarli filologiya fanida tadqiqot manbai sifatida tanlanmagan va o‘rganilmagan qashqadaryolik shoir Qodir baxshi Rahimov dostonlari tili leksikasi tadqiqi masalasi dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Qodir baxshi Rahimov yetmishdan ortiq doston kuylagan bo‘lib, “Jorxun maston”, “Oychinor”, “Kelinoy yoki Norguloy” dostonlarigina nashr etilgan xolos. Ana shu dostonlar tilining leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganish dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tilshunosligida xalq og‘zaki poetik ijodining muayyan janrlariga tegishli namunalari, xususan, xalq dostonlari

¹ Ma’rifat, 1999, 10 noyabr.

² Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 86 -b.

tiliga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari ancha salmoqli. Bu boradagi tadqiqotlar XX asrning 40-yillaridan boshlangan bo‘lib, taniqli folklorshunos olim Hodi Zarifov nomi bilan bog‘liqdir. Olimning xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘yicha amalga oshirgan fundamental tadqiqotlari ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik fanlari bo‘yicha keyingi yillarda amalga oshirilgan va oshirilayotgan tadqiqotlar uchun metodologik asos vazifasini bajardi deyish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida Sh.Shoabdurahmonov¹, R.Rasulov², S.Tursunov³, Z.Xolmonova⁴, A.Rahimov⁵, J.Xolmurotova⁶, A.Xoliqov⁷, M.Saparniyazova⁸, SH.Mahmadiyev⁹ va boshqa tilshunoslar muayyan bir doston tiliga bag‘ishlangan tadqiqotlarini amalga oshirdilar. Ularning samarali izlanishlari tufayli “Ravshan” (SH.Shoabdurahmonov), “Alpomish” (R.Rasulov, S.Tursunov), “Shayboniyxon” (Z.Xolmonova), “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” (A.Rahimov), “Shirin bilan Shakar” (G.Jumanazarova), “Xirmondali”, “Qirq minglar” kabi an‘anaviy dostonlarning lug‘aviy, lingvopoetik, funksional-uslubiy, sintaktik xususiyatlari tadqiq etildi. Sh.Mahmadiyevning xalq dostonlari tilida qo‘llanilgan stilistik formulalarga bag‘ishlangan nomzodlik ishida “Alpomish” (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Xushboq Mardonaqul o‘g‘li variantlari), “Yakka Ahmad”, “Oysuluv”, “Kunlarim” dostonlari manba sifatida tanlangan. Bundan tashqari, F.Hayitova¹⁰ va G.Jumanazarova¹¹ larning o‘zbek xalq qo‘shiqlari tiliga, X.Abdurahmonov¹¹ va

¹ Шоабдурахмонов Ш. О художественных средствах языка поэмы «Равшан»: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1949.

² Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане «Алпамыш»: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1981.

³ Турсунов С. Лексические особенности дастана «Алпамыш»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1990.

⁴ Xolmonova Z. “Shayboniyxon” dostoni leksikasi (Po‘lkan shoir varianti asosida): Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1998.

⁵ Rahimov A.S. O‘zbek xalq dostonlari lekiskasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodi misolida): Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. –Samarqand, 2002.

⁶ Xolmurotova J. Shimoliy Xorazm dostonlarileksikasining funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2000.

⁷ Xoliqov A.A. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoreyef. – Toshkent, 2009. –25 b.

⁸ Saparniyazova M. O‘zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2005. – 24 b.

⁹ Mahmadiyev Sh. Mahmadiyev Sh. O‘zbek xalq dostonlari tilida stilistik formulalar: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2007. – 26 b.

¹⁰ Hayitova F.B. Nikoh to‘yi qo‘shiqlarining lisoniy talqini: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2009.

¹¹ Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964.

M.Sadriddinova¹ larning o‘zbek xalq maqollari va matallarining lisoniy xususiyatlariga, M.Saparniyazovaning xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari² ga bag‘ishlangan tadqiqotlari yaratildi.

Shuni ham e’tirof etish kerakki, keyingi yillarda shakllangan tilshunoslikning lingvopoetika degan yangi yo‘nalishi tadqiqot usullaridan foydalangan tilshunoslarimiz xalq og‘zaki poetik ijodi namunalari tilining lingvopoetik xususiyatlarini o‘rgana boshladilar. Bu borada N.Mahmudov, I.Yormatov, M.Yoqubbekova, G.Jumanazarovalar ilmiy izlanishlari tahsinga loyiqdir. Qashqadaryo dostonchilik maktabining yirik vakili Qodir baxshi Rahimov dostonlari tili leksikasi esa ilmiy asosda deyarli o‘rganilmagan.

Ishning maqsad va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilining leksik-stilistik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko‘zda tutilgan:

- o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tiliga bag‘ishlangan tadqiqotlarga munosabat bildirish;

- o‘zbek tilshunosligida xalq poetik ijodi namunalari tiliga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni tahlil qilish;

- Qodir baxshi Rahimovning “Jorxun maston”, “Oychinor” va “Kelinoy yoki Norguloy” dostonlari tilida qo‘llanilgan leksemalarning mavzuviy guruhlarini aniqlash va shu asosda leksemalarni tahlil qilish;

- baxshi dostonlarida qo‘llanilgan onomastik nomlarning geneologik va leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish;

- dostonlar tilida qo‘llanilgan leksemalarning leksik-semantik, leksik-stilistik tabiatini tadqiq etish;

- baxshi dostonlari tilida qo‘llanilgan o‘xshatishlarni tadqiq etish;

- baxshining metaforadan foydalanish mahoratiga baho berish;

- dostonlar tilida qo‘llanilgan takrorlarning badiiy-uslubiy xususiyatlarini o‘rganish;

¹ Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985.

² Saparniyazova M. O‘zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2005. – 24 b.

-baxshining sinonim, omonim va antonimlardan foydalanish mahoratiga baho berish.

Ishning metodologik asosi va tekshirish metodlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlarga munosabat va ilm-fan taraqqiyoti bilan bog‘liq qarashlari hamda dialektik falsafaning keng tarqalgan tadqiq usullari ishning metodologik asosini tashkil etadi. Mavzuni yoritishda o‘zbek tilshunosligi fani qo‘lga kiritgan yutuqlardan keng foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tavsiflash, qiyosiy-tasnifiy, komponent tahlil usullariga murojaat qilindi.

Ishning ilmiy yangiligi. Qodir baxshi Rahimovning “Jorxun maston”, “Oychinor”, “Kelinoy yoki Norguloy” dostonlari tilining leksik-stilistik xususiyatlari ilk marta ilmiy asosda tadqiq etildi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ish natijalari uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘qitilayotgan o‘zbek tili va adabiyoti fanlari uchun manba vazifasini o‘tay oladi. Shuningdek, ish natijalari o‘zbek tilshunosligining leksikologiya, stilistika, matn lingvistikasi singari sathlari uchun material bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ishning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch maxsus bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 92 sahifani tashkil etadi.

I BOB. XALQ DOSTONLARI TILINING O'RGANILISHI VA UNING HOZIRGI BOSQICHDAGI MUAMMOLARI

1.1. O'zbek tilshunosligida badiiy asar tiliga bag'ishlangan tadqiqotlar

Badiiy asar tili, shu jumladan, leksikasini o'rganish adabiyotshunos hamda tilshunoslar oldida turgan muhim hamda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Keyingi yillarda bu yo'nalishda tilshunos olimlarimiz amalga oshirgan tadqiqotlar ancha ko'paydi. E'tiborga molik ilmiy ishlar yuzaga keldi. Bir qator monografik ishlar bajarildi. Darslik va qo'llanmalar yaratildi. Nomzodlik va doktorlik ishlari himoya qilindi. Jumladan, X.Doniyorov va B.Yo'ldoshevlar tomonidan yaratilgan "Adabiy til va badiiy stil" nomli kitobda badiiy asar tilini tadqiq etishning aniq yo'llari va usullari belgilab berildi¹. I.Qo'chqortoyev², R.Qo'ng'urov³, A.Shomaqsudov⁴, Sh.Shoabdurahmonov⁵, Q.Samadov⁶, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov⁷, B.Yo'ldoshev⁸, S.Karimov⁹, B.Umurqulov¹⁰, M.Yo'ldoshev¹¹ kabi ko'plab tilshunoslar badiiy asar tilini tadqiq qilishda samarali hissa qo'shdilar.

Badiiy asar tili tadqiqi masalasi doimiy ravishda tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Zero badiiy adabiyot inson kamolotida, uning ma'naviyatida katta o'rin tutadi. Bunda badiiy tilning o'rni va rolini belgilash katta ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar sirasiga kiradi. Badiiy tilning inson tafakkuridagi estetik jihatini o'rganish esa tilshunoslik fani uchun muhimdir.

O'zbek badiiy adabiyoti tilini o'rganish masalalari asriy va boy tajribalarga asoslangan bo'lib, o'tmishda yetuk badiiy til ustalarining ijodiyoti o'rganilganligi

¹ Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. –Toshkent: Fan, 1980. – 159 b.

² Qo'chqortoyev I. Badiiy so'z ustasi. – Toshkent: Fan, 1967.

³ Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1977.

⁴ Shomaqsudov A. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. -248 b.

⁵ Шоабдурахмонов Ш. О художественных средствах языка поэмы «Равшан»: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1949.

⁶ Samadov Q. Oybek – so'z san'atkori. – Toshkent, 1965.

⁷ Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1981.

⁸ Yo'ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. – Samarqand, 1982. – 81 b.

⁹ Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. -Samarqand.1992.

¹⁰ Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan, 1990. – 111 b.

¹¹ Yo'ldoshev M. Cho'lponning badiiy til mahorati. ("Kecha va kunduz" romani asosida): Filol. fanl. nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2000. 25 b.

haqida ilmiy manbalarda e'tiborga molik fikrlar uchraydi. Jumladan, eski o'zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy asarlari tiliga bag'ishlangan bir qator lug'atlar yaratilgani bor haqiqat.

Badiiy asar tiliga tom ma'noda bo'lgan qiziqish XX asrning 20-yillaridan boshlanganini e'tirof etish mumkin. Badiiy asar tili, shu jumladan, ularning leksikasini o'rganishga dastavval xorijlik olimlar jiddiy e'tibor bera boshladilar. Bu sohada V.V.Vinogradov¹, G.O.Vinokur², A.I.Yefimov³ singari olimlarning xizmat-xizmat-larini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tili tadqiqi bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot ishlari keyingi yillarda ancha jonlandi. Tilshunoslarimizning bir qancha maqola va monografiyalari yuzaga keldi. Doktorlik va nomzodlik ishlari bajarildi. L.Abdullayeva⁴, S.Ashurboyev⁵, B.Bafoev⁶, A.Rustamov⁷, B.Turdialiyev⁸ va boshqarlarning doktorlik dissertatsiyalari shular jumlasidandir.

Badiiy asar tilini o'rganish ancha murakkab jarayon bo'lib, bu sohada bajarilgan ko'pgina ilmiy ishlar va tadqiqotlarga asoslangan tilshunos olim M.Yo'ldoshev quyidagi mulohazalarni kun tartibiga qo'yadi:

1. Badiiy asar tili umuminsoniy qadriyatlar asosida, shuningdek, milliylik nuqtai nazaridan o'rganish lozim;

2. Badiiy asar tilini o'rganishda ijodkorlar asarlarini qiyoslash yoki o'zaro chog'ishtirish orqali tekshirish yaxshi samara berishi mumkin;

3. Alohida olingan asarni yaxlit tahlil qilish orqali (biror jihatdan) badiiy til muammosining ayrim masalalarini hal etish, zarur umumlashmalar chiqarishga imkon beradi;

¹ Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – М.: Высшая школа, 1981.

² Винокур Г.О. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. –М. Высшая школа, 1981. –С. 44-52.

³ Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М.: МГУ, 1968. Ефимов А.И. Язык и стиль. – М.: Наука, 1977. – 241 б.

⁴ Абдуллаева Л. Стилистическая дифференция лексики узбекской художественной литературы // Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. –Ташкент, 1980. – 48 с.

⁵ Ашурбоев С. Структурно-семантические особенности простого предложения в прозаических произведениях Алишера Навои // Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. –Ташкент, 1990. – 51 с.

⁶ Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навои (лексико-семантические, стилистические и тематические исследования) Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. –Ташкент, 1989. – 54 с.

⁷ Рустамов А. Некоторые фонетические и морфологические особенности языка произведений Алишера Навои // Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. –Ташкент, 1966. – 62 с.

⁸ Турдуалиев Б. Хамза и узбекский литературный язык (начало XX века) // Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. –Ташкент, 1988. – 48 с.

4. Ma'lum bir ijodkor asarlari tilini o'rganish orqali badiiy til muammolari haqida umumlashmalarga ega bo'lish mumkin¹.

O'zbek tilshunosligida ham badiiy asar tili masalasi bilan shug'ullangan olimlar ushbu masalaning ayrim jihatlarini xususida qimmatli fikrlar bildirishgan. Jumladan, badiiy uslub masalalari bilan jiddiy shug'ullangan S.Karimov ta'kidlaganidek: "Badiiy nutqda yozuvchi uchun hatto personajlar tilidan bo'lganda ham, aytilayotgan, yozilayotgan har bir nutq birligini o'ylab ko'rish lozim va ularning eng mos keladigan variantini tanlash uchun imkoniyat, sharoit va vaqt bor"². Shuning uchun ham ijodkorlarga nisbatan so'z gavharini teruvchilar iborasi ishlatib kelinadi.

Badiiy asar tili leksikasi haqida fikr yuritganda shu orqali har bir ijodkorning hayot materiallarini qay darajada bilishi, qolaversa o'zbek tili boyligidan va uning badiiyati imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olishiga e'tibor qaratiladi. Ijodkorning badiiy tasvir vositalarni qo'llab, hayotni ta'sirchan ifodalash mahoratiga baho beriladi.

Badiiy asar tili bilan shug'ullangan tadqiqotchilarning e'tirofiga ko'ra, keyingi yillarda bajarilgan tadqiqotlarni e'tiborga olgan holda, o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarni ikkiga ajratish mumkin. Yoki badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlar ikki yo'nalishda amalga oshirilmoqda: 1) lingvistik yo'nalish; 2) lingvopoetik yo'nalish.

Lingvistik yo'nalishda bajarilgan ishlarda tilning muayyan tarixiy davrdagi holati, ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsad qilib olinadi. Bu yo'nalishdagi ishlarda ma'lum bir davrga oid adabiy-badiiy asarlar tilini o'rganish ko'zda tutiladi. Tilshunoslar badiiy asarlar yoki yozma yodgorliklar tilini ayni maqsaddagi tadqiqot uchun material sifatida tanlaydilar.

¹ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.

² Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. -Samarqand.1992

Lingvopoetik yoʻnalishda bajarilgan ishlar lingvistik yoʻnalishdagi ishlardan tubdan farq qiladi. Bu yoʻnalishdagi ishlarda asosiy eʼtibor tilning turli vazifalarga egaligiga qaratiladi.

Maʼlumki, tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning quyidagi asosiy vazifalari qayd etiladi: kommunikativ, ekspressiv, konstruktiv, akkumlyativ vazifalari¹.

Kommunikativ vazifa tilning kishilar oʻrtasida asosiy aloqa vositasi ekanligini bildirsa, ekspressiv vazifa turli fikr va tuygʻularni ifodalashni, konstruktiv vazifa fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilashni, akkumulyativ vazifa esa ijtimoiy tajriba va bilimlarni toʻplash, saqlashni bildiradi.

Badiiy asar tili tadqiqiga bagʻishlangan ishlarda tilning ayni “ekspressiv vazifasi” atamasi bilan bir qatorda “tilning poetik vazifasi”, “tilning badiiy vazifasi”, “tilning estetik vazifasi” singari atamalar ham qoʻllanganini koʻramiz. Shuni ham aytish alohida taʼkidlash kerakki, ilmiy adabiyotlarda “tilning estetik vazifasi” atamasi boshqalariga koʻra koʻproq ishlatilgan. Zero estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni oʻz ichiga qamrab oladi va ularni oʻzida umumlashtiradi.

Badiiy asar tilini oʻrganishdagi ikkinchi yoʻnalish lingvopoetik yoʻnalish boʻlib, tilning estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgandir. Tilning estetik vazifasining asosiy namoyon boʻlish oʻrni badiiy asar matni sanalib, bu vazifaning oʻziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik doirasida oʻrganish qiyin, albatta. Buning uchun filologiyaning adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik, lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi yoʻnalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish koʻrishini adabiyotshunos va tilshunos olimlar eʼtirof etishadi. Olimlarimiz taʼkidlaganidek, tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan – adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlari oraligʻidagi murakkab muammo sanaladi.

¹ Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка. – Л., 1975.

Tilshunoslik, shu jumladan o'zbek tilshunosligida badiiy asar tili leksikasi tadqiqiga bag'ishlangan ishlar ko'p bo'lib, ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Birinchi guruhga kiritilayotgan V.B.Radlov, A.N.Samoylovich, S.Malov, T.Salimov, E.Fozilov, S.Mutallibov, G'.Abdurahmonov, F.Abdullayev, O.Usmonov, A.Rustamov, X.Doniyorov. B.Bafoev, S.Ashurboyev, F.Ishoqov, B.Turdiyev, N.Husanov, U.Sanaqulov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida badiiy asar tili (leksikasi) ni til tarixiy taraqqiyoti bilan bog'lab o'rganish ustuvorlik qiladi.

Bu olimlarning samarali mehnatlari tufayli Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodirabegim, Muhammad Sharif Gulxaniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa mumtoz adabiyot namoyandalari asarlarining tili badiiy mahorat jihatidan, lingvopoetik nuqtai nazaridan tadqiq etadilar.

2. Ikkinchi guruhga kiritilgan U.Tursunov, B.O'rinboyev, J.Lafasov, R.Qo'ng'irov, B.Sultonov, I.Qo'chqortoyev, L.Qayumov, M.Sultonova, Sh.Turdiyev, A.Aliyev, E.Yoqubov kabi olimlarning ishlarida tadqiqotning ma'lum bir qismi sifatida o'rganish yoki ilmiy, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalari yaratish maqsad qilib qo'yilgani kuzatiladi.

3. Uchinchi guruhga kiritilgan S.Rizayev, S.Karimov, S.Mamajonov, E.Qilichov, M.Tojiboyev, S.Nasriddinov, B.Zohidov, M.Yo'ldoshev va boshqa tilshunos hamda adabiyotshunoslarning ishlarida badiiy asar leksikasi maxsus o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganishda ko'proq leksik birliklarning lisoniy tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar ham anchagina. L.Abdullayevaning o'zbek badiiy adabiyotining leksik stilistikasiga¹, E.Qilichevning badiiy tasvirning leksik vositalariga², B.Umurqulovning poetik nutq leksikasiga³ oid qator ishlarini misol tariqasida tilga olish mumkin.

Bundan tashqari, o'zbek tilshunosligida ma'lum bir yozuvchi yoki shoir asarlarining tili va uslubiga bag'ishlangan bir qator ishlar ham mavjud. Shuningdek, aniq bir badiiy asar tiliga bag'ishlangan qator monografik ishlar va

¹ Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент: Фан, 1979.

² Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – Toshkent: Fan, 1982.

³ Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan, 1990.

ilmiy maqolalar yaratilganini ham ta’kidlash joizdir. Bu faktlar o‘zbek tilshunosligida adabiy va badiiy til hamda uslub masalalariga katta e’tibor berilayotganligi, uning umumnazariy asoslari ishlab chiqilayotganligini yaqqol ko‘rsatadi.

Tilshunosligimizda ijodkorlar tomonidan yaratilgan badiiy asarlarning tili masalalari haqida bir qator dissertatsiyalar himoya qilingani, monografiyalar chop etilganini ham ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. Bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlari XX asrning 50-60-yillaridan boshlangan bo‘lib, A.Shomaqsudov, R.Mirzayeva, U.Nosirov, M.To‘ychiyev, B.Yo‘ldoshev, E.Abdiyev, S.Karimov, T.Choriyev, F.Bobojonov, Sh.Doniyorova va boshqalarning ishlarini ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. Ayniqsa, ushbu masala keyingi yillarda ham kun tartibidagi dolzarb masala sifatida qolayotgani quvonchlidir. Masalan, T.Choriyevning “Sadridin Ayniy publitsistik asarlarining tili va uslubi (leksika va fraziologiya)” (Samarqand, 2001), F.Bobojonovning “O‘zbek jadid dramalarining lisoniy xususiyatlari (Behbudiy va Avloniy dramalari asosida)” (Samarqand, 2002), Sh.Doniyorovning “Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o‘ziga xosligi” (Toshkent, 2000) va boshqa tadqiqotchilarning nomzodlik ishlari shular jumlasidandir.

V.Zohidov, A.G‘ulomov, F.Abdullayev, A.Rustamov, X.Doniyorov va boshqalarning ilmiy maqolalarida badiiy asar tili ancha izchil tahlil etib berilgan. Olimlar badiiy asarning personajlari nutqini, asarda berilgan mualliflar bayonini, ijodkorlar qo‘llagan badiiy tasvirning leksik vositalarini, yozuvchi va shoirlarning xalq tilidan foydalanish mahoratini, yangi so‘z va iboralar yaratishdagi o‘ziga xosligini va san’atkorligini ilmiy asosda tahlil etib berishga harakat qilganlar.

Badiiy asarlarning leksik-stilistik va leksik-semantik xususiyatlariga bag‘ishlangan dissertatsion ishlar ham mavjud. A.Karimov, X.Mamatov, U.Nosirov, S.To‘rabekova, Z.Hamidov, S.Boboyevalarning ishlari aynan shu masalalarga bag‘ishlangandir. Masalan, X.Mamatov Alisher Navoiy badiiy prozasining leksik-stilistik xususiyatlarini o‘z ishida tadqiq etgan bo‘lsa, A.Karimovning ilmiy izlanishlari Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Z.Hamidovning nomzodlik dissertat-

siyasida Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni tilining leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari o‘rganilgan. S.Boboyeva esa shoir Hamid Olimjon poeziyasining leksik-stilistik xususiyatlarini tadqiq etdi.

1.2. O‘zbek tilshunosligida xalq og‘zaki ijodi namunalari tilining o‘rganilishi

Ilmiy adabiyotlarda o‘zbek tilshunosligida xalq poetik ijodi namunalari-ning muayyan janrlariga tegishli namunalari, xususan, xalq dostonlari tiliga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari XX asrning 40-yillaridan boshlangan deya qayd etiladi¹. Taniqli folklorshunos olim, professor Hodi Zarifovning “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari bu boradagi tadqiqotlarning debochasi sifatida e’tirof etiladi. Olimning V.M.Jirmunskiy bilan hamkorlikda yaratgan fundamental tadqiqotida xalq dostonlari tili bo‘yicha ham qimmatli fikr-mulohazalar bildirilgan bo‘lib, bu mulohazalar hozirgacha ham o‘zining ilmiy qimmatini yo‘qotmagan².

Fozil shoir dostonlari tili bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan G.Jumanazarova ta’kidlaganidek, H.Zarifov va V.Jirmenskiylar hamkorligida yaratilgan ilmiy tadqiqot “keyingi tadqiqotlar uchun metodologik zamin hozirlab berdi”³. Taniqli folklorshunoslarning ushbu ilmiy ishidan so‘ng filologiya ilmida folklorshunoslik masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar yuzaga keldi.

Tilshunosligimizda Sh.Shoabdurahmonovning “Ravshan” dostoni badiiy tiliga, R.Rasulovning “Alpomish” dostoni tili sintaksisiga, S.Tursunovning “Alpomish” dostoni leksikasiga, Z.Xolmonovanning Po‘lkan shoir tomonidan kuylangan “Shayboniyxon” dostoni leksikasiga, A.Rahimovning o‘zbek xalq dostonlari leksikasining qiyosiy-tarixiy tahliliga, J.Xolmurotovaning Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining funksional-uslubiy xususiyatlariga, A.Xoliqovning “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni tilining leksik-semantik

¹Jumanazarova G. Fozil shoir dostonlari tilining leksik-stilistik qatlamlari: Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012, -10-b.

²Жирминский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. –М.:ГИХЛ, 1947. -520 с.

³Jumanazarova G. Fozil shoir dostonlari tilining leksik-stilistik qatlamlari: Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012, -10-b.

xususiyatlariga, G.Jumanazarovning “Shirin bilan Shakar” dostonining lugʻaviy va lingvopoetik xususiyatlariga, Sh.Mahmadiyevning xalq dostonlari tilida qoʻllaniladigan stilistik formulalarga bagʻishlangan nomzodlik ishlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, xalq qoʻshiqlari tili leksikasiga bagʻishlangan ishlar ham mavjud. Masalan, F.Hayitova nikoh toʻyi qoʻshiqlarining lisoniy talqiniga, M.Jumaniyozovning Xorazm xalq qoʻshiqlar leksikasiga bagʻishlangan nomzodlik ishlarini himoya qildilar.

Oʻzbek tilshunosligida xalq maqollari va matallari tili leksikasi yoki ularning sintaktik xususiyatlariga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlar ham bajarilgan. Bu borada X.Abduraxmonovning oʻzbek xalq maqollarining sintaktik xususiyatlariga, M.Sadriddinovaning oʻzbek xalq maqollari va matallari leksikasiga bagʻishlangan nomzodlik ishlari eʼtiborga molikdir.

Bizga maʼlumki, xalq dostonlarining ijodkori xalqning oʻzidir. Shuning uchun ham xalq dostonlari tilida sheva elementlari ustuvorlik qiladi. Bundan tashqari, dostonlar xalq baxshilari tomonidan kuylanadi, Baxshi esa doston tiliga sayqal berishi mumkin. Shunday ekan, xalq dostonlari tilining sheva va adabiy tilga munosabati masalalari oʻzbek tilshunosligi fani oldida turgan muhim tadqiqotlar sirasiga kiradi. Shuning uchun ham tilshunosligimizda xalq dostonlari leksikasining sheva va adabiy tilga munosabatini ochishga bagʻishlangan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Bu borada Sh.Shoabdurahmonov, X.Doniyorov, A.Ishayev, B.Toʻychiboyev, A.Rahimov kabi olimlarning ilmiy maqolalari va monografik tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ularning ilmiy ishlari faktik materiallarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Olimlar xalq ogʻzaki ijodi namunalarining lisoniy xususiyatlarini sinchkovlik bilan oʻrganganliklari koʻrinib turibdi. Shuning uchun ham bu kabi olimlarning ishlari bugungi kunda ham oʻzining ilmiy-nazariy qimmatini yoʻqotmagan.

Xalq dostonlari tili leksikasining xalq shevalari hamda adabiy tilga munosabati masalalari bilan taniqli shevashunos olim A.Ishayev ham jiddiy

shug‘ullanganini ko‘ramiz. Olimning bir qator ilmiy ishlari aynan xalq dostonlari tili leksikasi va uning tilini jiddiy o‘rganishga qaratilgandir¹. A.Ishayevning “Xalq dostonlari tili leksikasidan” nomli tadqiqotida Janubiy Xorazmda yashayotgan qipchoq shevasiga mansub baxshilar tomonidan yaratilgan dostonlar tilining lug‘aviy birliklari o‘ziga xos va takrorlanmas xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turishi alohida ta’kidlanadi. Olimning ta’kidlashicha, Xorazm dostonlarida boshqa o‘zbek shevalarida uchramaydigan, umumqipchoq shevalariga bevosita aloqador so‘zlar mavjuddir².

A.Ishayevning boshqa bir ishida Ergash Jumanbulbul o‘g‘li tomonidan kuylangan “Ravshan”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Kuntug‘mish”, “Dalli”, “Xushkeldi” dostonlarida uchraydigan ayrim yetakchi lingvistik xususiyatlar tadqiq etilgan. Olimning aniqlashicha, bu dostonlar tilida qo‘shma, juft, takroriy so‘zlar juda ko‘p va xilma-xil shakllarda ishlatilgan. Shuningdek, ayrim so‘z yasovchi affikslar, fe’llarning tuslanish holatlari va boshqa bir qator morfologik hodisalar yuqoridagi dostonlar tilida keng qo‘llanilgani ta’kidlanadi. Olimning e’tirof etishicha, bu kabi shakllarning aksariyati hozirgi o‘zbek adabiy tilida uchramaydi. A.Ishayev o‘z kuzatishlari va tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosaga keladi: “...shu sababli xalq dostonlarining til xususiyatlarini sinchiklab o‘rganish o‘zbek tili tarixi, dialektologiyasi uchungina emas, balki turkiy va turkiy bo‘lmagan tillarni qiyosiy-tarixiy yo‘sinda o‘rganish, tadqiq qilish uchun ham, shubhasiz, katta ilmiy ahamiyatga egadir”³.

O‘zbek tilshunosligida xalq og‘zaki ijodi namunalarining lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar juda kam. Bu boradagi tadqiqotlar endigina boshlanyapti. Bu boradagi tadqiqotlardan biri professor N.Mahmudovga tegishlidir. Olim “Alpomish” dostoni lingvopoetikasini tadqiq etadi. Uning “Alpomish” dostoni lingvopoetikasiga chizgilar”⁴ nomli ishida “Alpomish” dostonida

¹ Ishayev A. Xalq dostonlari leksikasidan // O‘zbek xalq ijodi. –Toshkent:Fan, 1967. –B.167-177.

² Ishayev A. Dostonlar tilining ba’zi xususiyatlari // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni. – Toshkent: Fan, 1971. –B.173-179.

³ Ishayev A. Dostonlar tilining ba’zi xususiyatlari // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni. – Toshkent: Fan, 1971. –B.179.

⁴ Mahmudov N. “Alpomish” dostoni lingvopoetikasiga chizgilar // O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari.. To‘plam. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPI, 2010. –B. 12-18.

o'zbek xalqining ko'hna va hamisha navqiron tili o'zining butun salohiyati bilan jilvalangani ta'kidlangan holda adabiy tilning shevalar bilan munosabati, "Alpomish" dostonini ko'plab baxshi-shoirlar kuylalagani va ular ichida Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosidagi doston alohida ajralib turishi va keng tarqalganligi qayd etib o'tiladi. Olim e'tirof etganidek, "Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, "Alpomish" dostoni o'zbek xalq tilining xira tortmas ko'zgusi, jonli xalq tilining, xalq donoligining jonli tarixi in'ikosidir"¹.

Olim doston tilining lingvopoetik xususiyatlarini tahlilga tortar ekan, doston nazmiy qismidagi matnlar asosan, yetti, sakkiz va o'n bir bo'g'inli she'rlardan tashkil topganini e'tirof etadi, ularda "goh tez, jo'shqin, goh tinch, vazmin, gohida mu'tadil bir tarzda taraluvchi ohang" mavjudligini va ana shu ohang til vositasida voqelanganini yozadi.

Maqolada tovushlar takrori orqali ham ana shunday musiqiy ohang yaratilganini quyidagi misollar orqali dalillanadi: "*Qilichida qirmiz qonlar qotadi*", "*Qamoqda qolmasin gulday tanam*", "*Qalmoqning qo'lida qotti Boychibor*", "*Suvda bo'lar suluv o'tning suyrug'i*".

Muallif dostoni tilida kelgan "**g'amlar joylanmoq**" ("*Har yerda dushmanning qo'li bog'lansin, G'animning ichiga g'amlar joylansin*"), "**ko'ngli qabarmiq**" ("*Mahram kelib menga berdi xabardi, Zakot degan gapga ko'nglim qabardi*"), "**gap yetaklamiq**" ("*Yurtimning qirquin qizlari bilmasin, U qurg'urlar gap yetaklab yurmasin, El ichinda malomat so'z bo'lmasin*") singari iboralarning lingvopoetik xususiyatlari keng ochib beriladi. Shuningdek, doston tilida qo'llangan "*emish-emish*" (mish-mishning shakli), "*nar-moda*" takroriy va juft so'zlarning lingvopoetik xususiyatlari haqida ham e'tiborga molik fikrlar bayon etilgan. Masalan, olim Alpomishning yakkayu yagona singlisi Qaldirg'och qalmoqlar orasida talash bo'lib yotgan Barchinni qutqazishga shoshilmagan Alpomishdan gina qilib "nomardsan" degani yetmagandek, achchiq va keskir so'zlar tig'i bilan chimchilaydi: "*Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin, Nar-moda ishini bunda qilmagin*". Singlisining haqorati Alpomishga qattiq botadi, uning

¹ Mahmudov N. Ko'rsatilgan manba. 13-bet.

ta'nasidan ko'ngli ozorlanadi va singlisiga qarata shunday javob qiladi: *“Nar-modadeb meni silkib solasan, Juda ham akangni nomard bilasan?!”* Qaldirg'ochning keyingi javobi bundan ham keskirroq bo'ladi: *“Har kim o'z elida bekmi, to'rami, / Nar-modalar sendan kamroq bo'lami, / Mardning yori toy-talashda qolami?!”*

N.Mahmudov aka-singil o'rtasidagi bu munozarani tahlil etar ekan shunday yozadi: “Nar-modaning muntazam ma'nosi Qaldirg'ochning bu va keyingi so'zlarida butun qichovli qirralari bilan namayon bo'ladikim, “nomard” so'zi bu juft so'z yonida kichrayib, maydalashib, yo'q bo'lib ketadi. Ayni “nar-modadeb” (“erkak-urg'ochi”) so'zi o'zining qiyossiz ta'nador qudrati bilan yigitning yuragidagi hamiyat degan bikir tuyg'uni tiriltirib, Alpomishni Boychiborga mindiradi. O'qdan o'tkir so'zni o'rnida so'ylatmoq xalqimizning aslida, azaliyatida bor fe'ldir”¹.

B.To'ychiboyevning “Alpomish” va xalq tili” nomli monografik tadqiqoti “Alpomish” dostoni tilining lingvostilistik tahliliga bag'ishlangani bilan ajralib turadi². Olimning e'tiroficha, dostonlar tili og'zaki adabiy til namunasi sanalib, adabiy tilni boyitishda muhim manba vazifasini o'tay oladi. Jumladan, ushbu monografik ishda qipchoq shevasining xususiyatlari haqida quyidagi e'tiborga molik fikrlar bayon etilgan.

B.To'ychiboyev “Alpomish” dostoni tilini umumxalq tili bilan qiyoslab o'rganar ekan xalq og'zaki ijodi namunalari tilini tadqiqi uchun qo'l keladigan bir qator muhim ilmiy xulosalarga keladi. Masalan, dostonlar tili bilan jonli xalq tili o'rtasida o'xshashlik va umumiyliklar mavjud: so'zlar siqiq holda qo'llangan bo'lib, so'zlardagi bu siqiqlik talaffuzning yengil bo'lishiga intilishdan kelib chiqqan. Xalq dostonlari, shu jumladan “Alpomish” dostoni tilida umumxalq tilidagi kabi qisqa iboralar keng qo'llanilgan. Ma'lumki, bunday iboralar katta ko'lamdagi fikrlarni ifodalay olishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

¹ Mahmudov N. Ko'rsatilgan manba. 15-bet.

² To'ychiboyev B. “Alpomish” va xalq tili. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2001. – 160 b.

A.S.Rahimov o'z tadqiqotini bajarishda taniqli baxshi Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi "Xushkeldi" va "Qunduz bilan Yulduz" dostonlarini tanlagan¹. Tadqiqotchi yuqoridagi dostonlardan to'plagan tarixiy-lisoniy dalillarni qiyosiy va semantik-stilistik aspektda o'rganadi. U o'z tahlillari asosida, adabiy tilning milliylikkacha hamda milliy bosqichlarda folklor asarlarining tutgan o'rni va ahamiyati bilan bog'liq masalalarga ilmiy jihatdan oydinlik kiritishga harakat qiladi. Muallif til tizimida tarixiy jihatdan jonli tilga nisbatan og'zaki ust dialektning ustuvor bo'lganligi, folklor tili ana shu dialektlar zahirida rivojlanganligi, bu esa og'zaki til tizimida poetik ust dialektning, ayni paytda, uning yozma tilning vujudga kelishiga asos bo'lganligi haqida to'g'ri xulosalar chiqargan².

Shuningdek, A.Rahimov tadqiqotlarida Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan dostonlar tilida qo'llanilgan an'anaviy leksik, frazeologik birliklar qardosh qoraqalpoq va turkman xalklarining "Qirq qiz", "Gorog'li" dostonlari tili bilan qiyosiy tahlil etiladi. Ayni paytda tadqiqotchi qadimgi "Urxun-Enasoy" yozma yodgorligi va boshqa qadimgi turkiy yozma manbalar tili bilan qiyosiy tahlil qiladi va muayyan ilmiy xulosalarni bayon etadi.

Sh.Mahmadiyevning tadqiqotlari o'zbek tilshunosligida deyarli o'rganilmagan xalq dostonlari tilida qo'llanuvchi stilistik formulalarga bag'ishlangani bilan alohida ajralib turadi. U o'z tadqiqotlarida xalq dostonlari tilini turli aspektda o'rgangan Sh.Shoabdurahmonov, U.Tursunov, X.Doniyorov, R.Qo'ng'urov, X.Abdurahmonov, B.O'rinboyev, I.Mirzayev, R.Rasulov, S.Tursunov, B.Yo'ldoshev, S.Karimov, B.To'ychiboyev, A.Rahimov kabi tilshunoslarning ishlariga tayangan va ulardan ijodiy foydalangan holda yangi ilmiy xulosalar chiqarishga harakat qiladi.

Tadqiqotning "Stilistik formulalarning klishe nazariyasida tutgan o'rni" deb nomlangan birinchi bobida dastlab stilistik formulalarning lingvofolkloristik atamalar tizimida tutgan o'rni xususida so'z yuritir ekan, tilshunoslik fanida bu

¹ Rahimov A.S. O'zbek xalq dostonlari lekiskasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o'g'li ijodi misolida); Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. –Samarqand, 2002. -27-b.

²Jumanazarova G.U. Fozil shoir dostonlari tilining leksik-stilistik qatlamlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012. –B. 13-14.

atama o'rnida epik formulalar, stilistik formulalar, an'anaviy uslub elementlari, tayyor poetik ifodalar, barqaror birliklar, barqaror formulalar, o'lik formulalar, poetik formulalar, barqaror epik formulalar, doimiy poetik tasvirlar, an'anaviy misralar, traditsion misralar, doimiy poetik tasvir vositalari, katta poetik nagruzka singari atamalar ham keng qo'llanib kelinganini ta'kidlaydi¹.

Sh.Mahmadiyev stilistik formulalar atamasini o'z ishida qo'llashni ma'qul deb topadi va ushbu atamaning bir qator asosiy xususiyatlarini qayd etib o'tadi: "...ular, birinchidan, xalq og'zaki ijodi faqat epik janrga tegishli, ikkinchidan, improvizatsiya jarayonida muntazam qo'llanilib, barqarorlik va doimiylik kasb etgan, uchinchidan, an'anaviy xarakterga ega bo'lgan, to'rtinchidan, poetik vosita sanaladigan, beshinchidan, epik asar bayonida hamisha qo'llanishga tayyor holda turgan, oltinchidan, u yoki bu darajada stilistik bo'yoq mavjud bo'lib, faqatgina xalq og'zaki poetik ijodiga xoslangan tasviriy vositalar"².

Tadqiqotchi stilistik formulalar dostonlarning ham nasriy, ham nazmiy matnida uchrashi va bu qo'llanish ko'proq nazmiy matn uchun xoslanganini qayd etadi. Stilistik formulalarning asosiy xususiyati an'anaviylik ekanligi, ular odatda o'zgarishsiz qo'llanishi lisoniy misollar asosida dalillanadi. Shuningdek, stilistik formulalar dostonlar tilida ayrim o'zgarishlar bilan qo'llanishi ham misollar orqali ko'rsatib o'tilgan. "Stilistik formulalarning matnidagi o'zgarishlar baxshilarning individual uslubi, badiiy tafakkuri doirasida sodir" bo'ladi degan xulosani bayon etgan tadqiqotchi "stilistik formulalar mazmun va shaklga ham ta'sir"³ ko'rsatishini qayd etadi.

Shuningdek, Sh.Mahmadiyevning tadqiqotida stilistik formulalar uchun xarakterli bo'lgan o'xshatish, epitet va takrorlar ham alohida o'rganilgan. Tadqiqotchining statistik ma'lumotlariga ko'ra, tahlil uchun jalb etilgan dostonlar tilida qo'llanilgan 70 ta o'xshatishli matnning 47 tasida *-day* shakli ishtirok etgan, kitobiy *-dek* varianti biror marta ham qo'llanilmagan, 19 o'rinda

¹ Mahmadiyev Sh. O'zbek xalq dostonlari tilida stilistik formulalar: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2007. – B.7.

² Mahmadiyev Sh. O'zbek xalq dostonlari tilida stilistik formulalar: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2007. – B.7.

³ Махмадиев Ш. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б.11.

-dayin, -ona, -larcha affiksial shakllar hamda o'xshamoq, mengzamoq, sifatli leksik birliklar qo'llangan¹. Tahlil uchun jalb etilgan dostonlar tilida *gul yuzli dilbar, qalam qoshli, suluv qalam qosh, temir bilak, po'lat tirnoq, qambar ko'z* boshqa ko'plab epitetlar qo'llangan. Tadqiqotchi ularning har birini misollar orqali dalillab ko'rsatadi. Takrorlaning qo'llanish xususiyatlari ham lisoniy dalillar va statistik ma'lumotlar orqali tahlil etib berilgan.

O'zbek tilshunosligida xalq og'zaki poetik ijodi namunalari tili leksikasiga bag'ishlangan ishlar ancha salmoqli. S.Tursunov, D.Abdurahmonov, F.Hayitova, M.Jumaniyozova, J.Xolmurotova, Z.Xolmonova, A.Xoliqov, G.Jumana-zarova va boshqa tilshunoslarning keng qamrovli tadqiqotlari shular jumlasidandir.

S.Tursunovning tadqiqoti "Alpomish" dostoni leksikasiga bag'ishlangan bo'lib², tadqiqotchi ushbu doston matni misolida folklor leksikasi va frazeologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, umumxalq tili bilan xalq og'zaki poetik ijodi namunalari tilining umumiy va farqli jihatlarini tahlil etishga harakat qiladi. Ushbu ishda "Alpomish" dostonining dialektal leksikasi ilk bor monografik tarzda o'rganilganligi bilan katta amaliy qimmatga egadir. Tadqiqotchi asosiy diqqat-e'tiborini leksik dialektizmlar, grammatik dialektizmlar va frazeologik dialektizmlarga qaratib, bu kabi dialektizmlarning o'zbek adabiy tilida ekvivalentlari mavjudligi yoki mavjud emasligini tahlil etishga harakat qiladi.

S.Tursunov nomzodlik ishi mavzusi doirasida chop ettirgan maqolalarida "Alpomish" dostoni tilida qo'llanilgan kasb-hunar leksikasi qatlamlarini mavzuviy guruhlariga ajratib o'rganadi. Mavzuviy guruhlariga kiruvchi har bir so'zning lug'aviy ma'nolarini yoritib berishga harakat qiladi. Maqolalarning

¹ Махмадиев Ш. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б.14.

² Турсунов С. Лексические особенности дастана «Алпамыш»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1990. – С. 19.

ayrimlari ushbu doston epik qahramonlari nomlarining lisoniy xususiyatlari, doston tilida qo‘llanilgan ma’nodoshlik hodisasi tahlil etiladi¹.

Z.T.Xolmanovanning dissertatsion tadqiqoti Po‘lkan shoir tomonidan yozib olingan “Shayboniyxon” tarixiy dostoni leksikasiga² bag‘ishlangan bo‘lib, tahlilga tortilgan materiallarning boyligi bilan boshqa ishlardan farqlanib turadi. Tadqiqotchi doston tilida qo‘llangan so‘zlarni kengroq tahlil etish maqsadida ularni alohida kichik guruhlariga bo‘lib, o‘rganishga harakat qilgan. Doston matnida qo‘llangan so‘zlarning leksik-genetik tabiati ochib berilgan. Bu boradagi tahlillar so‘zlarning mavzuvii va semantik guruhlariga bo‘lib o‘rganishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, ishda doston tilida qo‘llanishda bo‘lgan so‘zlar shevadagi variantlari bilan qiyosiy tahlil etilgan, ularning qo‘llanish meyorlari aniqlangan.

Z.Xolmonova tomonidan bajarilgan ishning ilmiy qimmatlaridan biri sifatida Po‘lkan shoir kuylagan doston tili bilan Muhammad Solih tomonidan yaratilgan “Shayboniynoma” dostoni tili o‘zaro qiyoslab o‘rganilganidir. Shuningdek, doston tili leksikasi hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan ham qiyoslangan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi doston tilida qo‘llanishda bo‘lgan so‘zlarning mavzuvii guruhlariga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqotchi o‘ttizdan ortiq mavzuvii guruh ostida doston tilida qo‘llangan so‘zlarning asosiy qismini tahlilga tortadi. Tadqiqotning bu qismi shu sohaga bag‘ishlangan boshqa ishlar uchun ham ilmiy va amaliy ko‘mak berishi mumkin.

Xalq dostonlari tili leksikasiga bag‘ishlangan ko‘pgina ishlarda tahlilga tortilgan dostonlar tilida qo‘llangan so‘zlarning shakl va mazmun munosabatga ko‘ra turlari va bu turlardan xalq baxshilarining foydalanish mahorati masalalari ham keng o‘rin olayotgani kuzatiladi. Z.Xolmonovanning mazkur dissertatsion

¹ Tursunov S. “Alpomish” dostoni leksikasini o‘rganishga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1085. -№3 – B.36-38. Tursunov S. “Alpomish” dostoni tilidagi antraponimlar // Antraponimika muammolariga bag‘ishlangan regional yig‘ilish dokladlari tezislari to‘plami. – Jizzax, 1985. -58-60-b. Tursunov S. “Alpomish” dostonida sinonimlar // Jizzax DPI professor-o‘qituvchilarining ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Jizzax, 1988. –B. 101-102.

² Xolmonova Z. “Shayboniyxon” dostoni leksikasi (Po‘lkan shoir varianti asosida): Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1998. -25-b.

ishida ham shu holat mavjud. Tadqiqotchi ushbu masalani ishning oxirgi bobida yoritib bergan. “Shayboniyxon” dostoni tilida qo‘llangan so‘zlarda kuzatilgan ko‘p ma’nolilik, ma’nodoshlik, zid ma’nolilik, shakldoshlik singari hodisalar ushbu bobda tahlil etiladi va undan statistik ma’lumotlar ham keng o‘rin olgani e’tirofqa molikdir.

O‘zbek tilshunosligida ma’lum bir doston tilining sintaktik xususiyatlari ham o‘rganilgan. Jumladan, “Alpomish” dostoni tilining sintaktik xususiyatlari R.Rasulov tomonidan maxsus o‘rganilgan¹.

Xalq og‘zaki ijodining boshqa namunalari tilining sintaktik xususiyatlari ham o‘zbek tilshunosligida monografik tarzda o‘rganilgan. Masalan, M.Saparniyazovaning tadqiqoti o‘zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlariga bag‘ishlangan².

O‘zbek tilshunosligida ma’lum bir hududda yashovchi baxshi-shoirlardan yozib olingan dostonlar tili ham o‘rganib kelinmoqda. Masalan, J.Xolmurotovaning dissertatsion tadqiqotida shimoliy Xorazm dostonlari leksikasi tadqiq etilgan. Tadqiqotda yozma badiiy nutq va doston tili, adabiy til va doston tili, shu dostonlar leksikasidagi so‘zlarning mavzuviy guruhlari, onomastik leksikaning o‘rni, so‘z va frazeologizmlarning o‘zaro munosabati kabi masalalar maxsus o‘rganilgan.

Bu kabi tadqiqotlarda dostonlar tilida qo‘llanilgan epitetlar, o‘xshatishlar, metafora va metonimiya, evfemizm va sajlar ham tahlilga tortilganini ko‘ramiz. J.Xolmurotovaning ishida Xorazm dostonlari leksikasining badiiy-uslubiy vazifasi xususida so‘z yuritilganda ushbu masalalarga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotchi doston tilidagi leksik birliklarning nominativ-tavsifiy va badiiy-uslubiy vazifalarda qo‘llanishini yoritish ekan, ularni kuzatish orqali an’anaviylik va doston ijrochisi bayonidagi individuallikni aniqlash mumkinligi haqida muhim xulosa va tavsiyalar beradiki, bu xulosa va tavsiyalar keyingi tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etishi aniq.

¹ Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане «Алпамыш»: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. -23-б.

² Saparniyazova M. O‘zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2005. – 24 b.

A.A.Xoliqovning “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlari” nomli nomzodlik ishida doston tilini tadqiq etishda tarixiylik nuqtai nazaridan yondashilgan¹. Tadqiqotchi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni tilida qo‘llanilgan leksik birliklarning mavzuviy guruhlarini, doston tili leksikasining geneologik qatlamlarini va doston tili leksikasining badiiy-uslubiy xususiyatlarini maxsus o‘rganadi.

Xalq og‘zaki poetik ijodi namunalariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy maqolalar ham mavjud bo‘lib, ularning aksariyati dostonlar tili leksikasiga bag‘ishlangani bilan bizning ishimiz uchun katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Masalan, D.Abdurahmonov va X.Bektemirovlarning ilmiy maqolasida o‘n ikkita xalq dostonlari tanlab olingan bo‘lib, ular dastlab atoqli otlarning statistik ma’lumotlarini qayd etadilar va qaytariq nomlarni ko‘rsatib o‘tadilar².

Ushbu ishda kun tartibiga qo‘yilgan masala keng qamrovli o‘rganilgani kuzatiladi. Olimlar o‘zlari tanlagan dostonlar tilida qo‘llangan onomastik birliklarni parallel nomlar, maqollar, etnonimlar, otlarning dostonlardagi nomlari, ot (ism) qo‘yishdagi rasm-rusumlar bilan aloqador jihatlarni tahlilga tortganlari shundan dalolat beradi. Maqolada onomastik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari ilmiy jihatdan puxta asoslab berilgan.

Ko‘ramizki, o‘zbek tilshunosligida xalq dostonlari leksikasi keng qamrovda o‘rganilmoqda. Bu boradagi izlanishlar davom etmoqda. Shuni ham aytish kerakki, bu boradagi tadqiqotlar doirasi qancha keng bo‘lishiga qaramay, ular xalqimizning yuksak ijodkorona dahosi natijasida yaratilayotgan dostonlarning barchasini to‘la qamrab ololmasligi aniq.

¹ Xalikov A.A. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni tilining leksmk-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2009. -24 b.

² Abdurahmonov D., Bektemirov X. O‘zbek xalq dostonlari onomastikasi // O‘zbek xalq ijodi. –Toshkent: Fan, 1964. –B.186-191.

BOB BO‘YICHA XULOSA

1. Bundan keyin muayyan badiiy asarlar yoki folklor namunalari tilini leksik-semantik, lingvostilistik va lingvopoetik yo‘nalishlarda tadqiq etishga bag‘ishlangan, ulardan umumnazariy xulosalar chiqariladigan, ayni chog‘da, jiddiy va keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar yaratilishi lozim. Bu esa tilshunoslarimiz oldiga katta vazifalarni yuklaydi.

2. Xalq dostonlarining lisoniy xususiyatlarini keng qamrovda, umuman, doston janrining ichki guruhlariga mansub mavjud epik namunalari, qolaversa, hozirgacha chop etilgan dostonlar matnining leksik-semantik, lingvostilistik va lingvopoetik tabiatining o‘rganilish holati hozirgi vaqtda talab darajasida emas. “Alpomish”, “Ravshan”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Xirmondali” va “Qirq minglar” kabi dostonlarining leksikasi hamda funksional-uslubiy xususiyatlari, hamda “Shayboniyxon” tarixiy dostoni leksikasiga bag‘ishlangan ishlar bundan mustasno.

3. O‘zbek xalq dostonlarining lisoniy xususiyatlari tarixiy davriylik nuqtai nazardan ham qoniqarli darajada ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan emas. Fikrimizcha. xalq dostonlarining mumtoz namunalari leksik tarkibidagi o‘z va o‘zlashgan qatlamlarning qo‘llanish darajasi, har bir dostonlar tiliga xoslangan so‘zlarning chastotasi va leksikografik manbalari ham aniqlanishi va alohida o‘rganilishi, so‘ngra umumlashtirilishi lozim.

4. Xalq dostonlarini maroq bilan kuylagan ijrochilar - baxshilarning epik repertuaridagi o‘ziga xos individual uslubini aniqlashni ko‘zda tutadigan, quvvai hofizasidagi so‘zlarning boyligini va miqdorini shartli bo‘lsa-da aniqlab, umumlashtirib beradigan, hech bo‘lmasa, eng yuqori, o‘rtacha va past darajada qo‘llangan so‘zlarning chastotasini ko‘rsatadigan tadqiqotlar, shuningdek, so‘zlik, alfavitli-chastotali, ters (chappa) va izohli lug‘atlar yaratilmog‘i shart.

II BOB. QODIR BAXSHI RAHIMOV DOSTONIDA QO‘LLANILGAN LEKSEMALARNING MAVZUVIY GURUHLARI VA LEKSIK- SEMANTIK XUSUSIYATLARI

2.1. Baxshi dostonlari tilidagi leksemalarning mavzuviy guruhleri

Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida xalqimizning muayyan turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy holati, xatti-harakatlari, rasm-rusmlari, urf-odatleri, doston qahramonlari nomlari, voqealar kechgan joy nomlari o'z ifodasini topgan. Qodir baxshi biror dostonni kuylar ekan, doston voqeligini, ya'ni epik syujetni bayon qilish jarayonida o'zbek tilining boy xazinasidan foydalanadi. Baxshi o'zbek tili leksikasining turli mavzuviy guruhlariga kiruvchi so'z va boshqa til birliklaridan ma'lum bir maqsadda samarali foydalana olgan. Qodir baxshi tomonidan kuylangan "Oychinor"¹, "Jorxun maston" (JM)², "Kelinoy yoki Norguloy" (KN)³ dostonlari tilida qo'llangan leksik birliklarni quyidagi mavzuviy guruhlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb topildi.

1. Inson va uning tana a'zolari nomlarini ifodalovchi leksemalar.

Badiiy asarlarda ham, xalq dostonlarida ham ma'lum bir shaxs (qahramon yoki qahramonlar) hayoti bilan bog'liq voqelik o'z aksini topadi. Shunday ekan har qanday ijodkor o'z qahramonlarining portretini yaratishda, ularning turli xatti-harakatlarini chizishda, jismoniy-ruhiy holatlarini tasvirlashda inson a'zolari nomlariga murojaat qiladi. Ulardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanadi. Biz bilamizki, inson murakkab anatomik tuzilishga egadir. U ma'lum bir faoliyati davomida tana a'zolarini harakatga keltiradi. Ulardan ma'lum maqsadda foydalanadi. Xalq dostonlarida baxshi o'z epik qahramonining faoliyati yoki xatti-harakatlarini tasvirlar ekan uning tana a'zolaridan birini tasvir obykti sifatida olishi tabiiy holdir. Shuning uchun ham xalq dostonlari tilida *bosh*

¹ Rahimov Q. Oychinor. Doston. Yozib olibYU nashrga tayyorlovchi: A.Qahhorov // Oysuluv. O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik. –B. 24-128.

² Rahimov Q. Jorxun maston. Doston. Yozib olib, nashrga tayyorlovchilar: M.Murodov, A.Qahhorov. // Нурали.

³ Rahimov Q. Kelinoy yoki Norguloy. Doston. Yozi olib, nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi: A.Ergashev. – Qarshi: QarDU nashi, 2011. – 102 b.

(kalla), yuz (bet, aft, bashara, turq), yurak, tish, til, ko'z, qo'l, oyoq, burun, bo'yin, biqin, tos, soch, qo'litiq, yelka, qosh, quloq, barmoq, chinchaloq, kiprik, qosh, ko'krak, siyna, lab, xol, yelka, qad, qomat, bo'y, manglay, soqol, mo'ylov, bag'ir, qoboq, og'iz/ovuz/oviz, bel, tanglay, tizza,, boldir, gardan, siyna, kokil, panja, iyak kabi tana a'zolarini ifodalovchi so'zlardan keng foydalanadi. Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida ham bu holni kuzatish mumkin.

Masalan, “Kelinoy yoki Norguloy”, “Oychinor”, “Jorxun maston” dostonlarida epik qahramonlar portretini chizishda inson tana a'zolari nomlaridan foydalanish ehtiyoji tug'ilgan va ijodkor bunday leksemalardan o'rinli va unumli foydalangan. Misollar: *Norguloy ham o'n yettidan oshgan, o'n sakkizga yetishgan, ikki muhabbatgiyosi yangi ko'krakdan o'sgan, boshiga zardo'zi qalpoq kiygan. Qalpoqning aylanasiga tilladan qo'ng'iroq taqqan, yuziga odam qarab turolmas, qaraganda ham quyoshmi, Norgulmi bilib bo'lmas, Norgul eshikka chiqsa so'fito'rg'ay, g'azalaylar oldidan ketolmas, kakliklar ham sayrab bo'lar edi mas(t) (KN, 6). // Boshida harir ro'moli, o'ng betida bor edi dona xoli, o'zi ko'krakdor, ximcha edi beli; oyoqda zorlanib tashlangan, ichi mayimlashgan no'g'ayi ko'k kovushi, har qadam bosganda kovushdan chiqar edi chanqovuzning tovushi... O'zi ham iynilari qirday, bilaklari norday, yurakligi sherday qiz bo'lib yetishgan edi (KN, 6). // Shukurali ellikdan oshgan, soqoliga oq tushgan, yelkador, o'rta bo'yli, qomati kelishgan, mol desa aqlidan adashgan bo'lib, lekin dasturxoni ochiq edi (KN, 6). // Cho'ponlarning ichida Dono cho'pon degan bor edi. Yoshi oltmishdan oshgan, soqoliga oq tushgan, dunyoning achchi-chuchusini boshdan kechirgan, manglayi, beti sal tirishgan, qomatini tik tutgan, qanday musofir bo'lsa qo'shxonasiga mehmon qilgan, cho'pon bo'lganiga qirq yildan oshgan, qomati jopsarday tutashgan kishi edi (KN, 31). // ...Ko'rdi: ko'zi olaygan, rangidan qoni qochgan, iyagi bilan manglayi tirishib ketgan, nafsi kattalik qilib, tishini ham qo'shib yutgan. Mushtday kallaga o'ragan sallasi eynidan oshgan; / intilayotir Nazarga yetguday, agar yetsa, yamlamay yutguday... (OCH, 46) // Kiygan choponlar so'kilgan, / Qaddi egarda bukilgan, / Iyagidagi to'rt soqol / Tut bargiday to'kilgan. (OCH, 48) // Goh-goh joyda surindi, / Pachoq qilib burindi, /*

Bobirbekning chodiri / Arang endi ko'rindi. / Egilib borar beli, / Shilvirab qoldi qo'li, / Bo'ri quvgan itday bo'p / Osilib qoldi tili (OCH, 39). // Botir bo'lsa bolalikdan bilinar, / Dushman ko'rsa birdan bag'ri tilar, / Bir bedovni ota, sendan so'rayin, / Menga mehring, ota, shunda ko'rinar (JM, 50).

2. Kiyim-kechak nomlarini bildiruvchi leksemalar. Xalq dostonlari epik qahramonlari boy-kambag'alligi, mansab-martabasiga ko'ra kiyim-kechaklardan foydalanadi. O'zbek tili leksik qatlamlaridan birini kiyim-kechak nomlari tashkil qiladiki, bu nomlar M.Asomiddinova tomonidan maxsus tadqiq etilgan¹. Bu leksik qatlamdan Qodir baxshi ayrim epik qahramonlari portretini yaratishda keng foydalangan bo'lsa, epik voqelikni aniq tasvirlash maqsadida ham ulardan o'rinli foydalanadi. Baxshi dostonlari tilida *ro'mol, kovush, adras, kimxob, dovdon, shoxi sholdon, kuloh, banot, duxoba, baxmal, barxit, qalpoq, salla, kiyim, iyin, sochbov, kamar, ro'mol, yeng, tupak, jelak, jiyak, to'n, do'ppi, mo'kki, etik* kabi so'zlardan foydalangan. Masalan: *Gulsum momo joyidan turib, Norgulga: "Ko'p yasha, quyruq osha, qizim", -deb ro'mol sovg'a qildi (KN, 97). // Ergash qizarib: "Hah momom o'lgir, bopladimi?!", - degan edi, odamlar: "O'zingni gurjidan farqing qolmabdi", -deb yana kula ketdi. Ergash Norgulga adiras kuylak sovg'a qildi (KN, 97). // Bu salomga ayniqsa, kelinlar ko'p kulishdi. Xoldan ham qizarib, zar do'ppi sovg'a qildi (KN, 98). // So'ltoq qaradi, uch-to'rt odamlarning sallasini bo'yniga o'rab kelayotganini ko'rdi (KN, 19). // Tangiharamning boylari, / Echki aralash qo'ylari. / Kiyim kiysa yarashar, Norguloyning bo'ylari. // Inak sog'adi iydirib, / Sochbovini yerga tiydirib (KN, 22). // Boshida harir ro'moli, o'ng betida bor edi dona xoli, o'zi ko'krakdor, ximcha edi beli; oyoqda zorlanib tashlangan, ichi mayimlashgan no'g'ayi ko'k kovushi, har qadam bosganda kovushdan chiqar edi chanqovuzning tovushi... O'zi ham iynilari qirday, bilaklari norday, yurakliligi sherday qiz bo'lib yetishgan edi (KN, 6). // "Qizimga ko'z tegmasin", deb sochbog'iga to'dana taqib qo'yar edi (OCH, 25). // Nazarboy sovchilarni oq o'tovga kirgizib, oldiga dasturxon yozib, ikkoviga ikki to'n kiydirib*

¹ Асомиддинова М. Ўзбек тили кийим-кечак лексикаси. — Тошкент: Фан,

so‘radi...(OCH, 35). // Mis qoplagan etiklar / Biqiniga tushadi, / Niqtab urilgan mushtlar / Ko‘kragini teshadi (OCH, 37). // Oq ko‘ylakda xol bo‘lsa, / Suvsiz qolgan tol bo‘lsa, / Endi muncha ezmayin / Oltmish yashar chol bo‘lsa (OCH, 39). // Jorxun maston choshka-choshkada Asqardan taylab, chimmatni betga tortib, G‘aniga yo‘lda yetib, tosh qilib jilg‘aga qo‘yib... (JM, 59).

3. Hayvonlar, jonivorlar va qushlar nomlarini bildiruvchi birliklar.

Hayvon, jonivor va parrandalar azal-azaldan insoniyat bilan yonma-yon yashagan. Juda qadim zamonlardayoq insoniyat ulardan birinchi navbatda ozuqa manbai sifatida foydalanib kelgan bo‘lsa, ikkinchidan, hayvonlarning ma‘lum qismi xonakilashtirilgan, chorvachilik xo‘jaligi taraqqiy topgan. Ot, eshak, xachir singari hayvonlardan ishchi kuchi sifatida foydalanilgan. Qushlar va ayrim parrandalar ham qo‘lga o‘rgatilib, parrandachilik tashkil topgan. Sayroqi qushlar qafaslarda saqlanib, ularning yoqimli xonishidan dam olish, rohatlanish, zavqlanish maqsadlarida foydalanilgan. Qushlar ov qilish manbai ham sanaladi. Shuning uchun ham dunyo adabiyotida hayvonlarga, parranda-yu, darrandalarga bag‘ishlangan alohida asrlar ham mavjud. Xalq dostonlari tilida ham hayvonlar, parrandalar, hasharotlar, xullas turli jonzotlar nomlari uchraydiki, ulardan baxshilar insoniyatning tabiat bilan, hayvonot dunyosi bilan bog‘liqligini tasvirlashda foydalansalar, ikkinchidan ulardan ko‘chma ma‘no uchun foydalanishga harakat qiladilar. Bunday qo‘llanishlar yuksak mahorat bilan kuylagan dostonlar badiiyatini yanada kuchaytiradi, syujet bayonini qiziqarli kechishini ta‘minlaydi, tinglovchilar diqqatini shu voqelikka jalb etishga xizmat qiladi. Dostonlar tilida *qo‘y, qo‘zi, yilqi, uloq, it, nor, tuya, sher, bo‘ri, bo‘ta, ilon, o‘qilon, lochin, kaptar, qarchig‘ay, tulki, to‘rg‘ay, echki, uloq, taka, sarka, ot, tulpor, toy, qulun, ho‘kiz, eshak, qarg‘a, bulbul, tozi, qulon, qobon, bo‘taloq, kalamush, chayon, шер, бия, булбул, сўфитўрғай, товус, қузғун, ўрдак, жўжа, турна, гоз, қирғовул, майна, тўрғай, ари, бедана, ҳакка, каклик, паиша, зог, гажир* kabi uy va yovvoyi hayvonlar, har xil qushlar hamda hasharotlar nomlari uchraydiki, ulardan baxshilar badiiy-tasviriy ifoda vositasi sifatida foydaladilar.

Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ularning har biri matnda muayyan uslubiy vosita vazifasini bajarishga xizmat qilgan. Masalan: *Shukuraliboyning cho‘ponlari boydan enchi uloq qilmas, Norgulni bir ko‘rsak bo‘lgani, deb tubadan kelib pisib qarar, qorasini ko‘rsa, bu kun enchiga olti qo‘y oldik, deb yurar, bir xillari Norgulning otini qo‘rqib aytolmay “Kelinoy” deb qo‘shiqqa qo‘shib yurar edi (KN, 6). // So‘ltoq ham yigirma besh yoshdan oshgan, bilaklari to‘lishgan, qaddi-qomati kelishgan, nor bilakli, sher yurakli, burgut qoboqli edi (KN, 6). // Jona yerdan bosib o‘tsa, / Qolar o‘raday qozilib, / Otning nishabga tashlashi, / Ko‘zlagan o‘q ilonday. // Irg‘ib o‘rga tortishi, / Quvg‘in yegan qulonday, / Chiqqan dushman qasdiga, Qo‘li tayoqning dastiga. // Kun choshka chiqdi sherlar, / Dumachavulning ustiga (KN, 13). // Ko‘ring endi Omondi, / Qo‘rqitadi tumandi. / Zarbi yerga ag‘darar, / Oqtovdagi qobondi. // Burnining teshigidan, / Ikki tulki o‘tguday. / Og‘zini ochsa agar, / Qo‘yga kamar bo‘lguday (KN, 18). // Nishongaga ursa, tanir merganni / Nomard qurg‘ur maqtab yurar ko‘rganni, / Polvon bo‘lsa olib kelib bog‘lasin. / Bo‘sag‘amga ikki o‘n besh arslonni. // Maydonda bilinar yigit polvoni, / Odamzodning kam-kam ketar darmoni, / O‘ng oyog‘imga olib kelib bog‘lasin, / Qo‘yton tog‘ning kami yo‘q qirq qoplani. // Kamlik ko‘rmay yigit qaddi bukilmas, / Ko‘ngil qo‘yib to‘qilgan to‘n so‘kilmas, / Ellik ayg‘ir chap oyog‘imga bog‘lasin, / Shunda ko‘zim gavhar yoshi to‘kilmas. // Har narsadan qodir egam saqlasin, / Ko‘rolmaganlarning ko‘ngli dog‘lasin, / Mendan nari ko‘ringan ul to‘baga, / Oltmish beshta axta op kep bog‘lasin. // Yo‘l tanobin tortgan bedov piroqdir, / Yigitning yo‘ldoshi qo‘lda yaroqdir, / Olib kelsin yana sakson sarkani / Bul sarkalar bir chibichga kerakdir. // Gavhar gavhar bilan tursa ochilar, / eshitib ong bu so‘zimni sovchilar, / To‘qson taxta olib yursin tuyaga, / Bu so‘zlarni sizga aytdi Oychinor (OCH, 33-34).*

4. Qavm-qarindoshlikni ifodalovchi leksemalar. O‘zbek tili leksik qatlamining katta qismini qavm-qarindoshlikka oid leksemalar tashkil etadi. O‘zbek tilshunosligida bu leksik qatlamlar ham o‘rganilgan. Tadqiqotchilar qavm-qarindoshlikka oid leksemalarni ikki guruhga ajratishni ma’qul ko‘radilar:

qon qarindoshlikni bildiruvchi leksemalar, nikoh qarindoshligini bildiruvchi leksemalar. Qon qarindoshlikni bildiruvchi leksemalarga ota, ona, o'g'il, qiz, aka, uka, opa, singil, tog'a, jiyan, amaki, amma, xola, tog'a, jiyan va boshqa leksemalar kirsa, nikoh qarindoshligi asosida yuzaga kelgan leksemalarga qaynота, qaynona, kelin, kuyov, yanga, pochcha, qayin singil, qayin og'a va boshqalar kiradi. Xalq dostonlari tilida bu ikki qatlamga oid birliklar ham qo'llanganini kuzatish mumkin. Qodir baxshi dostonlari tilida *bobo, bola, ota, og'a, chol, qarindosh, qiz, avlod, zot, nasl, qavm, ona, bibish, bachcha, farzand, tog'a, o'g'il, urug', zurriyod, checha, kelin, kuyov, qaynona, qaynота* kabi juda ko'p qavm-qarindoshlikni bildiruvchi leksemalar qo'llanilgan.

Masalan: *Uning Norguloy degan qizi, falakning cho'lpon yulduzi, oyni uyaltirgan yuzi, Shukuraliboyning ko'zi, ko'zi emas yurakdo'zi bor edi (KN, 6). // Yoshlikda ketgandir otam ham enam, / Qarindosh yo'qlikdan kuyadi tanam (KN, 10). Yigit hazillashar bo'ydoq qizlarga, / Laylimkonda kon deyishar tuzlarga (KN, 15). // "Uzoq-uzoq poyonsiz qovjiragan dalalar, ingranib qo'sh haydayotgan chollar, uzoq joylarga ketib musofir bo'lgan odamlar, non debon qo'l cho'zib yig'lagan go'daklar, bolasidan ayrilgan onalar faryodi, yonboshidan o'q yeb qonga botib termulib turgan kiyiklar sasi" birin-ketin o'tirganlarning ko'z oldidan o'tib, ba'zilari ko'zidan yosh qalqib, ba'zilari haykalday qotib turib edi, shu vaqt tashqaridagi otlar pishqirib kishnab yubordi (KN, 40). // Endi shu Norgulni So'ltoqqa betsangiz. Odamlar: "O'zining kuyovi olib ketibdi-da, ha, kuyov-kelinning yurishi oriyatmi?" – deb aytishadi. // Qaynotasi ham o'zi, / Qaynonasi ham o'zi / Xalilboyga bir salom (KN, 96) . // ...Eri xotiniga, xotini eriga qaraydi (OCH, 32). // ..Qirq yoshgacha farzand ko'rmadik. / Enang har doim chinorga menga aytar edi: "Axir xudo farzand ato qilsa, ul bo'lsa Chinorbek, qiz bo'lsa Oychinor qo'yamiz". (OCH, 114) // ...Otamning otini Begali, enamni Oysuluv, akalarimni Berdi, Choriyor, der edi, -dedi Xolyor...(OCH, 114). Qarindoshdan shirin bo'ladi tog'a, / Rang-ro'yingdan menday opang sadag'a, / Arzimagan gapga xafa bo'lmasang, / Bir so'zni aytayin, eshit, bek og'a (JM, 48).*

5. Ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni anglatuvchi soʻzlar. Qodir baxshi Rahimov dostonlaridan “Joxun maston”da fantastik xarakterdagi hayot voqealari tasvirlanadi. Doston “Goʻrugʻli” yiklidagi “Nurali” dostonining bir boʻlagi sanalib, unda Nuralining oʻsmirlik davri voqealari aks ettiriladi. “Oychinor” dostoni esa yarim hayotiy voqealar asosida qurilgan boʻlib, undan Bobir (Bobur) va Shayboniyxon voqealari ham aks etgan. “Oychinor” dostonida adolatparvarlik, vatanparvarlik, sevgi va sadoqat, doʻstlik singari gʻoyalar bilan sugʻorilgan. Shu sababli baxshining boshqa dostonlariga nisbatan “Oychinor”da ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni anglatuvchi soʻzlar koʻproq uchraydi. Bu bilan “Jorxun maston” va “Kelinoy yoki Norguloy” dostonlarida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni anglatuvchi leksemalar qatnashmaydi degan fikrdan yiroqmiz. Baxshining har uchala dostonlarida ham ushbu guruhga kiruvchi leksemalarga istalgancha misol topish mumkin. Zero bu dostonlarda yurtparvarlik, mehmondoʻstlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik gʻoyalari tarannum etiladi. Baxshi dostonlari tilida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi *mol (boylik), davlatli, saroy, meros, makon, xonazod, saltanat, podsho, shoh, podshoh, xon, hoqon, sulton, bek, bekvachcha, vazir, malika, kanizak, kaniz, qozi, qalandar, jandaboshi, devona, chokar, oqsoqol, choʻpon, boy, shogird, dahmarda, hoji, xoʻja, akobir* kabi leksemalardan keng foydalanilgan.

Masalan: *Tayoq yemay ketolmaysan izingga / Borib aytgin shahringdagi qozingga (KN, 16). // Sadagʻa sizlardan sodda choʻponlar, / Men tanidim boy bobomning molini (KN, 16). Charchagan ustoz navbatini shogirdiga beribdi (KN, 20). Yaxshilikka yaxshilikni olarsa, / Dahmardalik toʻnini kiy ustringga (KN, 29). // Oʻltirishlaring, turishing, / Sipo kiyingan hojiday (KN, 49). // Bir koʻzi tushgan bek bachcha, / Gap topa olmay garangdir (KN, 49). // - Sen Bobirni odami, / Podishoga yur, -deydi, / Bilmaydi depsan bizni, / Koʻrgilikni koʻr deydi (OCH, 92). // Podshoh bunday qaradi, / Vazir otda osilgan, / Ot ustida qiz bola, / Qilich belga taqilgan (OCH, 79). // Sipo edi bu Qaysar, / Kiyinishi xoʻjaday, / Endi qoldi shalvirab, / Suvdan chiqqan joʻjaday... (OCH,*

75). // *Bek Soqi ham Nuralining hamma bolalardan ustunligini, abjirligini ko'rib hayron qolar, bir o'zi mingga keladigan bahodir bo'ladi, der edi (JM, 46).*

6. Shaxs (epik qahramon) larni ifodalovchi nomlar. Xalq dostonlar leksikasida shaxs (epik qahramonlar) nomlari bilan bog'liq leksemalar ham qo'llaniladiki, ularni alohida tematik guruh sifatida o'rganish yaxshi samaralar berishi mumkin. Bu guruh leksemalarini o'zbek adabiy tilidagi shakllari bilan qiyosiy o'rganish uchun keng ma'lumotlar ham bera oladi. Bu esa ularning xalq dostonlari matnidagi yohud badiiy tildagi leksik-semantik, uslubiy va grammatik o'ziga xosliklarini o'rganish uchun asos vazifasini o'taydi.

Qodir baxshi dostonlari tilida ham bu guruhga kiruvchi leksemalar soni ancha ko'p. Ularni qo'llanish darajasiga ko'ra quyidagi ikki guruhga ajratib o'rganishni lozim topdik:

a) ham adabiy tilda, ham xalq dostonlari tilida faol qo'llanishdagi nomlar. Bunday leksik birliklar guruhiga izohli yoki ikki tilli lug'atlarda o'z ifodasini topgan tarixiy so'zlar yoki hozir faol qo'llanilayotgan shaxslar nomlari kiradi: *podshoh, elchi, bek, shoh, yigit, er, yor, to'ra, odam, mulla, jumard, oshiq, do'st, mehmon, qiz, farzand, elchi, o'g'il, xizmatkor, qo'rg'onbegi, zakotchi, mirshab, shabgir, dahaboshi, qo'rboshi, xudaychi, baxshi, ustoz, shogird, usta.*

Masalan: *So'ltoq: "Bizning elda Sherna degan katta baxshi bor, to'ylarda eshitaverib ozroq o'rganib edim, bilmadim, qarab tursam o'zimdan ham qo'shib ketayotir" (KN, 53) Charchagan ustoz navbatini shogirdiga beribdi (KN, 20). // Bugun yotib Berdiyor. / Erta bilan turinglar, / Chetda Sayxun ustani / Bunda olib kelinglar (OCH, 65). // Shunday qilib bek Go'ro'g'li dovrug'i olamga ketib, necha podsholarga yetib, ular Chambilni olamiz deb lashkar tortib, kelgani qilichdan qochib, Go'ro'g'li desa toshdan toshga pisib, kunlar ham o'ta berdi (JM, 46).*

b) xalq dostonlarida qo'llangan, ammo adabiy tilda kam uchraydigan shaxs nomlari. Qodir baxshi Rahimov dostonlari leksikasi qaydarajada keng ekanligini tasdiqlovchi lisoniy dalillardan biri uning originallik xususiyatiga ega

bo'lgan shaxs otlarining qo'llaganligida ko'zga tashlanadi. Masalan, *qurandoz, munajjim, romchi, folchi, sotiqchi, bakovul, devona, chokar, akobir, sinchi, jandapo'sht, so'fi-darvesh, qozikalon, noyib, to'ra, sardor, tug'dor, jig'ador, amir, kaniz, pari* kabi so'zlar fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi.

Masalan: *Bir kuni yaylovga chiqayotganimda bizga chorikor bo'lib yurgan bobo bilan uchrashib qoldim (KN, 54). // Yaxshilikka yaxshilikni olarsa, / Dahmardalik to'nini kiy ustingga (KN, 29). // Tayoq yemay ketolmaysan izingga / Borib aytgin shahringdagi qozingga (KN, 16). // Maslahat beringlar, nima qilayin, / Ko'n desanglar taqdirimga ko'nayin, / Ket, desanglar qizim olib ketayin, / Akobirlar, javob bergin, ko'rayin (JM, 57). // Ana shu boyning Xolyor degan cho'poni bo'lib, uning Ernazar degan chokari bor edi (OCH, 24). // Odamzodning qizlari podsho tomonidan qo'yilgan bo'lib, parilar Gulsanobarning husniga mahliyo bo'lib, o'zlari kelib kaniz bo'lishga ruxsat olib, ham xizmatni qilib, ham husnini tamosho qilib yurar edi (JM, 56).*

7. Kasb-hunar nomlarini bildiruvchi birliklar. Doston tili leksikasida kasb-hunarni ifodalovchi til birliklari ham keng qo'llanilgan. Masalan, "Kelinoy yoki Norguloy" dostonida cho'ponlar hayoti tasvirlangani bois *cho'pon, cho'liq, dahmarda, chokar* singari leksemalar qo'llanilganini kuzatamiz. Bundan tashqari, doston tilida *mirshab, qozi, kosib, tabib, ustoz, shogird, usta, chorikor* singari leksemalar ham keng qo'llanilgan. Masalan: *Tayoq yemay ketolmaysan izingga / Borib aytgin shahringdagi qozingga (KN, 16). Charchagan ustoz navbatini shogirdiga beribdi (KN, 20). Ostidagi otini haydab borayotib bir cho'ponga duch keldi (KN, 7).*

Kasb-hunar nomlarini ifodalovchi leksemalar baxshining "Oychinor", "Jorxun maston" dostonlari tilida ham keng qo'llanilgan: *Ana shu boyning Xolyor degan cho'poni bo'lib, uning Ernazar degan chokari bor edi (OCH, 24). // Nuralixon yarim kungacha madrasada o'qib, qolgan vaqtlarini bek Soqining maktabida o'tkazar, bu yerda ot chopish, qilich urish, nayzabozlik, merganlikni mashq qilar edi (JM, 46).*

8. O‘simlik va daraxtlar nomlarini bildiruvchi birliklar. Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida o‘simlik va daraxt nomlari ko‘plab uchraydi. Bu nomlarning aksariyati doston epik qahramonlarining xatti-harakati, xususiyati, qiyofasini tasvirlashda foydalanilganini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, bu nomlarning ma’lum qismi metaforik shaklda qo‘llangan. Dostonlar tilida *gul, yantoq, tikan, qamish, sholi, kadi, ko‘kat, boychechak, zarpechak, lola, handalak, bug‘doy, arpa, yang‘oq, tol, tut, terak, pista, anor, bodom, chechak, olma, sho‘ra, zardoli, bodom, pista, archa, zarang* singari o‘simlik, daraxt va meva nomlari qo‘llanilgan.

“Kelinoy yoki Norguloy” dostoni tilida qo‘llangan ayrim nomlarga misol keltiramiz: *Bahorda gul teraylik, / O‘lsak taqdirdan ko‘raylik (KN, 9). // Do‘mbiram, sensan pistadan, / Terdirsak gulni dastadan (KN, 32). // Do‘mbiram sensan zardoli, / O‘zing sozlarning bo‘ydori (KN, 33). // Chanog‘ing asl tolgina, / Kuylaring totli bolgina (KN, 33). // Do‘mbiram tanangdi(r) tutdan, / Kuylaring o‘tkirdi(r) o‘tdan (KN, 33).*

Qodir baxshining “Oychinor” va “Jorxun maston” dostonlarida ham bir qator o‘simlik va daraxt nomlari uchraydi: *Bu joyda Oychinorning tengdoshlari yo‘q edi. Bir o‘zi zerikib ketar, shuning uchun archaga halinchak osib, ashula aytar edi (OCH, 24). // Rangim so‘lib boradi / Sarig‘ gulday sarg‘ayib (OCH, 59).*

9. O‘tovsozlikka oid nomlar. Qodir baxshi Rahimovning biz tadqiq etayotgan “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni voqealari chorvadorlar hayotidan olingan. “Oychinor” dostoni voqealarining katta qismida ham chorvadorlar hayoti tasvir markazida turibdi. Shunday ekan bu dostonlar tilida chorvadorlar yashaydigan o‘tovsozlikka oid leksemalarning qo‘llanishi tabiiy. Masalan, “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni matnida o‘tov qurish jarayonlari ikki o‘rinda tasvirlangan. Doston matnida o‘tovsozlik atamalari ham keng qo‘llanilgan. Bu tabiiydir. Chunki doston epik qahramonlari chorvachilik bilan shug‘ullanib, yil davomida o‘tovlarda yashashgan. Shuning uchun ham doston tilida *o‘tov, qora uy, oq o‘tov, kigiz, oyquchoq, uvuq, keraga, tuzma, qur, g‘ildiravuq, jopsar,*

tupak, beldov, iynov, ip, tuynuk, chiy va boshqa nomlar keng qo'llanilgan. Masalan: Mol quvgansan cho 'lu tovga, / Endi boshdan ketsin g'ovga, / O'n besh yashar qizday bo'lib, / Ertaroq yetkaz o'tovga (KN, 10). // Tubadan tikkan uyini, / Ko'tarib tutgan chiyini (KN, 27). // Uy keragasin uyurgan, / Norguloyjonday qalamqosh (KN, 34) // Eshik oldida qiyirdi, / Qiyirdi ol, deb buyurdi. / Shu o'tovning bog'ishin, Norguloy sanam uyurdi (KN, 34). // Tubadan tikkan uyini, / Ko'tarib tutgan chiyini (KN, 27).

10. O'rin-joyni ifodalovchi nomlar. Qodir baxshining “Kelinoy yoki Norguloy”, “Oychinor”, “Jorxun maston” dostonlari tilida o'rin-joy otlari faol qo'llanilgan. Dostonlar matnida *tog', cho'l, tuba/tepa, ovul, uy, xona, mehmonxona, tom, manzil, qo'shxona, qal'a, dala, bozor, guzar, qo'ton, qo'shxona, shahar* va boshqa nomlar qo'llanilgani kuzatiladi. Masalan: *Mol quvgansan cho 'lu tovga, / Endi boshdan ketsin g'ovga, / O'n besh yashar qizday bo'lib, / Ertaroq yetkaz o'tovga (KN, 10). // So'ltoqni otdan tushirib, mehmonxonaga olib kirishdi (KN, 11) Tubadan tikkan uyini, / Ko'tarib tutgan chiyini (KN, 27). // Oq o'toving oyday bo'lib, / asovliging toyday bo'lib, / Yuvoshliging qo'yday bo'lib, / Sanamlar, suv ber, ichayin (JM, 67). // Ular aytdi: “Biz beklikka emas podsholikka qaraymiz, joyimiz Andijon, Samarqand, podshomiz Bombir, podshoga shu joydan qo'rg'on solamiz...” (OCH, 35).*

11. Ot va uning abzallari nomini bildiruvchi leksemalar. Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida qo'llanganilgan bu nomlarning o'zini ham boshqa mitti guruhlarga ajratish mumkin:

a) ot va uning uzvlari nomlari: *ot, toy, qulun, g'o'non, do'non, ayg'ir, baytal, aspi, tulpor, pirog', bedov, tuyoq, burun, oyoq, o'mgan, quloq, sag'ri, kalla* kabi: *Ostimda o'ynasa tulpor pirog'im, / Yolg'iz desam xo'rsinadi yuragim (KN, 12). // Otga yo'l bermaydi tog'ning urlari, / Jabr qilsa chiqar bedov terlari (KN, 15). // Shuncha moling bo'lib, kuning 40 biya bilan 6 tuyaga qoldimi? (KN, 19) // Ostidagi tarlon ko'k / Qaldirg'ochday qiyadi, / Cho'pchiganda kallasi / Bulutlarga tiyadi. // Putining orasidan / Yukli tuyga o'tguday, / Og'zin ochib pishqirsa, / Ko'kda bulut qochguday. // O'mganiga urilsa, / Tog'*

yorilib ketguday, / Sag'risiga qarasang / Sakkiz kampir yotguday. // Quloqlari-ning orasiga / Tovushqonlar pusguday, / Ikki burnining dami / Archalarni kesguday (OCH, 90).

b) ot abzallari (anjomlari) nomlari: *xo'rjin, nahal, to'rva, qamchi, no'xta, to'g'a, uzangi, egar, chilvir, suvliq, jazliq, yugan, quyushqon, dikdika, ayil, pushtan* kabi: *Egarning boshini / Sof oltindan quydirgan, / Uzangisi yaltillar, / Nuquradan endirgan. // Sag'risida quyushqon, / Qubbalari oltindan, / O'mirovga bog'langan / Zarhal ola qayishdan. // Dikdikasi ipakdan, / Sachog'ida zumradlar, / Yuganlari kumushdan, / Po'pak bo'lgan marvarid. // Abjo'sh nahal qoqtirgan / Tuyog'ining ostiga, // Mumiyoday botadi / Tushgan toshning ustiga. // Ayillari qolidan, / Gulni solib ishlagan, / Chetlarida chirog'i / Ko'p hashamlab tashlagan. // Ayilning ustidan / Pushtanini taylagan, / Pushtanning ustiga / Olmos toshlar joylagan (OCH, 89-90).*

Bundan tashqari, dostonlar tilida osmon jismlari va tabiat hodisalari nomlari (*Quyosh, oy, yulduz, bulut, havo, qor, yomg'ir, shamol, yashin, chaqmoq, dovul va boshq.*), oziq-ovqat mahsulotlari nomlari (*qovun, tarvuz, bug'doy, arpa, sholi, tuz, go'sht, sut, qatiq va boshq.*), modda-ma'dan nomlari, turli marosim nomlari, vaqt ma'nosini bildiruvchi nomlar, taom nomlari ham qatnashganki, ularni ham tahlil etish ehtiyoji bor. Biz esa yuqoridagi tahlillar bilan cheklanamiz.

2.2. Baxshi dostonlarida qo'llanilgan onomastik nomlarining geneologik va leksik-semantik xususiyatlari

2.2.1. Dostonlar tilida qo'llangan antroponimlar

Qodir baxshi Rahimovning tahlilga jalb etilgan dostonlari tilida qo'llangan onomastik birliklardan biri antroponimlarni tadqiq etish ilmiy tadqiqotimiz oldida turgan asosiy masalalardan biri sanaladi.

Ma'lumki, xalq dostonlari tilida epik qahramonlar nomlari keng qo'llanilgan bo'lib, ularni geneologik va leksik-semantik xususiyatiga ko'ra ma'lum bir mavzuviy guruhlariga birlashtirib tahlil etish maqsadga muvofiq sanaladi. Bu

sohada bajarilgan ishlarda epik qahramon nomlari qaysi tilga mansubligiga qarab, o'z qatlamga va o'zlashgan qatlamga oid antroponimlarga ajratib o'rganish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, xalq dostonlari tilida afsonaviy qahramonlar ham ko'p uchraydi. Ularni voqelikka munosabatga ko'ra alohida guruhga ajratib o'rganish yo'lga qo'yilgan. Biz ham tilshunoslarimiz qo'llagan tadqiq usullarini tanlagan holda Qodir Rahimov dostonlari tilida uchraydigan antroponimlarni quyidagi ikki asosiy guruhga ajratib o'rganishni maqbul deb topdik:

- 1) epik qahramon nomlarining qaysi tilga oidligiga ko'ra guruhlari;
- 2) epik qahramon nomlarining voqelikka munosabatiga ko'ra guruhlari.

1. Epik qahramonlar nomlari qaysi tilga mansubligiga ko'ra turkiy (o'zbek), arab, fors va boshqa tillardan o'zlashgan nomlar sifatida guruhlarga ajratib o'rganish mumkin.

Turkiy tilga oid nomlar qadimdan turkiy xalqlar tilida iste'molda bo'lgan antroponimlar kiradi. Shuningdek, ushbu guruhga arab yoki fors-tojikcha asosga so'z (affiksoid) qo'shish orqali yasalgan nomlar ham mansubdir. Demak, turkiy tilga oid kishi nomlarini sof turkiy, arabcha asosga so'z qo'shish orqali yasalgan turkiy nomlar, fors-tojikcha asosga so'z qo'shish orqali yasalgan turkiycha nomlar singari kichik guruhlarga ajratish mumkin.

Biz tahlilga jalb etgan "Oychinor", "Jorxun maston", "Kelinoy yoki Norguloy" dostonlari tilida bir qator antroponimlar qo'llangan bo'lib, ularning geneologik qatlamlarini o'rganish baxshi dostonlari tili leksikasi tadqiqoti uchun muhim ahamiyat kasb etishi aniq.

Dostonlar tilida yuzdan ortiq antroponimlar qo'llanilgan. Ular: *Shukura-liboy (KN)*, *Norguloy/Kelinoy (KN)*, *So'ltoq (KN)*, *Rahmat (KN)*, *G'ulom (KN)*, *Sherdan (KN)*, *Omongeldi (KN)*, *Ergash (KN)*, *Jobsaq (KN)*, *Xonimoy (KN)*, *Hulkar (KN)*, *Xo'jamahmud (KN)*, *Farhod (KN)*, *Majnun (KN)*, *Dono (KN)*, *Nazar (KN, OCH)*, *Rajab (KN)*, *Xolyor/Xoliyor (KN, JM, OCH)*, *Abdullaxon (KN)*, *Mirza (KN)*, *Ismoil (KN)*, *Oypari (KN)*, *Layli (KN)*, *Shera (KN)*, *Norali (KN)*, *Xalil (KN)*, *Xidirali (KN)*, *Bibigul (KN)*, *Bo'ritosh (KN)*, *Suluv (KN)*,

Barchin (KN), Ermatboy (KN), Sherali (KN), Xudoyberdi (KN), Oydin (KN, OCH), Gulsum (KN), Abdulla (KN, OCH), Usmon (KN), Hazratqul (KN), Janda mirza (KN), Gulandom (KN), Alpomish (KN), Pirmat (KN), Xoldon (KN), Ernazar (OCH), Oychinor/Chinor (OCH), Oysha (OCH), Oqaman (OCH), Oyto'ti (OCH (OCH), Bobir (OCH), Qaysarbek (OCH), Keldiyor (OCH), Berdiyor (OCH), Sayxan (OCH), Qambar (OCH), Rustam (OCH), Go'ro'g'li (JM, OCH), Shayboniyxon (OCH), Samandar (OCH), Begali (OCH), Oysuluv (OCH), Berdi (OCH), Choriyor (OCH), Omonyor (OCH), Oyparcha (OCH), Nurali (JM), Avazxon (JM), Yunus (JM), Misqol (JM), Uzumko'z (JM), Asqar (JM), Soqi (JM), Xo'ja Yusuf (JM), G'ani (JM), Bobo Zangi (JM), Gulinor (JM), Jorxun (JM), Gapsarshoh (JM), Gulisanobar (JM), Donish (JM), Asad (JM), Shodmon (JM), Shohnosxon (JM), Shohnodir (JM), Hasan (JM), To'lak (JM), Chaqqon (JM), Gulisara (JM) kabilardir. Bu antraponimlarni geneologik xususiyatiga ko'ra tahlil etish o'zbek tili onomastikasining geneologik qatlamlarinini tadqiq etishda hamda ularning doston tilida ma'lum bir uslubiy vazifa bajargan-bajarmaganligini aniqlashda qo'l keladi deb o'ylaymiz.

Bizga ma'lumki, o'zbek tilining apellyativ leksikasi geneologik jihatdan turkiy (shu jumladan, o'zbek), arab, fors-tojik va boshqa xorijiy tillardan o'zlashgan so'zlarga bo'lib o'rganiladi. Bu tasnifni o'zbek tilining onomastik birliklariga ham qo'llash mumkin. Bu borada ham tilshunosligimizda qator tadqiqotlar mavjudligini ta'kidlash o'rinlidir. Shundan kelib chiqqan holda Qodir baxshi dostonlari tilida qo'llanilgan antroponimlarni geneologik xususiyatiga ko'ra ma'lum qatlamlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Doston tilida qo'llanilgan antroponimlarni qaysi tilga mansubligiga ko'ra turkiy (o'zbek), arab va fors-tojikcha nomlar sifatida geneologik qatlamlarga ajratish mumkin. Dostonlar tilida qo'llangan antroponimlarni quyida tahlil etishga harakat qilamiz.

1. Turkiycha nomlar. Turkiy tillarga mansub nomlar dostonlar matnida salmoqli o'rin egallaydi. Masalan: *Bibigul, Erdon, Bo'ritosh, Barchin, Suluv, Alpomish, Ergash, Oypari, Oydin, So'ltoq, Xonimoy, Hazratqul, Jobsaq, Oychi-*

nor, Oqaman, Bobir, Qaysarbek, Keldiyor, Berdi, Berdiyor, Sayxon, Go'ro'g'li, Shayboniyxon, Begali, Oysuluv, Omonyor, Oyparcha, Avaz, Avazxon, Uzumko'z, Bobozangi, To'lak, Chaqqon kabi nomlar shu qatlamga kiradi.

Bu qatlamga kiruvchi antroponimlarni tub va yasamaligiga ko'ra ham boshqa mikroqatlamlarga ajratib o'rganish mumkin. *Barchin, So'luv, Ergash, Oydin, So'ltoq, Jobsoq, Avaz, To'lak, Chaqqon* singari nomlar tub nomlar sifatida ajratilsa, *Bibigul, Bo'ritosh, Alpomish, Oypari, Xonimoy, Hazratqul, Uzumko'z, Go'ro'g'li, Shayboniyxon, Bobozangi, Qaysarbek, Begali, Avazxon. Oyparcha* singari nomlar yasamalilik maqomiga ega. Yasama deb ajratayotgan nomlar ichida arabcha yoki fors-tojikcha asoslarga qo'shib yasalgan antroponimik birliklar ham uchraydi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:

a) arabcha asosga so'z yoki affiksoid qo'shish orqali yasalgan turkiycha nomlar: *Abdullaxon, Omongeldi, Qaysarbek* kabilar. Doston tilida tarixiy shaxs nomi sifatida qayd etilgan Buxoro xoni Abdullaxon morfemik jihatdan ikki tarkibiy qismga ajraladi: *Abdulla+xon*. Morfemaning birinchi qismi arab tilidan o'zlashgan kishi nomi sanalsa, ikkinchi qismi esa antroponimlarga qo'shib keladigan affiksoiddir. *Xon (qon)* affiksoidi aslida hukmdor, boshliq, podshoh ma'nolarini bildiradi. "Ismlar tarkibida esa ulug' martabali, e'zozli, obro'li; ulg'ayib elga bosh bo'lgan ma'nolarini ifodalaydi"¹.

Omongeldi antroponimi ham ikki morfemadan tashkil topgan: *Omon+geldi*. Omon arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "O'zbek ismlari" lug'atida shu yasosli 51 ta so'z (nom) keltirilgan. Antroponimning ikkinchi qismi o'zbekcha so'zdir. "O'zbek ismlari" lug'atida *geldi* morfemasining keldi varinti asosiy shakl sifatida izohlanganini ko'ramiz².

b) fors-tojikcha asosga so'z qo'shish orqali yasalgan turkiycha nomlar: *Norali, Pirmat* kabi. Bu antroponimlar ham ikki morfemali bo'lib, ularning birinchi morfemalari *Nor, Pir* fors-tojik tilidan o'zlashgan, ismlarning ikkinchi

¹ Begmatov E.A. O'zbek ismlari ma'nosi: (Izohli lug'at). –Toshket: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998. – 586-bet.

² Begmatov E.A. O'zbek ismlari ma'nosi: (Izohli lug'at). –Toshket: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998. – 322-324-betlar.

morfemalari *ali* va *mat* arabchadir. Pirmat antroponimining ikkinchi qismi *mat* Muhammad ismining qisqargan shakli ekanligi ismlar lugʻatida ishora qilingan¹.

2. Arabcha nomlar. Doston tilida arabcha nomlar ham salmoqli oʻrinni egallaydi. *Majnun, Layli, Tohir, Zuhro, Xalil, Gulsum, Nazar, Xidirali, Shukurali, Hazrat, Qahhor, Gʻulom, Rahmat, Oysha, Qaysar, Qambar, Abdulla, Samandar, Nurali, Misqol, Asqar, Soqi, Gʻani, Jorxun Asad, Hasan* kabi antroponimlar arab tilidan oʻzlashgan va hozirgi antroponimik leksikada ham ozmi-koʻpmi uchraydigan birliklar sanaladi. Arabcha nomlardan *Majnun, Layli, Tohir, Zuhro, Misqol, Jorxun* singarilar xalq dostonlari va badiiy dostonlar tilida koʻp uchrovchi ismlar boʻlib, ushbu doston tilida uslubiy vazifa bajarish nuqtai nazaridan qoʻllanilgan. *Xalil, Gulsum, Nazar, Xidirali, Shukurali, Hazrat, Gʻulom, Rahmat, Nurali* singari antroponimlar bevosita dostonning poetik qahramonlari nomidir.

3. Fors-tojikcha nomlar. Doston tilida fors-tojikcha nomlar turkiycha va arabcha nomlarga nisbatan kamroq qoʻllanilgani kuzatildi. *Gulandom, Xolyor, Dono, Mirza, Norguloy, Xoldon, Sherna, Hulkar, Janda, Chinor, Rustam, Choriyor, Zangi, Gulinor, Gapsarshoh, Gulisanobar, Donish, Shodmon, Shohsanam. Shohnodir, Gulisara* kabi nomlar ana shu tillardan oʻzlashgan. Bu nomlarning barchasi poetik nomlar sanaladi. Jumladan, *Norguloy* “Kelinoy yoki Norguloy” dostonining bosh qahramoni nomi. *Gulandom, Hulkar, Xoldon* ismlari Norguloy bilan bir ovulda yashovchi qahramonlar. *Xolyor, Dono* choʻponlar nomlari. *Sherna* boshqa ovulda yashovchi boy nomi.

Qodir baxshi dostonlari tilida boshqa tillardan oʻzlashgan antroponimlar ham uchraydi. Masalan, yahudiy tilidan oʻzlashgan Yunus, Yusuf singari ismlar “Jorxun maston” dostoni matnida keltirilgan.

Doston tilida qoʻllangan antroponimlarni voqelikka munosabatiga koʻra quyidagi qatlamlarga ajratib oʻrganish mumkin:

¹ Begmatov E.A. Oʻzbek ismlari maʼnosi: (Izohli lugʻat). –Toshket: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998. – 341-bet.

1. Tarixiy shaxslar nomlari. *Abdullaxon, Shayboniyxon, Bobir (Bobur)* singari nomlar ana shu qatlamga kiradi. Abdullaxon doston voqealarida bevosita ishtirok etmaydi, lekin ma'lum poetik maqsadga ko'ra qo'llanilgan. Shayboniyxon va Bobur nomlari "Oychinor" dostoni voqealarida ishtirok etadi.

2. Payg'ambarlar, avliyo va anbiyolar, din arboblari, shuningdek, diniy tushuncha va e'tiqod bilan bog'liq nomlar. Qodir baxshi dostonlari tilida bunday tushuncha yoki diniy e'tiqodlar bilan bog'liq qator nomlar uchraydi. Zero poetik qahramonlar turli qiyin holatlarga duchor bo'ladilar va ulardan qutilish uchun payg'ambarlar, avliyo va anbiyolarga sig'inadilar. Din arboblari duo oladilar. "Jorxun maston" dostoni tilida Bobozangi avliyo nomi tilga olinadi. Qolgan ikki doston tilida shu sohaga oid antroponimlar uchramaydi, lekin *hoji, mulla, gado* singari appelyativ leksikaga oid nomlar qo'llangan.

3. O'zbek xalq dostonlari tilida faol uchraydigan an'anaviy nomlar. Bunday nomlarga ko'pgina xalq dostonlari hamda badiiy dostonlarda uchrovchi antroponimik birliklarni kiritamiz. "Kelinoy yoki Norguloy" dostoni tilida *Majnun, Layli, Tohir, Zuhro, Oypari, Barchin, Rajab, Gulsum, Gulandom, Xonimoy, Yunus, Hasan, Alpomish, Rustam, Go'ro'g'li, Zulayho* kabi nomlar; "Oychinor" dostoni tilida *Nurali, Go'ro'g'li, Avazxon, Yunus pari, Misqol pari, Soqi, Shohnosxon, Shohnodir, Gapsarshoh, Jorxun maston, Donish*, "Oychinor" dostoni tilida *Rustam (Rustami Doston), Go'ro'g'li, Oysuluv* kabi antroponimlar qo'llanilgan bo'lib, ularni boshqa dostonlari tilida ham uchratish mumkin.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, baxshi dostonlari tilida uchrovchi antroponimik birliklarning geneologik xususiyatlarini o'rganish Qodir baxshi dostonlari tili leksikasini o'rganish uchun boy material bera oladi.

2.2.2. Dostonlar tilida qo'llangan geografik obyektlar nomlari

Qodir baxshi Rahimovning "Oychinor", "Jorxun maston", "Kelinoy yoki Norguloy" dostonlarini tilida antroponimlardan tashqari oronimlar, oykonimlar, gidronimlar, zoonimlar, etnonimlar, kosmonimlar, fitonimlar, xronimlar

va boshqa birliklar doston matnida qoʻllangan boʻlib, bu nomlarni alohida mavzuviiy guruhlariga ajratib oʻrganish talab etiladi. Biz quyida tilshunosligimizda geografik obyekt nomlari sifatida birlashtirib oʻrganilayotgan oronimlar, oykonimlar va gidronimlarning dostonlar matnida qoʻllanishi hamda ularning ayrim lisoniy xususiyatlari haqida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Oronimlar. Xalq dostonlari tilida bunday nomlar togʻ, choʻqqi, tepa, qir, jar, choʻl, yaylov, jilgʻa nomlarini ifodalab keladi. Qodir baxshi dostonlari tilida quyidagi oronimik birliklar keng qoʻllanilgan: *Oqbosh (KN)*, *Oqbet (KN)*, *Dumachovli (KN)*, *Pachkamar (KN)*, *Oqdovon (KN)*, *Qoratuba (KN)*, *Gala (KN)*, *Malik choʻli (KN)*, *Qizilqiya (KN)*, *Qizilqoya (KN)*, *Oqtov (KN)*, *Laylimkon (KN)*, *Kallatosh (KN)*, *Tobatosh (KN)*, *Hisor (KN, OCH)*, *Olatogʻ (KN)*, *Sultonrabot (KN)*, *Chakchak (KN)*, *Qoʻrgʻontosh (KN)*, *Chogʻot (KN)*, *Kuytang (KN, OCH)*, *Koʻhi Qof (KN, OCH)*, *Kattadara (KN)*, *Kattapoy (KN, OCH)*, *Konsoy (KN)*, *Jilgʻasoy (OCH)*, *Boboxon (OCH)*, *Boysun (togʻ – OCH)*, *Polapon (JM)*, *Asqar togʻi (JM)* kabilar.

Doston tilida qoʻllangan oronimlarni quyidagi mavzuviiy guruhlariga ajratish mumkin:

a) togʻ va tosh nomlari: *Oqbosh*, *Pachkamar*, *Boysun*, *Chakchak*, *Oqtosh*, *Qoʻrgʻontosh*, *Tobatosh*, *Hisor*, *Olatogʻ*, *Kallatosh*, *Koʻhi Qof*, *Boboxon*, *Asqar togʻi*, *Polapon (togʻ)*;

b) qoya va choʻqqi nomlari: *Qizilqoya*, *Qizilqiya*;

v) dovon nomlari: *Oqdovon*, *Kattapoy*, *Chakchak*, *Oqbet*;

g) tepa nomlari: *Qoratuba*;

d) yaylov nomlari: *Dumachovli*, *Gala*, *Laylimkon*, *Sultonrabot*;

y) soy nomlari: *Konsoy*, *Laylimkon*;

j) choʻl nomlari: *Malik choʻli*;

z) jilgʻa nomi: *Jilgʻasoy*.

Oronimlar tarkibiy tuzilishiga koʻra ham alohida qatlamlarga ajratiladi: sodda, takror va qoʻshma oronimlar kabi. Sodda oronimlarga *Gala*, *Dumachovli* nomlari kirsam, takroriy nomlarga *Chakchak*, qoʻshma oronimlarga *Oqbosh*,

Pachkamar, Oqtosh, Qo'rg'ontosh, Tobatosh, Olatog', Kallatosh, Qizilqiya, Qizilqoya, Oqdovon, Kattapoy, Oqbet, Qoratuba, Laylimkon, Sultonrabet, Konsoy, Jilg'asoy kabilar kiradi. Ko'hi Qof, Malik cho'li nomlari birikmali nomlardir.

Oronimlarni yasash xususiyatiga ko'ra ham alohida qatlamlarga ajratish mumkin. Bu yerda qo'shma oronimlarnigina ana shu xususiyatini ko'rib o'tamiz. Qo'shma oronimlarning yasash qoliplari quyidagicha:

SIFAT+OT: Oqbosh, Pachkamar, Oqdovon, Olatog', Qizilqiya, Oqtosh, Qizilqoya, Kattapoy, Oqbet, Qoratuba kabi.

OT+OT: Qo'rg'ontosh, Tobatosh, Kallatosh, Laylimkon, Sultonrabet, Konsoy.

Oykonimlar. Oykonimlar o'zbek tili onomastikasi tizimida salmoqli o'rin egallaydigan leksik birliklar sanaladi. "Aholi maskanlarining nomlari tarkibida qo'llanuvchi qishloq, ovul, qo'rg'on, qo'rg'oncha, guzar, mahalla, ko'cha indikatorlari oykonimlarni xarakterlovchi muhim belgilardan sanaladi"¹.

Xalq dostonlari matnida bunday nomlarga muayyan epik makon (yurt, davlat), ba'zan tarixiy davlat va shahar nomlari, shuningdek, asosan, tarixiy obidalar joylashgan nomlar, muayyan qishloq, ovul, mahalla, guzar nomlari uchrashini ko'ramiz. Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida ham oykonimik birliklar keng ishlatilgan. Masalan: *Chambil (JM)*, *Quldus (JM)*, *Oqtosh (JM)*, *Samarqand (OCH)*, *Andijon (OCH)*, *Jingilli (OCH)*, *Tolli (OCH)*, *Shahrisabz (OCH)*, *Dumachovli/Dumachovul (KN)*, *G'uzor (KN)*, *Sherobod (KN)*, *Gilambaxt (KN)*, *Kuytang (KN)*, *Pachkamar (KN)*, *Qo'ng'iro't (KN)*, *Qo'rg'ontosh (KN)*, *Kallatosh (KN)*, *Chog'ot (KN)*, *Qo'qon (KN)*, *Gandiharam (OCH, KN)*, *Xo'ton (OCH)*, *Sayrob (OCH)*, *Sherobod (OCH)*, *Angor (OCH)*, *Termiz (OCH)*, *Qiziriq (OCH)*, *G'ulg'ula (OCH)*, *Boysun (KN)*, *Regar (KN)*, *Xitoy (KN)*, *Hisor (KN)*, *Samarqand (KN)*, *Buxoro (KN)*, *Qarshi (KN)*,

¹ Oxunov N. Farg'ona viloyati oykonimlarini o'rganishga doir // Onomastika. Ilmiy maqolalar to'plami. 1-chiqishi. – Samarqand, 2013. -15-17 –b.

Gilambob (KN), Oqdovon (KN), Tangiharam (KN), Saramas (KN), Darband (KN), Sultonbaxt (KN) kabilar shular jumlasidandir.

Dostonlar matnida qoʻllangan oykonimlarni quyidagi mavzuviiy guruhlariga ajratish mumkin:

a) davlat yoki shahar-davlat nomlari: *Xitoy, Chambil, Gʻulgʻula (Shahri Gʻulgʻula), Quldus, Oqtosh;*

b) viloyat nomlari: *Hisor, Samarqand, Andijon, Xoʻtan;*

v) shahar nomlari: *Gʻuzor, Qoʻqon, Boysun, Rigar, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Andijon, Termiz, Shahrisabz, Xoʻtan, SHerobod;*

g) qishloq nomlari: *Gilambaxt, Gilambob, Tangiharam, Sultonbaxt, Darband, Sayrob;*

d) ovul nomlari: *Dumachovli/Dumachovul, Kuytang, Oqdovon, Darband, Saramas, Arpadoʻzi, Jingilli.*

Gidronimlar. Bunday nomlarga xilma-xil suv obyektlari, dengiz, daryo, ariq, koʻl, soy, buloq. quduqlarning nomlari kiradi. Quyidagi gidronimlar dostonlar tilida uchraydi: *Gavhar (buloq - KN), Sharshar (buloq - KN), Hovdak (koʻl - KN), Gʻuzor (daryo - KN), Chashmiobizang (OCH)* kabilar. Bu nomlarni quyidagi tematik guruhga ajratish mumkin:

a) koʻl nomlari: *Havdak;*

b) daryo nomlari: *Gʻuzor;*

v) buloq nomlari: *Gavhar, Sharshar, Chashmiobizang.*

Qodir Rahimov dostonlari tilida qoʻllanilgan oronimlar, oykonimlar va gidronimlarni ilmiy tadqiq etish baxshi dostonlari tili leksikasini oʻrganish uchun boy material bera oladi, deb oʻylaymiz.

2.3. Baxshi dostonlari tilida qoʻllanilgan eskirgan soʻzlarning leksik-semantik xususiyatlari

Oʻzbek tilshunosligi fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri - xalq dostonlari tilida qoʻllangan leksik qatlamlar tarkibidagi eski va eskirgan soʻzlar tadqiqi masalasidir. Zero, xalq poetik ijodining paydo boʻlishi va shakllanishi

uzoq kechmishga ega. Hali yozma adabiyot vujudga kelmagan bir davrda ogʻzaki ijod namunalari yaralgan. Shuning uchun ham xalq dostonlari tilida qoʻllangan eskirgan soʻzlar qatlamini tadqiq etish muhim sanaladi. Bu soʻzlarning oʻziga xos maʼnolarini, adabiy tilning tarixiy leksikasiga munosabatini, eskirgan soʻzlardan foydalanishda baxshilarning individualligini ochib berish singari masalalar bugungi tilshunosligimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalar qatorida turadi.

Bu sohaga bagʻishlangan tadqiqotlarda dostonlar tilida qoʻllangan eski leksik qatlam birliklari hozirgi oʻzbek adabiy tiliga qiyosan olinib, quyidagi ikki guruhni tashkil etishi qayd etiladi:

1) til tarixining eng qadimgi davridan hozirgi kungacha funksional-normativlik xususiyatini yoʻqotmagan soʻzlar;

2) funksional-normativlik xususiyatiga koʻra qadimgi turkiy va eski oʻzbek tili bosqichlariga xos soʻzlar.

Ilmiy manbalarda bunday leksik hodisa “eski soʻzlar” va “eskirgan soʻzlar” kabi atamalar orqali farqlanadi. “Eski soʻzlar” atamasi tilimizda eng qadimgi davrlarda paydo boʻlgan soʻzlarga nisbatan ishlatilsa, “eskirgan soʻzlar” atamasi esa xalq dostonlarida qoʻllanilgan soʻzlarning koʻp asrlik ijodiy shakllanish bosqichlarida xalq tilining eng faol meyoriy leksikasi sifatida talqin etiladi.

1. Eski soʻzlar. Bunday soʻzlar tadqiqida bu leksik qatlamni qadimiy yozma manbalar tilida uchraydigan birliklar bilan qiyosiy oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida qoʻllanishda boʻlgan eski soʻzlarni Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk” (DLT) asari, “Qadimgi turkiy lugʻat” (QTL - “Древнотюрский словарь”), shuningdek, professor Shavkat Rahmatullayev (SH.R.) ning “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati” bilan qiyosiy oʻrganilganda, ular quyidagi xususiyatlariga bilan farqlanishi aniqlandi:

Baxshi dostonlarida va hozirgi oʻzbek adabiy tilida bir xil shakl va mazmunga ega boʻlgan eski soʻzlar: *aygʻir* (QTL, 28) // *aygʻir* (SH.R., 25) //

ayg'ir (Q.R.); ana (QTL, 43) // ona // ena (SH.R., 254) // ona (DLT, I, 119) // ona // ena (Q.R.); baj (QTL, 79) // boy (DLT, III 173; Sh.R., 56) // boy (Q.R.); burun (QTL, 126) // burun (SH.R., 69) // burun (Q.R.) kabi qo'llanishda bo'lgan.

Ushbu so'zlarning baxshi dostonlari matnidagi ifodasini keltiramiz: *Otasini bilsang Pachkamar boyi, / Tentaklar bo'ladi pulning gadoyi...(KN, 8). // Yoshlikda ketgandir otam ham enam, Qarindosh yo'qlikdan kuyadi tanam...(KN, 10). // Ellik ayg'ir chap yog'imga bog'lansin, / Shunda ko'zim gavhar yoshi to'kilmas(OCH, 33). // Goh-goh joyda surindi, / Pachoq qilib burundi...(OCH, 39).*

Bundan tashqari, tahlilga jalb etilgan dostonlarda qadimgi turkiy til bilan mushtarak bo'lgan eski so'zlar ichida arab va fors-tojik tilidan o'zlashtirilgan lug'aviy birliklar ham ko'plab uchraydi. Ularga ayrim misollar keltirish bilan cheklanamiz:

a) arab tilidan o'zlashgan eski so'zlar: *majdan (QTL, 399) // maydon (Q.R.), 'adad (QTL, 41) // adad (SH.R.) // adad (Q.R.)* kabi;

b) fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlar: *arzu (QTL, 59) // orzu (SH.R.) // orzu (Q.R.); saray (QTL, 488) // saroy (SH.R.) // saroy (Q.R.); otxona (SH.R.) // otxona (Q.R.)*

2. Qodir baxshi dostonlarida qo'llanilgan ayrim eski so'zlar o'zining fonetik shakliga ko'ra qadimgi turkiy tilda o'z muqobillariga ega bo'lsa ham, ular semantik jihatdan farqlanadi. Quyida ayrim eski so'zlarning ma'nolarini va xalq dostonlari matnida qo'llanish shakllariga misol keltiramiz:

a) *to'qim* so'zi qadimgi turkiy tilda qoramol, buqa ma'nolarini ifodalagan¹. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *to'qim* so'zi quyidagicha izohlangan:

TO'QIM 1 Jazliq yoki egar ostiga qo'yiladigan, odatda kigizdan qilinadigan ot-ulov abzali.

2 *shv.* Tandir yoki o'choqning namat yoki matodan qilingan yopig'i.

¹ Древнетюркский словарь. – Л., 577 с.

3 (3-sh. egalik qo'shimchasi bilan) ko'chma Kiyinish va b. jihatdan qiyofasi¹;

b) to'n so'zi qadimgi turkiy manbalar tilida ko'ylak ma'nosida qo'llangani kuzatiladi². "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'z quyidagicha izohlangan:

TO'N 1 Oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim; chopon"³. Bundan tashqari, so'zning "po'st, qobiq" hamda "libos" ma'nosida ko'chma ma'noda qo'llanishi ham lug'atda zikr etilgan.

Biz tadqiq etayotgan dostonlar tilida to'n so'zi aynan chopon ma'nosida qo'llanilgan: *Nazarboy sovchilarni oq o'tovga kirgizib, oldiga dasturxon yozib, ikkoviga to'n kiygizib so'radi (OCH).*

2. Eskirgan so'zlar. Bu so'zlar o'zbek tilining serqatlam xazinasidan munosib o'rin egallagan eski so'zlardan, shuningdek, zamonaviy tilning funksional normativ leksikasidan eskilik bo'yog'iga egaligi bilan farqlansa, xalq dostonlarida qo'llanilgan eskirgan so'zlar ularning ko'p asrlik ijodiy shakllanish bosqichlarida xalq tilining eng faol meyoriy leksikasi sifatida amalda bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Shevashunos Ahmad Ishayev eskirgan so'zlar xususida quyidagilarni yozadi: "Tarixiylik nuqtai nazaridan dostonlarda uchraydigan eskirgan so'zlar mazkur manbalar uchun tarixiy yoki arxaik so'zlar emas. Chunki, dostonlar yaratilib, asrlar osha kuylanib kelinganda, bu so'zlar juda mahsuldor bo'lgan va shu sababli ular dostonlarning badiiy to'qimalariga chuqur singib ketadi"⁴.

Shu jihatdan qaralganda Qodir baxshi Rahimovning dostonlari tilida qo'llangan eskirgan so'zlarning katta qismi qadimgi turkiy tilga oid yozma manbalar bilan ko'pgina lisoniy o'xshashliklarga egaligi aniqlandi. Buni quyidagi lisoniy dalillar orqali izohlashga harakat qilamiz.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 4-jild, 2008. – 252 bet.

² Древнетюркский словарь. – Л., 574 с.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 4-jild, 2008. – 238 bet.

⁴ Ishayev A. Dostonlar tilining ba'zi xususiyatlari // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o'rni. – Toshkent: Fan, 1971. –B.173-179.

1. Baxshi dostonlari tilida fonetik jihatdan qisman farqlanuvchi qadimgi turkiycha eskirgan soʻzlar qoʻllanganini koʻramiz: *koʻkuz (QTL, 313) // koʻkay (Q.R.)* - *koʻkrak, qalb, boʻyrak; togʻ (QTL, 570); toʻq (Q.R.)* - *chang, toʻzon; koʻmulduruk (QTL, 314) // oʻmulduruk (Q.R.)* - *ot koʻkragiga bogʻlanadigan tasma*.

2. Fonetik shaklga oʻxshash, biroq semantik jihatdan farqlanuvchi eskirgan soʻzlar. Bu soʻzlarga qadimgi turkiy manbalarda qoʻllanilgan va biz oʻrganayotgan dostonlar tilida ham uchragan *koʻmak//koʻmak, uzuk//uzuk* soʻzlarini kiritish boʻladi.

Qodir baxshi dostonlarida qoʻllangan eskirgan soʻzlarning tarixiy qimmatini chuqurroq anglash uchun ularning lugʻaviy-mavzuviy guruhlarini aniqlash va shu asosda tahlilni davom ettirish muhim samaralar berishi mumkin. Oʻzbek adabiy tilidagi, shu jumladan, xalq dostonlari tilidagi eskirgan soʻzlarning koʻp qismi oʻzining mavzu doirasi jihatidan tarixiy ahamiyatga egadir.

3. Tarixiy soʻzlar. Dostonlar tilidagi bu soʻzlar muayyan narsa va predmetlar yoki hodisaning tarixiy nomlarini ifodalovchi soʻzlar sanaladi. Qodir baxshi oʻz dostonlari tilida tarixiy soʻzlardan faol foydalangan. Ayniqsa baxshining “Oychinor” va “Jorxun maston” dostonlari tilida bu qatlamdagi soʻzlar bisyor. Baxshi qoʻllagan tarixiy soʻzlarni quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratish mumkin.

1. Muayyan mansab-martabani bildiruvchi tarixiy soʻzlar. Oʻzbek xalq dostonlari tilida qoʻllangan tarixiy soʻzlarning katta qismini mansab-martabani ifodalovchi soʻzlar tashkil etadi. Bu guruhga kiruvchi nomlar maʼlum taraqqiyot bosqichini bosib oʻtgan. Mansab-martaba leksikasining shakllanishi va taraqqiyot xususiyatlarini ochib berishda Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk” asari eng qadimiy tayanch manba vazifasini oʻtaydi. Mansab-martaba nomlari taniqli turkiyshunoslar G.Dyorfer, I.Berezin, B.Grekov, A.Budagov, N.Baskakov, V.Bartoldlarning tadqiqotlarida qisqacha yoritilgan boʻlsa, oʻzbek tilshunosligida Hamidulla Dadaboyev XI-XIV asrlar turkiy

yozma yodgorliklar tilidagi mansab-martaba soʻzlarini maxsus tadqiq qilgan. Biz oʻrganayotgan dostonlar tilida qoʻllangan mansab-martaba nomlarini quyidagi kichik guruhlariga ajratib tahlil etish mumkin:

a) eng yuqori lavozim, oliy mansab nomini bildiruvchi tarixiy soʻzlar: podsho, sulton, hoqon, xon, shoh, shahanshoh kabi. Pod(i)sho leksemasi turkiy tillarga fors-tojik tilidan oʻzlashgan boʻlib, “Baʼzi Sharq mamlakatlarida: mutlaq hokimlik qiluvchi hukmdor unvoni va shunday nomga ega boʻlgan shaxs, shoh”¹ kabi maʼnosini ifodalaydi. Xalq dostonlari tilida podshoh, poshsho, podsho kabi fonetik variantlarda qoʻllanilgan: *Shunday qilib bek Gʻoʻroʻgʻli dovrugʻi olamga ketib, necha podsholarga yetib, ular Chambilni olamiz deb lashkar tortib, kelgani qilichdan qochib, Goʻroʻgʻli desa toshdan toshga pisib, kunlar ham oʻta berdi (JM, 46). // Ular aytdi: “Biz beklikka emas podsholikka qaraymiz, joyimiz Andijon, Samarqand, podshomiz Bombir, podshoga shu joydan qoʻrgʻon solamiz...” (OCH, 35) kabi.*

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da xon leksemasi “turkiy va moʻgʻul xalqlari unvoni” maʼnosida izohlangan² boʻlib, xalq dostonlari tilida yuqori unvonli mansabdor, muayyan epik makon (yurt) ning hukmdori sifatida tavsiflanadi: *Shu vaqtlarda Shayboniyxon degan bir xon chiqib qolgan edi. Qaysar bu xonning aslzodalariga muruvvat qilayotganini bilib, boylik orttira-man, deb Shayboniyxon bilan gaplashib yurar edi (OCH, 61).*

Oʻzbek tiliga arab tilidan oʻzlashgan sulton atamasi “oliy hukmdor, podsho”³ maʼnosini bildirib, xalq dostonlari tilida xon soʻzining sinonimi sifatida qoʻllaniladi. “Jorxun maston” dostonida muayyan epik yurtning hukmdori maʼnosida ishlatilgan: *...otasi – Avazxon, bobosi – Goʻrugʻli sulton... (JM, 46). // Quloq sol, sultonim aytar tilima, / Yolgʻon demay men rostin soʻylayin... (JM, 96) kabi.*

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 3-jild, 2007. – 282 bet.

² Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 4-jild, 2008. – 410 bet.

³ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 2-jild, 2006. – 584 bet.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da shoh so‘zi fors tilidan o‘zlashgan **PODSHOH I** leksemasi anglatgan ma’noda qo‘llanilishi qayd etilgan. Qodir baxshi dostonlari tilida bu leksema ham faol qo‘llanilgani kuzatiladi: *U kishining nomlari Amir Bobir **shoh** deb ataladi (OCH, 38).* “Oychinor” dostonida shohanshoh shaklida ham qo‘llanilgan: *Mulozimlar birdan: - Ey, **shohanshohim!** Dunyo ustida yurib bunday bevaning yoki qizning qalinini eshitganimiz yo‘q... (OCH, 43) kabi.*

Umuman olganda Qodir Rahimov dostonlari tilida *shoh, podsho, xon* tarixiy so‘zlarning qo‘llanish darajasi yuqori. Hukmdorlar unvonlari sifatidagi *bek va sulton* atamaları esa past darajada qo‘llanilgan. Ilmiy tadqiqotlarda epik qahramonlarga nisbatan qo‘llanilgan xukmdorlar unvoni epik ideallashtirish vositasi ekanligi qayd etiladi.

b) muayyan vazifa uchun mas’ul shaxs tushunchasini bildiruvchi tarixiy so‘zlar. Xalq dostonlari tilida bo‘lgani singari Qodir baxshi dostonlari tilida ham *vazir, amir, qozikalon, qozi, noyib, to‘ra, qo‘rg‘onbegi, zakotchi, mirshab, shabgir, hudaychi, bek, qo‘rboshi, dahaboshi* kabi tarixiy so‘zlar qo‘llangan.

Bek so‘zi tilimizga turk tilidan o‘zlashgan bo‘lib, izohli lug‘atda “xonliklar davrida davlat arboblari, shahar yoki viloyat hukmdorlariga berilgan unvon”¹ ma’nosini bildirishi ko‘rsatilgan. Dostonlar tilida yuqori unvonli va mansabdor shaxs ma’nosida qo‘llangan kuzatiladi: *Shunday qilib bek Go‘ro‘g‘li dovrug‘i olamga ketib, necha podsholarga yetib, ular Chambilni olamiz deb lashkar tortib, kelgani qilichdan qochib, Go‘ro‘g‘li desa toshdan toshga pisib, kunlar ham o‘ta berdi (JM, 46).* // *Tayoq yemay ketolmaysan izinga / Borib aytgin shahringdagi qozinga, / Mirshab bilan qarorini ob kelsa, / Bir suyak yeb qaytadigan tozinga (KN, 16).*

v) muayyan xizmatni bajaruvchi shaxs tushunchasini ifodalovchi tarixiy so‘zlar: *yasovul, jig‘ador, tug‘dor, oqsoqol, akobir, so‘fi, darvesh, devona*

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 1-jild, 2006. – 21-bet.

(*jandapo‘sh*), *chokar*, *qul*, *kanizak*, *qalandar* kabi. Bu tipdagi tarixiy so‘zlarning ma’lum qismigina Qodir baxshi dostonlari tilida uchraydi.

O‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan *chokar* leksemasi “xizmatkor, chorakor, malay”¹ ma’nosini ifodalaydi. Qodir baxshi dostonlari tilida ham shu ma’noda qo‘llanganini kuzatamiz: *Ana shu boyning Xolyor degan cho‘poni bo‘lib, uning Ernazar degan chokari bor edi (OCH, 24).*

O‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan *kaniz* leksemasi “cho‘ri, xizmatchi, oqsoch” ma’nolarini ifodalab, izohli lug‘atda “Xon, amir va boshqa hukmdorlar saroyidagi xizmatchi ayol” ma’nosini ifodalashi ko‘rsatilgan. *Kanizak* leksemasi esa “yosh cho‘ri, yosh oqsoch” ma’nolarini bildirib, izohli lug‘atda “yosh kaniz” ma’nosida qo‘llanishi qayd etilgan². Baxshining “Oychinor”, “Jorxun maston” dostonlarida ham aynan shu ma’noda qo‘llanilgani kuzatiladi: *Odamzodning qizlari podsho tomonidan qo‘yilgan bo‘lib, parilar Gulsanobarning husniga mahliyo bo‘lib, o‘zlari kelib kaniz bo‘lishga ruxsat olib, ham xizmatni qilib, ham husnini tamosho qilib yurar edi (JM, 56). // Keldiyor turib aytdi: - Ey, amir! Bu qizni nima qilamiz? – Bu qizni, dedi Qaysar, - Shayboniyga tortiq qilib, kanizak qilib beramiz (OCH,73).*

2. Muayyan kasb-hunar nomlarini ifodalovchi tarixiy so‘zlar. Bunday so‘zlarga *sayis*, *jallod*, *bazzoz*, *baqqol*, *dahmarda*, *usta*, *jarchi*, *kosib*, *chorikor* kabi so‘zlar kiradi va ular baxshi dostonlari tilida ham qo‘llanilgan: *Bir kuni yaylovga chiqayotganimda bizga chorikor bo‘lib yurgan bobo bilan uchrashib qoldim (KN, 54). // Yaxshilikka yaxshilikni olarsa, / Dahmardalik to‘nini kiy ustingga (KN, 29). Ana shu boyning Xolyor degan cho‘poni bo‘lib, uning Ernazar degan chokari bor edi (OCH, 24).*

Dahmarda leksemasi o‘zbek tilining ba’zi shevalarida hamda xalq og‘zaki ijodida “qo‘y, mol boquvchi xizmatkor”³ ma’nosida keng ko‘llanadi. “Kelinoy

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 4-jild, 2008. – 505- bet.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 2-jild, 2006. – 314- bet.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 1-jild, 2006. – 583- bet.

yoki Norguloy” dostoni tilida ham shu ma’noda qo’llanilganini kuzatamiz: *Yaxshilikka yaxshilikni olarsa, / Dahmardalik to’nini kiy ustingga (KN, 29).*

O‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan sayis leksemasi “otboqar, hayvonlarga qarovchi; umuman, otboqar”¹ ma’nolarini ifodalaydi. Baxshining “Jorxun maston” dostoni tilida ham sayis leksemasi otlarni parvarish qiladigan xizmatkor ma’nosida qo’llanganini ko‘ramiz: *G‘irotning sayisi bek Soqi, sakson tilla bir oylik haqi, kulib yuborsa gulli qoqi, sozi suhbatda podsholik haqi, qadam bosib, bir Avaz bilan suhbatlashib kelay deb kelayotib edi (JM, 52).*

3. Muayyan ilm maskanlari sohasi va unga aloqador tushunchalar nomlarini ifodalovchi tarixiy so‘zlar: *mulla, mullabachcha, ulamo, xalfa (xalifa), madrasa, muddaris, domulla/domla* kabi. Arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan *madrasa* leksemasi izohli lug‘atlarda “Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridagi diniy oliy o‘quv yurti” ma’nosida qo’llanishi qayd etilgan. Ushbu leksema Qodir baxshining “Jorxun maston” dostoni matnida uchraydi. Muallif dostonning epik qahramoni Nuralining ta’lim-tarbiyasi xususida so‘z yuritar ekan madrasa leksemasi bilan bir qatorda mullavachcha/mullabachcha tarixiy so‘zlarini ham qo‘llaydi: *Go‘ro‘g‘li Chambilni obod qilgan, ikki yuz madrasa qurdirgan... // Nuralibek ham madrasada o‘qiy berdi. Nurali hamma mullabachchalardan ham ko‘proq bilar, ustozni uni hammadan yaxshi ko‘rar, har ish bo‘lsa unga buyurar edi. // Nuralixon bir kuni Xoja Yusufdan saboq olayotgan edi, darvozadan yana bir begona mullavachcha kelib, ta‘zim qilib, salom berdi (JM, 46).*

O‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan mulla leksemasi “din arbobi, ulamo, shuningdek, ma’lumotli, o‘qimishli kishi” ma’nolarida xalq dostonlari tilida ham faol qo’llaniladi. Qodir baxshining “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni tilida *mulla* leksemasi “din arbobi, ulamo” ma’nosida qo’llanilganini ko‘ramiz: *So‘ltoqning odamlari nikoh o‘qitgali mullani ham olib kelishdi (KN, 93).* Baxshining “Jorxun maston” dostoni tilida boshqa tillardan (forscha) o‘zlashgan

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 3-jild, 2007. – 422 -bet.

domullo soʻzining soʻzlashuv tilidagi domla shakli qoʻllanilgan: ... *ilm berar edi domlasi Xoʻja Yusufxon (JM, 46)*

4. Urush-jang sohasiga oid tushunchalar va qurollar nomlarini ifodalovchi tarixiy soʻzlar. Bunday soʻzlarga *shamshir, sovut, shokomon (mergan), sadoq, nayza, qilich, qalqon, nayzadastlik, lashkar, gurzi-gavron, sarboz, sovut, sipah, xanjar, qoʻrxona* kabilar kiradi. Bu sohaga kiruvchi soʻzlar baxshining “Oychinor” va “Joxun maston” dostonlari tilida faol qoʻllangan: *Ertaga saharda Nuralibekni kiyintirib, xitoy toʻndi kiydirib, oyogʻiga tilla etik kiydirib, tilla kamarni boylatib, ustidan sovut taylatib, Isfahon qilichni mahkam boylatib, abdal nayzani chap qoʻliga ushlatib, qalqonni orqasiga taylatib...* (JM, 53). // *Qarab turgan navkarlar, / Ol, deb otni soladi, / Jarang-jiring qilichlar / Havoda pishqiradi. // Eynida sovut shirqillab, / Boqilgan otlar dirkillab (OCH, 47).*

5. Kiyim-kechak, bezak va matolar nomlarini ifodalovchi tarixiy soʻzlar. Xalq dostonlari matnida qoʻllangan *adras, kimxob, dovdon, shohisholdom, kuloh, banot, chimmat, salla, latiba, jelak, hapamat* kabi soʻzlar shular jumlasidandir. Baxshi dostonlari tilida ham bu soʻzlar qoʻllangan: *Jorxun maston choshka-choshkada Asqardan taylab, chimmatni betga tortib, Gʻaniga yoʻlda yetib, tosh qilib jilgʻaga qoʻyib...* (JM, 59). // *Yoqutlardan taqtirgan. / Boshda loʻngi sallasi (OCH, 88). // Ergash Norgulga adiras koʻylak tashladi (KN, 97). // Taqsang latibang nuriga, / Boqilgan tulpor surinar (KN, 47). // Oy Norguloyning jelagi, / Xitoyi gulli parangdan (KN, 33). // Hapamatlaring yulduzday, / Gavhar munchogʻing oy boʻlsin (KN, 47).*

6. Oʻlchov birliklari nomlarini ifodalovchi tarixiy soʻzlar: *botmon, qadoq, chorak, pud, lak, lak-lak, qaboq* kabi. Oʻzbek tiliga arab tilidan oʻzlashgan *botmon* leksemasi “turli mezonga, salmoqqa ega boʻlgan (ikki puddan oʻn bir pudgacha) ogʻirlik oʻlchov birligi”¹ maʼnosini ifodalaydi. Qodir baxshi dostonlari tilidagi epik qahramonlar nutqida bu leksema ham shu

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 1-jild, 2006. – 328-ber.

ma'noda qo'llanilgan: ...Jorxun maston turib aytdi: "*Nurxonning ikki qo'liga bir botmon, oyog'iga ikki botmon zanjir bog'laymiz, aravaning ustiga tashlaymiz...*" (JM, 69). // ...duosini o'qib, tilsimli tuproqqa solib G'irga otguncha G'irot uch qaboq oshib ketdi... (JM, 73). // Dedi-da mo'ljallab toshini otdi, / Sakson botmon toshi zangillab ketdi (JM, 73).

O'lchov birliklarini ifodalovchi tarixiy so'zlar, asosan, "Jorxun maston" dostoni tilida uchrashi kuzatildi. Boshqa dostonlar tilida deyarli uchramadi.

O'zbek tili leksikasiga fors tilidan o'zlashgan va uning tarixiy qatlamiga kiruvchi *botmon* so'zi 898,5 g ga teng og'irlik o'lchovini ifodalagan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da so'zga quyidagicha izoh berilgan: "O'rta Osiyoning, shuningdek, O'zbekistonning turli yerlarida turli mezonga, salmoqqa ega bo'lgan (ikki puddan o'n bir pudgacha) og'irlik o'lchov birligi", "taxminan bir gektaga teng sath o'lchov birligi"¹.

Yuqorida baxshi dostonlaridan keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, *botmon* tarixiy so'zi og'irlik o'lchovi ma'nosida qo'llangan.

7. Kundalik hayotga daxldor oy, kun, yil hamda payt nomlarini ifodalovchi tarixiy so'zlar. Baxshi dostonlari tilida uchraydigan *sarv, safar, peshin, choshgoh, nomozshom, sahar* kabi so'zlar shular jumlasidandir: *Dono bilan nomoshomda, / Norgulning qo'lin boyladi (KN, 66). // Ayni choshgoh-choshgohda Xoliyorning kapasining ustidan chiqdi (OCH, 29). // Yurolmaydi, qop ketdi, / Kun ham choshgohga yetdi (OCH, 40). // Erta choshgohda otlarni olib kelib joy-joyiga bog'laysan! (OCH, 52) // Sayrob degan joylardan, / Saharda o'tib boradi (OCH, 71).*

O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan *namozshom* leksemasi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlangan:

NAMOZSHOM [f. – shom namozi va u o'qiladigan payt] **1** Kun botib, qorong'ilik tusha boshlagan payt, qosh qoraya boshlagan vaqt; oqshom.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati, Besh jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1-jild., 2008. 330-bet.

2 Kunbotgandan biroz keyin o‘qiladigan namoz, besh vaqt namozning to‘rtinchisi¹.

Ushbu leksema Qodir baxshining “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni tilida *nomoshom* fonetik shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, “qorong‘ilik tusha boshlagan payt, oqshom” ma‘nolarini ifodalab kelgan.

Choshgoh leksemasi o‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “tushgacha bo‘lgan vaqt, kun ancha ko‘tarilib qolgan vaqt”² ma‘nolarini bildiradi. Qodir baxshi dostonlarida ham leksema aynan shu ma‘noda qo‘llanganini ko‘ramiz.

O‘zbek tiliga arab tilida o‘zlashgan *sahar* leksemasi “erta tong, tongotar”, “g‘ira-shira tong yorishgan mahal, erta tong payti; subhidam, tong, azon”³ ma‘nolarini bildiradi. Baxshi dostonlari tilida ham aynan shu ma‘noda qo‘llangan.

8. Turli xil predmet va hodisalar, muayyan xatti-harakatlar nomlarini ifodalovchi tarixiy so‘zlar. Qodir baxshi dostonlari tilida *toj, taxt, ko‘shk, shikor, mosivo, to‘bichoq, harba, iyir, chiyir, kasratki, yasov, ulgi* va boshqa so‘zlar ham qo‘llanilgan bo‘lib, bu leksemalar ayni shu guruhga mansubdir: *Kaniz qilib qirq qizni / Oq ko‘shkingda boqtiray (OCH, 78). // Yasov tortib kelganga, Sen nimasan, demaydi (OCH, 98). // Ko‘ksingda ikki qo‘rg‘oning, / Bir-biridan o‘tguday, / Gar ko‘zi tushsa podshoning, / Taxtidan kechib ketguday (KN, 47).*

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *ko‘shk* leksemasi turkiy va forsiy tillarda parallel qo‘llanilgani va “dala hovli”, “shahar tashqarisidagi qasr” ma‘nolarini ifodalab, “Qadimda baland, bahavo qilib solingan yengil imorat” ma‘nosini bildirgan⁴. Qodir baxshi Rahimovning “Oychinor” dostonida shoh Bobir (Bobur) tilidan qo‘llanilgan bu leksema qasr ma‘nosini bildiradi.

Yasov leksemasi o‘zbek tilining eskirgan so‘zlar qatoriga kiradi va u “saf, qator” ma‘nolarini ifodalab keladi. Qodir baxshi Rahimovning “Oychinor”

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 3-jild., 2009. 16-bet.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 4-jild., 2008. 512-bet

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 3-jild., 2008. 467-bet

⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2-jild., 2006. 179-bet

dostonida qo‘llangan ushbu leksema “saf, qator” ma’nosidan biroz kengroq ma’noda qo‘llanganini ko‘ramiz. Baxshi leksemani “saf tortib bostirib kelish” ma’nosida ishlatgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *taxt* leksemasi shakldosh so‘z sifatida qayd etilgan bo‘lib, **TAXT I** biz tahlil etayotgan masalaga bevosita aloqadordir. Ushbu leksema fors tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan bo‘lib, podshohning marosimlarda o‘tiradigan maxsus o‘rindig‘i” ma’nosini bildiradi. **TAXT I** ning o‘zi ham ko‘p ma’nolidir. Bu ma’nolar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlangan:

1 Rasmiy qabul va boshqa tantanali marosimlarda shoh, xon va amir o‘tirishi uchun saroy to‘riga o‘rnatilgan, maxsus bezatib ishlangan joy, hashamatli o‘rindiq.

2 Podshoh, xon, amir lavozimi; podshohlik, xonlik, amirlik.

3 *ko‘chma* Mansab, lavozim (o‘rni)¹.

Qodir baxshining “Kelinoy yoki Norguloy” dostonidan keltirilgan yuqoridagi matnda “rasmiy qabul va boshqa tantanali marosimlarda shoh, xon va amir o‘tirishi uchun saroy to‘riga o‘rnatilgan, maxsus bezatib ishlangan joy, hashamatli o‘rindiq” ma’nosida qo‘llanganini ko‘ramiz.

10. Turli xil joy nomlarini ifodalovchi tarixiy so‘zlar: Baxshi dostonlari tilida *mirshabxona, obxona, sardoba, zindon, arna, jevaxona, to‘pxona, tabla* kabi turli joy nomlarini ifodalovchi leksemalar ham qo‘llanilgan: *Tablada Soqi G‘irotni abzallab, sozlab, zarlab taylagan, ayilni G‘irning beliga taylab tortayotgan edi (JM, 54). // Shayboniy ham to‘p-qo‘rxonasini ortib: “Qaysardan hech darak bo‘lmadi. O‘lmasa axir bir kun kelar”, deb Andijonga qarab jo‘nadi (OCH, 101). // Sizlar bola-chaqalardan xabardor bo‘linglar! – deb tabladagi Tarlon bo‘zni egarlab... (OCH, 120).*

O‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan *tabla* leksemasi aslida “osma qulf; quti” ma’nolarini bildirib, o‘zbek tili shevalarida hamda xalq og‘zaki ijodida “otlar turadigan og‘ilxona, otxona” ma’nosida ishlatiladi. Qodir baxshi dostonlari tilida ham aynan shu ma’noda ishlatilgan.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 4-jild., 2008. 16-17-bet.

Qo'rxona leksemasi eskirgan so'z bo'lib, "Qurol-aslaha saqlanadigan ombor, qurolxona, arsenal" hamda "Qimmatbaho narsalar, boyliklar saqlanadigan ombor; xazina"¹ ma'nolarida qo'llanishi izohli lug'atda qayd etilgan.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, Qodir baxshi Rahimovning uch dostoni tilida eskirgan so'zlar qatlami ham katta miqdorni tashkil etadi. Bu so'zlarning dostonlar tilida qo'llanish darajasi, ularning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari singari masalalar tadqiqot masalalari sirasiga kirishi va o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

BOB BO'YICHA XULOSA

1. Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida xalqimizning muayyan turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy holati, xatti-harakatlari, rasm-rusmlari, urf-odatlari, doston qahramonlari nomlari, voqealar kechgan joy nomlari o'z ifodasini topgan. Qodir baxshi biror dostonni kuylar ekan, doston voqeligini, ya'ni epik syujetni bayon qilish jarayonida o'zbek tilining boy xazinasidan foydalanadi. Baxshi dostonlari tilida qo'llanilgan o'zbek tili leksikasining turli mavzuviy guruhlariga kiruvchi so'z va boshqa til birliklaridan ma'lum bir maqsadda samarali foydalana olgan.

2. Baxshi dostonlari tilida qo'llanilgan leksik birliklar quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratib o'rganildi: 1) inson va uning tana a'zolarini ifodalovchi leksemalar; 2) kiyim-kechak nomlarini bildiruvchi leksemalar; 3) hayvonlar, jonivorlar va qushlar nomlarini bildiruvchi birliklar; 4) qavm-qarindoshlikni ifodalovchi leksemalar; 5) ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni anglatuvchi so'zlar; 6) shaxs (epik qahramon) larni ifodalovchi nomlar; 7) kasb-hunar nomlarini bildiruvchi birliklar; 8) o'simlik va daraxtlar nomlarini bildiruvchi birliklar; 9) o'tovsozlikka oid nomlar; 10) o'rin-joyini ifodalovchi nomlar; 11) ot va uning abzallari nomini bildiruvchi leksemalar.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati, Besh jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 5-jild., 2008. 414-bet.

3. Baxshi dostonlari tilida onomastik birliklar ham keng qo'llanilgan bo'lib, ularning nomlarini alohida tadqiq etish ehtiyoji bor. Ishda onomastik qatlamga kiruvchi antroponimlar, oronimlar, oykonimlar va gidronimlar alohida tadqiq etildi. Ularning dostonlar tilida tutgan o'rni, qaysi til birligi ekanligi (geneologik qatlamlari), leksik-semantik xususiyatlari o'rganildi.

4. O'zbek tilshunosligi fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri - xalq dostonlari tilida qo'llangan leksik qatlamlar tarkibidagi eski va eskirgan so'zlar tadqiqi masalasidir. Zero, xalq poetik ijodining paydo bo'lishi va shakllanishi uzoq kechmishga ega. Hali yozma adabiyot vujudga kelmagan bir davrda og'zaki ijod namunalari yaralgan. Shuning uchun ham xalq dostonlari tilida qo'llangan eskirgan so'zlar qatlamini tadqiq etish muhim sanaladi.

5. Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida qo'llangan va o'zbek tili leksikasida kamiste'mol so'zlar sifatida baholanayotgan eski so'zlar, eskirgan so'zlar va tarixiy so'zlar ma'lum bir maqsadni bajargan. Dostonlar tilida ularning qo'llanishi o'ziga xos badiiy va uslubiy vazifalar bajaradi. Ishda bu turkumga kiruvchi so'zlar qadimgi lug'atlar, etimologik lug'at hamda izohli lug'atlar materiallari bilan qiyosiy tahlil etgan holda o'rganildi.

6. Dostonlar tilida qo'llangan tarixiy so'zlar muayyan narsa va predmetlar yoki hodisaning tarixiy nomlarini ifodalovchi so'zlar sanaladi. Qodir baxshi o'z dostonlari tilida tarixiy so'zlardan faol foydalangan. Ayniqsa baxshining "Oychinor" va "Jorxun maston" dostonlari tilida bu qatlamdagi so'zlar bisyor. Baxshi qo'llagan tarixiy so'zlar ma'lum tematik guruhlariga bo'lib o'rganildi.

III BOB. QODIR BAXSHI RAHIMOV DOSTONLARI TILINING BADIYY-USLUBIY XUSUSIYATLARI

3.1. Baxshi dostonlari tilida qo'llanilgan o'xshatishlar

O'xshatish adabiyotshunoslikning ham, tilshunoslikning ham o'rganish obyekti, har ikkalasida badiiy tasviriy vosita sifatida baholanadi. Shuning uchun ham o'xshatishlar yuzasidan filologiya ilmda juda ko'p tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu jumladan, o'zbek tilshunosligida M.Mukarramov, R.Qo'ng'urov, A.Rustamov, N.Mahmudov singari taniqli olimlarning bu boradagi tadqiqotlari alohida ajralib turadi. Shuningdek, B.Umurqulov, R.Suvonova, M.Yoqubbekova, I.Yormatov, M.Yo'ldoshev, G.Jumanazarovalarning monografik ishlarida tasviriy vositalarning biri sanalgan o'xshatishlarga keng o'rin berilgan.

O'xshatish masalasi xalq poetik ijodi namunalarini lingvistik aspektda o'rgangan tilshunoslarning ishlarida ham u yoki bu darajada yoritiladi. I.Yormatov "Alpomish" dostoni poetikasini o'rganish jarayonida o'xshatishlarning tarkibini uchta birlikdan tashkil topganini ta'kidlab o'tadi. Bular: o'xshatilmish (subyekt); o'xshovchi (etalon); o'xshash (aktant).

Shuningdek, o'xshatish vositasini ham bu uch birlikning yordamchi uzvi sifatida ko'rsatadi: "O'xshatish uchta asosiy o'xshatilmish (o'xshovchi va o'xshamish) hamda bitta yordamchi (o'xshatish vositasi) uzvlaridan tashkil topadi"¹, degan xulosani ilgari suradi.

O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetikasini maxsus o'rgangan M.Yoqubbekova esa o'xshatishlarning struktural-kompozitsion, leksik va grammatik, badiiy-estetik (poetik) tabiatini izchil yoritishga harakat qiladi. Olima o'zining monografik ishida olimlarning o'xshatishlar tarkibi (uzvlari) haqidagi fikrlarini keng sharhlaydi va ularga o'z munosabatini bildiradi. Uning fikricha, o'xshatish uzvlari quyidagicha bo'lishi kerak: asos, timsol, vosita, belgi².

¹ Yormatov I. O'zbek xalq qahramonlik eposi poetikasi. Filol. fanlari dokt... diss. avtoref. – Toshkent, 1994, 31-35-betlar.

² Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. Filol. fanlari dokt... diss. - Toshkent, 2005.

Ko‘rinadiki, olimlar o‘xshatish uzvlarini to‘tta turga ajratgan. Ularning birinchisi o‘xshatish asosiga, ikkinchisi o‘xshatiluvchi narsa (timsol) ga, uchinchi o‘xshatish vositasiga, to‘rtinchisi o‘xshatish belgisiga to‘g‘ri keladi.

O‘xshatishni obraz yaratishning eng sodda usuli deyish mumkin. Chunki unda bir-biriga o‘xshatilayotgan narsa va predmetning nomi qatnashadi. Bunda ularning biri o‘xshatilayotgan predmetni, ikkinchisi o‘xshatish obrazi bo‘lgan predmetni anglatadi. Aynan ana shu holatni boshqacha nomlasak, biri o‘xshatish obyekti, biri esa o‘xshatish obrazini bildiradi. O‘zaro o‘xshatilayotgan predmetlarni bu jarayonda bog‘lab turadigan uzv o‘xshatmaga beriladi.

O‘xshatishlarga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, olimlarning o‘xshatishlar uzvi haqidagi qarashlari bir xil emas. Professor N.Mahmudovning monografik ishida o‘xshatish uzvlari quyidagi to‘rt turga bo‘linishi qayd etilgan: o‘xshatish subyekti; o‘xshatish etaloni; o‘xshatish asosi; o‘xshatishning shakliiy ko‘rsatkichi¹.

A.Rustamov va I.Yormatov singari tilshunoslar birinchi uzv – o‘xshatish subyekti o‘xshatilmish deb nomlasalar, M.Mukarramov o‘xshatuvchi obyekt, M.Yoqubbekova o‘xshatish asosi nomi bilan ataydi. O‘xshatishning keyingi uzvlari nomida ham shunday noo‘xshashliklar kuzatiladi. Bu haqda ilmiy manbalarda batafsil fikr yuritilgani bois ular xususida to‘xtalmaymiz.

Filologiya, shu jumladan, tilshunoslik ilmida o‘xshatishlarning bir necha tasniflari amalga oshirilgan. M.Mukarramov, M.Yo‘ldoshev, M.Yoqubbekova, D.Xudoyberganova, G.Jumanazarova singari tilshunos olimlarning tasniflari e‘tiborga loyiq. Ular o‘xshatishlarni poetik tabiatiga ko‘ra, qo‘llanishiga ko‘ra, tuzilishiga ko‘ra, sezgi va tasavvurlar orqali yuzaga kelishiga ko‘ra tasnif etadilar.

Xalq dostonlari tilida qo‘llanilgan o‘xshatishlar xususida izlanishlar olib borgan olimlar ularni kelib chiqishiga ko‘ra tasnif qiladilar, ya’ni: 1) an’anaviy o‘xshatishlar; 2) xususiy-muallif (favqulodda) o‘xshatishlari.

¹ Mahmudov N. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assimetriya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984.

Quyida Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida qo'llanilgan o'xshatishlarni tahlil etishga harakat qilamiz. Avvalo, dostonlar tilida qo'llangan an'anaviy o'xshatishlarga to'xtalamiz.

Baxshining "Jorxun maston" dostoni "Go'ro'g'li" siklidagi dostonlar sirasiga kirib, unda Nuralining ilk jasorati, sinalmagan yigit bilan do'st tutinib, chekkan jabr-sitamlari haqida so'z yuritiladi. Shubhasiz, boshqa dostonlarda bo'lgani singari "Jorxun Maston"da ham voqea-hodisalarni favqulodda bo'rttirish, qahramonlar jasorati, o'zaro kurashini oshirib ko'rsatish, voqelikni kitobxon va tinglovchiga yorqinroq gavdalantirish maqsadida baxshi badiiy tasvir vositasi sanalgan o'xshatishning turli ko'rinishlaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladi. "Oychinor" dostonida epik qahramon Oychinorning jasorati, o'zinigina emas, boshqa yurtdoshlarini ham dushman jabr-sitamlaridan ozod qilish yo'lidagi kurashi favqulodda kuchaytirib tasvirlanadi. Uning bir o'zi butun bir lashkar bilan bellashish qudratiga ega qilib tasvirlanadi. "Kelinoy yoki Norguloy" dostonida oilaviy-maishiy mavzu kuylansa-da, Norguloyning chiroyi, behad go'zalligi o'ta oshirib tasvirlanadi. Bunday o'rinlarda baxshi o'xshatishlarga murojaat qiladi va aytmoqchi bo'lgan fikrini, poetik qahramonining qiyofasini tinglovchi ko'zi o'ngida aniq va tiniq qilib tasvirlab beradi.

Ma'lumki, an'anaviy o'xshatishlar xalq jonli so'zlashuv nutqida keng qo'llanilib, ular o'zbek tili leksik qatlamidan o'ziga xos o'rin egallagan. Tilshunos M.Yo'ldoshev ta'kidicha esa, an'anaviy o'xshatishlar ko'p ishlatilaverib, o'z ohorini yo'qotgan, o'xshatish etalonlari tegishli tushunchalarning doimiy ifodachilariga aylanib qolganligi tufayli avvaldan bilingan, kutilgan tasviriy vosita sifatida o'z obrazlilik, emotsional-ekspressivligini kamaytirgan bo'ladi¹.

An'anaviy o'xshatishlar jonli so'zlashuv nutqida, shuningdek, tilimizning leksik qatlamlarida ko'plab uchraydi. Lekin, shunisi muhimki, an'anaviy o'xshatish etaloni (timsoli) o'xshatish asosi (belgi) ni ifodalashda poetik ramz darajasiga ko'tarilgan bo'ladi.

¹ Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. –Toshkent: Ma'naviyat, 2002. -54-58-b.

Dostonlarning epik qahramonlari nutqida yor, ya'ni go'zal ma'shuqaning yuzi (variantlari: jamol, husn) osmon jismlaridan oy (variantlari to'lin oy, o'n besh kunlik oy, o'n to'rt kunlik oy), o'simliklar (gul, lola) ga o'xshatilishi biz nazarda tutayotgan o'xshatishning eng faoli sanaladi.

Ilmiy manbalarda *ayiqday qo'pol, qo'yday yuvosh, tulkiday ayyor, paxtaday oq, toshday qattiq, eshakday befarosat* singari bir qator o'xshatishlar xalqimizning badiiy tasavvuri, tashqi olamni baholash mezonlari va boshqa holatlarga ko'ra qadimdan shakllanib, ishlatib kelingani uchun an'anaviy o'xshatishlarga kirishi ta'kidlanadi. Bu haqda tilshunos M.Yo'ldoshev quyidagilarni yozadi: "...Ular o'zbek xalqining badiiy tasavvurlari, madaniy-tarixiy tajribalari, umuman, tashqi olamni baholash mezonlari mahsuli o'laroq ancha ilgari shakllanib, uzoq davrlar mobaynida ishlatilib kelinadi. Bu o'xshatishlar og'izdan og'izga, asrdan asrga o'tib kelayotgani uchun ham ularning o'xshatish etalonlari o'z orginalliklarini allaqachon yo'qotib, qoliplashgan nutq parchalari bo'lib qolgan, an'anaviy tus olgan. Shuni hisobga olib, ular an'anaviy o'xshatishlar deb qaraladi.

An'anaviy o'xshatishlar ko'p ishlatilaverib, o'z ohorini yo'qotgan, o'xshatish etalonlari tegishli tushunchalarining doimiy ifodachilariga aylanib qolganligi tufayli avvaldan bilingan, kutilgan tasviriy vosita sifatida o'z obrazlilik, emotsional-eksprissivligini kamaytirgan bo'lishi tabiiy"¹.

Xalq epik asarlarida esa *yuz gul, lola va oyga; qosh kamonga, lab shakar va bolga, tish sadaf va durga* o'xshatilishiga ko'p guvoh bo'lamiz. Bunday o'xshatishlarni ham soha mutaxassislari an'anaviy o'xshatishlar qatoriga kiritadilar. Bundan tashqari, xalq epik asarlari tilida *osmondagi oy, egilgan yoy, bo'z qarchig'ay, qaddi shamshod, bo'taday, oyday, sherday, yo'lbarsday, alifday, xazon urgan gulday, toyday, qo'yday* kabi o'xshatishlar ko'p qo'llaniladi va ular ham an'anaviy o'xshatishlar qatorida sanaladi. Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida ham bunday o'xshatishlar ko'p qo'llanganiga guvoh bo'ldik. Misollar: *Oq o'toving oyday bo'lib, / Asovliging toyday bo'lib, / Yuvoshliging qo'yday bo'lib, / Sanamlar, suv ber ichayin. / Suv beraman gulday bo'lib, / Badanarim qorday*

¹ Yo'ldoshev M. Ko'rsatilgan manba.

bo'lib, / Gulga qo'ngan hurga o'xshab, / Vafodor, mana, suv ichkin (JM). // Muritining qaytishi / Isfahonning tig'iday, / Bo'riday bo'b tiklashi / Ajdarhoning ko'ziday (JM).

Bundan tashqari, xalq og'zaki poetik ijodi namunalarida mashuqaning yuzi oyga, qosh egilgan yoyga, ya'ni kamonga yoki uch kunlik oyga, qaddi-qomat shamshodga, sarvga, bo'z qarchig'ayga; tish dur va gavharga yoki sadafga; yorning o'zi gulga, tovgusga, bulbulga, jannatdagi hurga; ko'z yoshlari esa tabiat hodisalari sanalgan do'l va jalaga; epik qahramonlarning mardligi va shijoati yo'lbarsga, sherga o'xshatiladi. Bu singari o'xshatishlar ham an'anaviy o'xshatishlar sanalib, Qodir baxshi dostonlari tilida bu o'xshatishlarning aksariyat qismi qo'llanilgan. Misollar: *Osmonda sensan yorug' yulduzim, / Daryo bo'lsam. Suzadigan qunduzim (JM). // Nozlanib bog'ingda o'sgan gulingdan, / Bir bedovni yaxshi ko'rding ulingdan (JM).*

Ko'rinadiki, xalq jonli tilida farzand gulga o'xshatiladi. Qodir baxshi ham jonli tilimizda mavjud bo'lgan an'anaviy o'xshatishdan ustalik bilan foydalanib, farzand ota uchun qanday azizligini emotsional bir tarzda ifodalaydi.

Insonning badani qorga, marmarga va boshqa predmetlarga o'xshatiladi. Qodir baxshining "Jorxun maston" dostonida epik qahramon tilidan ma'shuqaning oppoq va go'zal badani qorga, u yashayotgan o'tov osmondagi oyga o'xshatadi va an'anaviy o'xshatishdan ustalik bilan foydalanadi: *Badanlaring qorday bo'lib, / Oq o'toving oyday bo'lib (JM). // Suv beraman gulday bo'lib, / Nozik belim qilday bo'lib (JM). // Badanlarim qorday yashnab, // Gulga qo'ngan hurga o'xshab.*

Ma'shuqa yosh va sho'x, har qanday yigitning gangita oluvchi xatti-harakatga ega. Ba'zan esa yumshab qoladi. Uning bu sho'xchan harakatlari asov toyga, yumshoq tabiatliligi esa qo'yga o'xshatiladi: *Asovliging toyday bo'lib, / Yuvoshliging qo'yday bo'lib (JM).*

Qodir baxshi Rahimovning dostonlarida qo'llanilgan an'anaviy o'xshatishlarda ekspressivlik, o'ziga xos individuallik, yangilik bo'yog'ini bera olganligini ta'kidlab o'tish joiz. Bu kabi o'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida, dialektal qonuniyatlarga asoslangan holda, asrlar davomida xalq dostonlari

tilini bezashda, epik tasvirning aniqligini va obrazlilikini ta'minlashda samarali xizmat qila olgan.

Noan'anaviy yoxud xususiy-muallif o'xshatishlar esa baxshining epik qahramonlar xatti-harakatiga munosabati, nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy tahayuli, badihago'ylik mahorati asosida xalq tilidan yuksak darajada foydalanish orqali yuzaga chiqadi. Bunday o'xshatishlar so'z san'atkorining epik repertuarida, nihoyat darajada kamyob, takrorlanmaydigan, o'ta original, ba'zida yagona va faqat baxshi dostonlari tilidagina uchraydi.

O'xshatishlar bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar ham xususiy-muallif o'xshatishlari atamasini ma'lum bir ijodkor qo'llagan, asarida keltirgan o'xshatishga nisbatan qo'llanishini ta'kidlaydilar.

Qodir baxshi dostonlarida noa'anaviy o'xshatishlardan ham ustalik bilan foydalanilgan. Ma'lumki, bilim turli narsa, voqea-hodisalarga o'xshatiladi. Masalan, xalqimizda ilm toshga o'yilgan naqsh, ya'ni gul deb o'xshatiladi. Baxshi shoir bu an'anaviy qo'llanishdan qochib, o'ziga xos yo'l tutadi. "Jorxun maston" dostonida bilim zar tuvakda o'stirilib, parvarishlanayotgan gulga o'xshatiladi. Zero chiroyli va go'zal gulgina zar tuvakda o'stirilishi mumkin: *Bilim degan **zar tuvakli gul** bo'lar, / Ilm guli uchun keldim, ustozim (JM).*

"Jorxun maston" dostoni epik qahramoni Nurali Jorxun mastonning aldoviga uchib ovga ketarkan, makr va hiyla, sehr orqali paydo qilingan bir gala g'ozga duch keladi. Bu g'ozlarning soxtakorligini bobosi Go'ro'g'lining G'iroti ham, otasi Avazning olg'ir qushi ham biladi. Nurali ularni har qancha qistamasin buyrug'ini bajarmaydi. Chorasiz qolgan, g'ozlar ko'zdan yo'qolib, uyiga ovsiz borishni or deb bilgan Nurali otasining olg'ir qushiga murojaat qiladi va qushning butun xislatlarini bir-bir tilga oladi: tumshug'i, gavdasi, qanoti, ovdagi xatti-harakati, ko'zi, panjasi o'ta mubolag'ali bir tarzda tavsiflanadi. Bunday mubolag'ali tasvirda noan'anaviy o'xshatishlardan ham foydalanadi: *Nor qushi, olg'ir qushi, / Olib bersang ne bo'lar. / Otam qushi, ol qushi, / Obkeb bersang ne bo'lar. / Panjadagi tirnog'ing, / Go'ro'g'li nayzasiday, / Qanotingning chiroyi, / Fasllar javzasiday. / O'ng qo'limda turishing, / Besh qarg'aning bojiday, / Ko'kdan pastga taylashing, /*

Bek Shodmonning o'ziday. / Ko'zingning o'tkirligi / Osmondagi yulduzday, / Tumshug'ing uzunligi / Bek otamning tig'iday. / Yozilganda qanoting / Bahorning bulutiday, / Ikki norcha oyog'ing / Ustaning po'latiday. / Qushni ko'rib quvishing / Tulki quvgan toziday, / Abjilliging jonivor / Daryoning qunduziday. / Kelib qushni topishing / Yerga tushgan yashinday, / O'ljani obkelishing / Shahar olgan qulunday. / Olayib ovsirashing / Ko'zi yongan arslonday, / Ko'zing suzib qarashing / Taxtga turgan sultonday (JM).

Matnlarda qo'llanilgan o'xshatishlarda o'xshatish subyekti bilan o'xshatish etaloni o'rtasidagi mutanosiblik odatdan tashqari. Shuning uchun ham ularning ko'pini Qodir baxshi epik tafakkuri natijasida qo'llangan noan'anaviy o'xshatishlar deyish mumkin. Qush panjasining tirnog'i Go'ro'g'lining nayzasiga, qanotining chiroyliligi fasllar javzasiga, ovchi qushning qo'lda turishi beshta qarg'aning bojiga, osmondan ov uchun sho'ng'ishi doston poetik qahramoni Shodmonga, qush tumshug'ining uzunligi Avazxonning tig'iga, qush qanotining yozilishi bahordagi bulutga, qush oyog'i ustaning po'latiga, qushlarni quvishi tulki quvayotgan toziga, abjirligi daryoning qunduziga, yerdagi qushni topishi yerga tushgan yashinga, o'ljani ovchiga keltirishi shahar olgan qulunga, ov (qushlar) ga olayib qarashi ko'zi yongan arslonga, ko'zini suzib qarashi taxtga o'tirgan sultonga o'xshatiladi. Baxshi bu favqulodda o'xshatishlarni doston matniga shunchaki bezovchi va go'zallashtiruvchi vosita sifatida keltirmagan. Bu o'xshatishlar badiiy-estetik ehtiyoj zarurati tufayli qo'llanilgani aniq. Tilshunos M.Yo'ldoshevning yozishicha, "Tasavvur qilish qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat va holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'z o'ngida gavdalantirish, tasvirni quruq emas, balki quyuk bo'yoqlar bilan amalga oshirishda ana shunday o'xshatishlar favqulodda muhim vositadir"¹.

Xalq dostonlari tilida qo'llanilgan o'xshatishlar qatnashgan matnlarni kuzatgan tilshunoslarimizning yozishlaricha, *bo'lib/bo'b, ko'rib, qarab* va boshqa

¹ Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sehri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. -60-b.

bir qator fe'llar o'xshatish ko'rsatkichlaridan keyin kelib, ish-harakatning jarayonini, holatini bildirishga xizmat qiladi.

Bo'Imoq fe'lida epik qahramonning biror xatti-harakati yoki qiyofasini ko'z-ko'zlash ottenkasi mavjud. Masalan: *Ikki zulfak nurday bo'lib, / O'zing uchar hurday bo'lib. // Badanlaring qorday bo'lib. / Oq o'toving oyday bo'lib. // Asovliging toyday bo'lib, / Yuvoishliging qo'yday bo'lib. // Suv beraman gulday bo'lib, // Nozik belim qilday bo'lib (JM).*

Yuqoridagi matnlardan ko'rinib turibdiki, o'xshatish ko'rsatkichini qabul qilgan so'zdan so'ng *bo'lib* fe'li qatnashgan va ish-harakatning jarayonini, holatini bildirish uchun xizmat qilgan. Bu holatni *bo'b, ko'rib, qarab, yashnab* fe'llari qatnashgan matnlarda ham shu holatni kuzatish mumkin: *Badanlarim qorday yashnab, / Gulga qo'ngan hurga o'xshab. // Har bir iyni qirday bo'b, / Ovsiragan sherday bo'b, / Yolg'iz o'zi ketib boradi, / Bir bo'sayam mingday bo'b. // Ot bo'ladi bir yigitning yo'ldoshi, / Farzand bo'lar orqa tovi, beldoshi, / Yomon so'z yurakka o'qday so'qilar, / Yaxshi so'z bo'ladi gavharning boshi (JM).*

Tilda fe'l so'z turkumining tasviriyl imkoniyatlari M.Sodiqovanning ishida tadqiq etilgan. Olima fe'lning tasviriyl imkoniyatlari behad kuchliligini ta'kidlaydi¹. Bu so'z turkumining tasviriyl imkoniyatlari boshqa olimlarning ishlarida ham o'rganilgan. Masalan, A.I.Yefimov shunday yozadi: "fe'llarning tasviriyl xususiyatlari qadim-qadimdan yozuvchilarning o'zini ham, badiiy asar tilini o'rganuvchi tadqiqotchilarni ham diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan"².

Ko'rinadiki, fe'l so'z turkumi badiiy matnda, shu jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalarida tasviriylilikni ifodalashda keng qo'llaniluvchi so'z turkumi sanaladi. Buni Qodir baxshi Rahimov dostonlari misolida ham ko'rish mumkin: *G'iro't oqsaganday bo'lib, o'qrayib iziga qaray berdi, Nuralining sonidan asta-asta tishlay berdi... // Bu qizlar so'zni eshitib, oldidan xabar bergan Nuraliligini bilib, har biri o'z kosasiga behush qiladigan dori solib, nozik tolday irg'alib, bari bir-bir bosib, mushki anbar hid sasib, kelayotir... // Achchiq yana toshdi tayladi, /*

¹ Sodiqova M. "Chiqmoq" fe'lining semantik-stilistik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti, 1989, -№2 (4). -60-62-betlar.

² Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. -113-bet.

Bu toshi ham tovday qulab keladi. // Alqissa, bek Avaz Soqidan duoni olib, G'irni silab-siypab qoldirib, yakka o'zi bo'tasidan ayrilgan nor tuyaday bo'zlab, Majnunni hezlab, aravaning izini olib, tov terakday irg'alib, so'rgali odam yo'q, ko'ringan giyo(h) dan Nuralini so'rab ketayotgani (JM).

Gap fe'l so'z turkumining matn tarkibidagi tasviriy imkoniyatlari haqida borar ekan, o'xshamoq fe'lidan iborat leksik-semantik birliklarning o'rni alohida ekanligini ta'kidlamok lozim. Bu borada M.Yo'ldoshev quyidagilarni yozadi: "Odatda bir predmet-holat boshqasiga muayyan bir belgiga ko'ra emas, balki butunicha, to'lasicha, aynan o'xshatilmoqchi bo'lsa, o'xshatish asosi bevosita ifodalanmaydi. Bunday hollarda o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari sifatida ham ko'pincha o'xshamoq fe'lidan foydalaniladi"¹.

Qodir baxshi tomonidan yaratilgan mana bu o'xshatishlar xalqonaligi, betakrorligi bilan alohida ajralib turadi: *Jamoling o'xshaydi osmonda oyga, / Qoshing kelishibdi egilgan yoyga, / Jasading o'xshaydi bo'z qarchig'ayga, Qarchig'ay changallim qaydan bo'lasan? // Jamoling mengzadim osmonda yoyga, / Qoshingni o'xshatdim egilgan yoyga. // Seni desam ko'nglim bo'shab, / Badanlarim qorday yashnab, / Gulga qo'ngan hurga o'xshab, / Vafodor, mana, suv ichgin (JM).*

Ko'rinib turibdiki, o'xshatish asosi bitta yoki ikki-uchta emas, balki yaxlit, umumiydir. Shuning uchun ham o'xshatish asosi alohida bir so'z bilan ifodalanmagan, ayni paytda o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi qo'shimchalar emas, balki o'xshamoq fe'lidan iborat leksik-semantik birlikdir. Bu birlikning eng asosiy vazifasi o'xshatishning yaxlitligi, umumiyligini ta'kidlab o'tishdan iboratdir. Bundan tashqari matnda o'xshamoq fe'lining mengzamoq, kelishmoq singari sinonimlari ham qo'llangan.

Tadqiqot davomida yana bir fikrni alohida ta'kidlash o'rinli deb bilamiz. O'xshamoq fe'lining leksik-semantik birliklari baxshi dostonlari tilida qo'llanishi ancha faol. Bu fe'l turli shakllarda qo'llanilgan. Jumladan, o'xshatib, o'xshaydi, o'xshar, o'xshatgan, o'xshaysan singari shakllar shular jumlasidandir.

¹ Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. -61-bet.

Qodir baxshi dostonlarida qo'llanilgan o'xshatishlarning aksariyatida o'xshatish asosi harakat-holatdan iborat, ya'ni fe'l turkumidagi so'zlar (ko'pincha, ularga bog'langan boshqa so'zlar bilan birgalikda) bilan ifodalanadi. Bunday bo'lishi tabiiy hol sanaladi. Chunki u yoki bu belgiga qaraganda, harakat-holatni ifodalash, ko'rsatish, butun o'ziga xosligi bilan tasvirlash murakkab. Albatta, bunda ham baxshi tomonidan tanlangan o'xshatish etalonining kutilmaganligi, yangiligi muhimdir. Qodir baxshining so'z san'atidan foydalanish mahorati shundan iboratki, ko'p hollarda harakatdagi yoki muayyan holatdagi o'xshatish etalonlarini tanlaydi. Bu harakat yoki holat ko'pincha sifatdash yoki sifatdash oboroti orqali ifodalangan va bu sifatdash yoki sifatdash oboroti bevosita o'xshatish etalonini ifodalaydigan bo'lakka aniqlovchi bo'lib keladi: *Bu so'zlarni eshitib, yigitlar nima deyarini bilmay, bilganlari ham gapini ayta olmay, bo'riday bo'lib jalanglab, to'shini yalang'ochlab, birdan urush qilmoqchi bo'lganday bo'lib turibdi. // Tovush tinganday bo'ldi, / Dushman ko'nganday bo'ldi, / O'ldimlashib jo'nadi, / Beklar yengganday bo'ldi. // Jo'nadi bedov hirkillab, / Abzali oyday yarqillab.../ Ketayotir dirkillab, / Oqar suvday sharqillab, / Qimtanadi joni-vor, / Olqorday bo'b dirkillab (JM) kabi.*

Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida shunday go'zal o'xshatishlar namunalari uchraydiki, ularda bir o'xshatish subyekti uchun birdan ortiq o'xshatish etaloni va o'xshatish asosi tanlangani kuzatiladi. Boshqacha qilib aytganda, muayyan bir narsa-hodisa yoki harakat-holatga o'xshatiladi. O'ta ziyraklik va badiiy did bilan tanlangan bunday etalonlar tasvir obyektini bir necha jihatdan xarakterlash imkonini beradi. Bunda, albatta, tasvir to'la, quyuq va ta'sirchan bo'ladi. Bunday o'xshatishlarda o'xshatish etalonlarining ko'p bo'lishini, ularning bir-birlariga ustlanishlarini hisobga olib, ularni "qavatlangan o'xshatishlar" deyish mumkin. Ba'zan baxshi dostonida xuddi yuqoridagiday "qavatlangan o'xshatishlar"da hatto o'xshatish asosining ham o'xshatish etaloni uchun ikkitadan bo'lishi kuzatiladi. Bunday hollarda emotsional-ekspressivlik yanada yuqori bo'lishi tabiiy.

Qodir baxshi Rahimov o'xshatishlarning o'xshatish etalonlari (timsollari) sifatida turli harakat-holatdagi xilma-xil predmetlar tanlangan:

1. O'xshatish etaloni sifatida epik qahramonning muayyan harakat yoki holati olingan: *Ikki zulfak nurday bo'lib, / O'zing uchar hurday bo'lib. // Ketayotir dirkillab / Oqar suvday sharqillab (JM).*

2. O'xshatish etaloni muayyan harakat yoki holatdagi hayvonlar, qushlar va hasharotlardan iborat: *Asovliging toyday bo'lib, / Yuvoshliging qo'yday bo'lib. // Qushni ko'rib quvishing / Tulki quvgan toziday, / Abjilliging jonivor / Daryoning qunduziday. / Kelib qushni topishing / Yerga tushgan yashinday, / O'ljani obkeli-shing / Shahar olgan qulunday. / Olayib ovsirashing / Ko'zi yongan arslonday. // Har bir iyni qirday bo'b, / Ovsiragan sherday bo'b (JM).*

3. O'xshatish etaloni muayyan harakat yoki holatdagi daraxt, yaproq, olma, gul kabi o'simliklar dunyosiga oid narsalar: *Suv beraman gulday bo'lib, / Nozik belim qilday bo'lib (JM). // Murtin qirqib olsa, / Tomga yopgan xariday (KN). Yuzi pishgan anorday, / Iyidlari minorday, Donaboyga bir salom (KN). // Olmaday so'ldirma gulday yuzingdi, / Ko'zlaringda selob yoshing tizildi (JM).*

4. O'xshatish etaloni muayyan harakat yoki holatdagi boshqa turli narsalar: *Badanlarim qorday yashnab, / Gulga qo'ngan hurga o'xshab. // Suv beraman gulday bo'lib, / Nozik belim qilday bo'lib (JM). // Boldirlaringga intiqman, / Tot-sam arining boliday. / Oyoqlaringning panjasi, / Qo'shoyoqlarning guliday (KN).*

O'xshatish subyekti (asos) dostonlar matnida ot, morfologik tabiatiga ko'ra, asosan, predmetlikni ifodalashga xizmat qiladi. Bu unsur (uzv) ot, otlashgan so'zlar, kishilik olmoshlari yoki shaxs va predmetlarni tavsiflovchi so'z birikmalari, ko'pincha otli va fe'lli birikmalar bilan ifodalanadi. O'xshatish subyekti (asos) ning leksik-semantik mazmuni baxshi dostonida xilma-xil ko'rinishlarga ega. Ular:

1. Epik qahramon (obraz) shaxsini bildiradi: *ota-ona, farzand, yor, ma'shuqa, oshiq kabilar.*

2. Epik qahramon portretiga aloqador tana a'zolarini bildiradi: *yuz, og'iz, tish, lab, soch, qo'l, qosh, xol kabilar.*

3. Epik qahramonning xulq-atvori va xususiyatlarini bildiradi: *yurishi, chiqishi, husni jamoli, kiprik qoqishi, ko'z suzishi kabilar.*

4. Epik tasvirga jalb etilgan turli xil predmetlarni bildiradi: *gullar, suv, saroy, qasr, ko'shk* va boshqalar.

O'xshatish etaloni Qodir baxshining barcha dostonlarida qo'llanilgan o'xshatishlarda muhim unsur sanaladi. U, asosan, doston matnida badiiy bo'yoqdorlik, obrazlilik, epik tasvirda aniqlik tug'dirish uchun xizmat qiladi. Bu unsurda, asosan, otlar, otlashgan so'zlar, so'z birikmalari bilan ifodalanadi. Biz o'rganayotgan dostonlarda qo'llanilgan o'xshatishlardagi o'xshatish etalonining leksik-semantik mazmuni rang-barang. Bu unsur uchun quyidagi obyektlar tanlanganini ko'ramiz:

1. Epik qahramonlarning shaxsiga nisbatan: *Farhod, Layli, Shirin, Majnun, sultonim, shohim* va boshqalar.

2. Jonivorlar nomi: *arslon, sher, yo'lbars, ot, kiyik, ilon, qoplon, qunduz, qobon, bo'ri, tulki, qunduz* va boshqalar.

3. Narsa va qurollar nomi: *yashin, qamchi, kamar, qilich* va boshqalar.

4. Qimmatbaho buyumlar: *po'lat, kumush, gavhar, marjon, zeb-ziynat, sadaf, dur* va boshqalar.

5. Qushlar: *qarchig'ay, to'rg'ay, bulbul, qirg'iy, burgut* va boshqalar.

6. Tabiat unsurlari: *suv, tog', qor, bog', gulzor, qir, tuproq, tepa* va boshqalar.

O'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari o'xshatish qurilmasidagi o'xshatish munosabatini shakllantiruvchi leksik, grammatik, stilistik, semantik elementlar yig'indisidan tashkil topuvchi unsur sanaladi. Qodir baxshi dostonlarida qo'llangan o'xshatishlarda bu unsur ikki xil birliklardan tashkil topgan:

a) morfologik vositalar;

b) morfologik-leksik vositalar.

Bu vositalar predmetni, uning belgisini, xususiyatlari, harakat va holatini o'xshatishda xizmat qiladi. O'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari o'xshatish konstruksiyasidagi yangi so'z hosil qilish, modallik, qo'shimcha ma'no ottenkasi berish, gap bo'lagi vazifasini bajarish kabi vazifalarni bajaradi.

Morfologik vositalarga *-day, -dayin, -dek, -dekkina, -din, -cha* affikslari hamda kabi, misli, xuddi, ham yordamchi soʻzlarini kiritish mumkin.

Morfologik-leksik vositalarga *-ga mengzar, -day boʻb, -ga oʻxshaydi, -ga oʻxshar, -ga mengzaydi, -day boʻlib, -dek boʻlib, -cha bor, -larcha bor, bir ...dir, -ga ... mos* kabilarni kiritish mumkin.

Oʻzbek tilida oʻxshatish hodisasini ifodalashda *-day, -dek, -simon, -ona, -cha, -larcha, -din* kabi affiksalar vositalar mavjudligi eʼtirof etiladi. Bu vositalar oʻxshatish etaloniga qoʻshilib, dostonlarda oʻxshatish qurulmasini hosil qiladi.

Qodir baxshi dostonlari boʻyicha kuzatishlarimiz asosida shuni aytish mumkinki, yuqorida koʻrsatilgan vositalardan *-day* affiksi matn tarkibida oʻxshatish munosabatini yuzaga chiqarishda eng sermahsul sanaladi. Bu vosita epik qahramonni biror narsaga, boshqa bir narsani yana boshqa bir narsaga, holatni harakatga, belgini biror narsa, holat, harakat yoki belgiga qiyoslash asosida oʻxshatadi.

Quyida oʻxshatish uzuvlaridan biri sanalgan oʻxshatish vositasi *-day* affiksining qoʻllanishi orqali yuzaga kelgan oʻxshatishning manbalari haqida fikr yuritishga harakat qilamiz.

1. Insonlar va epik qahramonlarning biror sifatiga oʻxshatiladi: *odamzodday, otamday, bek bobomday, Goʻroʻgʻliday, Avazday* kabi. Misollar: *Suv beraman gulday boʻlib, / Nozik belim qilday boʻlib (JM). // Oppoq siynangni koʻrganda, / Tohir Zuhrodan qochguday, / Ochsang kuylakning yoqasin, / Majnun Laylidan kechguday (KN).*

2. Qudratli hayvonlar va har xil jonivorlarga oʻxshatiladi: *sherday, ajdarhodday, ayiqday, yoʻlbarsday, norday, tuyaday, tulporday, Gʻirkoʻkday* kabi. Misollar: *Asovliging toyday boʻlib, / Yuvoshliging qoʻyday boʻlib. // Qushni koʻrib quvishing / Tulki quvgan toziday, / Abjilliging jonivor / Daryoning qunduziday. / Kelib qushni topishing / Yerga tushgan yashinday, / Oʻljani obkelishing / Shahar olgan qulunday. / Olayib ovsirashing / Koʻzi yongan arslonday. // Har bir iyni qirday boʻb, / Ovsiragan sherday boʻb (JM). // Oy Norguloyning yurishi, / Mas(t) boʻlib yurgan moyaday (KN).*

3. Har xil qushlar va mayda jonivorlarga o'xshatiladi: *tovusday, to'tiday, semurg'day, qushday, chivinday, chigirtkaday, qumursqaday, ilonday* kabilar. Misollar: *Jamoling o'xshaydi osmonda oyga, / Qoshing kelishibdi egilgan yoyga, / Jasading o'xshaydi bo'z qarchig'ayga, Qarchig'ay changallim qaydan bo'lasan? (JM) // O'tirishlaring to'rg'ayday, / Qomating tovus misoli (KN).*

4. Har xil epik makonlar va tabiat unsurlariga o'xshatiladi: *ðapëdaü, tovday, toshday, suvday, oyday, yulduzday, qishday, yashinday, shamolday, qirday, o'tday, olovday* kabilar. Misollar: *Qirg'in shunday bo'ladiki, / O'lik tog'day uyuladi. // Oqar suvday sharqillab, / Qizil qonlar to'kiladi. // Seni desam ko'nglim bo'shab, / Badanlarim qorday yashnab, / Gulga qo'ngan hurga o'xshab, / Vafo-dor, mana, suv ichgin. // Jaladay qib qamchi berib, Bir qizdan kosani oldi (JM).*

5. Uy hayvonlari, o'simliklar va daraxtlarning biror qismlariga o'xshatila-di: *qo'yday, otday, itday, gulday, choyday, olmaday, qizil gulday, yaprog'day, tariqday, guruchday, bog'day* kabilar. Misollar: *Asovliging toyday bo'lib, / Yuvoshliging qo'yday bo'lib. // Qushni ko'rib quvishing / Tulki quvgan toziday, / Abjilliging jonivor/ Daryoning qunduziday. / Kelib qushni topishing / Yerga tushgan yashinday, / O'ljani obkelishing / Shahar olgan qulunday. / Olayib ovsirashing / Ko'zi yongan arslonday.// Har bir iyni qirday bo'b, / Ovsiragan sherday bo'b. // Suv beraman gulday bo'lib, / Nozik belim qilday bo'lib (JM).*

6. Har xil holat va vaziyatlarga o'xshatish: *g'ayratiday, quralayday, bol-day, zilday, o'lguday, tarkashday, mushtday, moxovday, qanorday* kabilar. Misollar: *Nuraliga mushtday boshim sadag'a, / O'lsam mayli, omon-eson ketkir-sam (JM). // Boldirlaringga intiqman, / Totsam arining boliday. / Oyoqlaringning panjasi, / Qo'shoyoqlarning guliday (KN).*

7. Qimmatbaho jismlar va qurol-aslahalarga o'xshatiladi: *durday, sadafday, oltinday, kumushday, yoyday, oqtoshday, po'latday* kabilar. Misollar: *Ikki parcha oyog'ing, Ustaning po'latiday (JM). // Qoshginang yoyday egilgan, / Yoilar orqada qolgudayo (KN).*

Xalq dostonlari tilida qo'llangan gul leksemasi, ya'ni gul o'simligiga o'xshatish hodisasida -day yordamida yasalgan so'zlarning qo'llanishi ancha faol.

–day бошқа tushunchalarni ifodalovchi leksemalarda birikib kelgan: *Asovliging toyday bo‘lib, / Yuvoshliging qo‘yday bo‘lib. // Qushni ko‘rib quvishing / Tulki quvgan toziday, / Abjilliging jonivor / Daryoning qunduziday. / Kelib qushni topishing / Yerga tushgan yashinday, / O‘ljani obkelishing / Shahar olgan qulunday. / Olayib ovsirashing / Ko‘zi yongan arslonday. // Har bir iyni qirday bo‘b, / Ovsiragan sherday bo‘b. // Suv beraman gulday bo‘lib, / Nozik belim qilday bo‘lib kabilar (JM).*

Baxshi dostoni matnida ayrim o‘rinlarda gulday o‘rniga olmaday so‘zi sinonim sifatida qo‘llanilgani yoki har ikkalasining ham matn tarkibida kelishini kuzatish mumkin. Ularda yuqorida ta’kidlaganimizdek, bir qancha ma’nolar o‘z ifodasini topadi: *Olmaday so‘ldirma gulday yuzingdi, / Ko‘zlaringda selob yoshing tizildi (JM).*

Qodir baxshi Rahimov o‘z dostonlari tilida o‘xshatishlarning butun lisoniy-badiiy imkoniyatlarini to‘liq ishga sola bilgan, xalq tilining zargari va ulkan so‘z san’atkori sifatida yaratgan o‘xshatishlari kuchli obrazlilik, so‘z san’atidan foydalanish mahorati o‘zining betakrorligi bilan ajralib turadi.

3.2. Baxshining metaforadan foydalanish mahorati

Tilshunoslikda “narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishi” ga metafora deyiladi. Shuni ta’kidlash joizki, ko‘chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri metaforadir. Adabiyotshunoslikda metafora “istiora” atamasi bilan nomlanadi.

Metaforaga bag‘ishlangan ishlarda uning ikki turi farqlanadi: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa sifatida qaraladi. “Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo‘yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi”¹ Faqatgina ma’lum bir so‘zning ma’no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash

¹ Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatishlar. –Toshkent, 1976. –B.13.

uchun xizmat qiladi. Masalan: *odamning qo‘log‘i – qozonning qulog‘i, odamning ko‘zi – uzukning ko‘zi, ko‘ylakning etagi – tog‘ning etagi kabi.*

Xususiyy-muallif metaforalari esa ijodkorning estetik maqsadi, ya‘ni borliqni subyektiv munosabatini qo‘shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo‘yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg‘ularini ta’sirchan, yorqin bo‘yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi.

Xususiyy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma’no mavjud bo‘ladi. Bu haqda M.Mamadaliyevaning ishida quyidagi fikrlar bayon etilgan: “Metafora orqali ma’no ko‘chishida konnotativ ma’no yorqinroq aks etadi. Masalan, *ot, eshak, qo‘y, it, bo‘ri, tulki, yo‘lbars, boyo‘g‘li, musicha, burgut, lochin, qaldirg‘och, bulbul* kabi hayvon va qushlarning nomlari bo‘lgan leksemalar mavjudki, bu so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari, ko‘chma ma’noda juda keng qo‘llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo‘yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko‘zi o‘tkirliги kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko‘chiriladi, natijada konnotativ ma’no yuzaga keladi hamda matnning ta’sirchanligi oshadi”¹.

Bizga ma’lumki metafora bilan o‘xshatish konstruksiyaning o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. Umuman olganda, metafora bilan o‘xshatishni farqlash kerak. Bu haqida tilshunoslarimiz o‘zlarining fikrlarini aytib o‘tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o‘tiladi:

1. O‘xshatishda so‘zlar o‘z ma’nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so‘zlar doimo ko‘chma ma’noda bo‘ladi.

2. O‘xshatishda ikki komponent - o‘xshatiluvchi obyekt va o‘xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo‘ladi.

3. O‘xshatishlarda kengayish imkoniyati ko‘p, bir gap hatto abzats darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so‘z yoki so‘z birikmasidan iborat bo‘ladi.

¹ Mamadaliyeva M. O‘zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti. –Filol. fan. nom. ...dis. –Toshkent. –B. 12.

4. O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi: *-dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, o'xshamoq* va boshqalar. Metaforalarda bunday ko'rsatkichlar bo'lmaydi.

Buni quyidagi misoldan ham ko'rish mumkin: *Salim ayiqday beso'naqay odam*. O'xshatish konstruksiya. Bunda Salim – o'xshatish subyeksi, ayiq-o'xshatish etaloni, beso'naqay - o'xshatish asosi, *-day* – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. *Salim – ayiq*. Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi (qaysi xususiyati o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalanmagan. Voy, *ayiqi-yey...* (Salimga nisbatan ishlatilmoqda) Bu metafora hisoblanadi. Chunki Karimning beso'naqayligi obrazli tarzda ifodalanyapti, butunlay qayta nomlanyapti.

O'zbek tilshunosligida metaforalar mazmunii jihatdan quyidagi uch turga ajratiladi: 1) odatii metaforalar; 2) jonlantirish; 3) sinestetik metaforalar.

Xalq poetik ijodi namunalarida ma'no ko'chishning bu turidan qahramonlar tavsifini yaratishda, baxshi-shoirlarning o'z persanajlariga bo'lgan subyektiv munosabatini ifodalashda keng foydalaniladi. Poetik qahramon ijobii xususiyatga ega bo'lsa, ularning ta'rif-tavsifini keltirishda qizlar uchun *yulduz, oy, qunduz, bahor, to'ti, qumri, tovus, oy* va boshqa bir qator leksemalar metaforik tarzda qo'llanilsa, yigitlar ta'rif-tavsifini berishda *sher, arslon, bo'ri, burgut, qarchig'ay, lochin* singari leksemalar ishlatilganini ko'ramiz.

Qodir Rahimov ijodii repertuari bilan tanishganda ham shu holatlarning guvohi bo'ldik. Baxshining "Kelinoy yoki Norguloy" dostoni epik qahramon Norguloyning ta'rii G'ulom cho'pon tomonidan kuylanar ekan unga nisbatan bir qator leksemalar metaforik shaklda qo'llanganini ko'ramiz: *Chanqovuzni Norgul sarvinoz chaldi. // Chanqovuzni tovus chaldi, oy chaldi. // Chanqovuzni yulduz chaldi, noz chaldi, Chanqovuzni to'ti chaldi, gul chaldi, // Chanqovuzni bahor chaldi, par chaldi, // G'ulom aytar jonon chaldi, yor chaldi (KN)*. Keltirilgan misoldagi tovus, oy, yulduz, noz, to'ti, gul, bahor, par, jonon, yor so'zlari metaforik ma'noga ega bo'lib, ularning bari dostonning poetik qahramoni Norguloyni anglatadi, unga ishora qiladi. Ma'lumki, tovus, oy, yulduz, to'ti, gul,

bahor, jonon, yor singari metaforik qo‘llanishlar badiiy adabiyotda ham, xalq poetik ijodida ham juda qadimdan bor. Bunga manbalardan minglab misol keltirish mumkin. Baxshining ushbu dostonida Norguloyni atash uchun bundan-da ko‘proq leksemalar metaforik qo‘llanilgan: *Husningni cho‘ponlar oyga o‘xshatdi, / Botirlar or uchun otni taylabdi. / Chanqovuz chalishing meni qaqshatdi, / Sanamjon, aylandim chalgan qo‘lingdan (KN). // Oypari chiqdi kiyinib, / Kiyinganiga so‘yi-nib, / Ikki shona kokili, / Ko‘kragiga tiyinib, / Ketayotir Oypari, / Hamma qizlar-dan ilgari (KN).*

Baxshi-shoir salbiy persanajlar xususida so‘z yuritganda cho‘chqa, qobon, hakka singari hayvon va qushlar nomini metaforik tarzda qo‘llab, ularga o‘zining subyektiv munosabatini bildiradi. Masalan, quyidagi matnda *bulbul* leksemasi Norguloyga, hakka leksemasi esa Norguloyni xotinlari ustiga xotin qilib olmoqchi bo‘lgan Ermatboyga nisbatan metaforik qo‘llanilgan: *Qobog‘i qirday uyulib, / Pul uchun mushti tuyulib, / Yuzida qilcha mehr yo‘q, / Ko‘ziga qonlar quyulib, / Bulbulga hakka jo‘nadi, Xudoyam bezor jo‘nadi (KN). Boshqa misol: Ko‘ring endi Omondi, / Qo‘rqitadi tumandi, / Zarbi yerga ag‘darar, Oqtovdagi qobondi (KN). Qobon leksemasi bilan muayyan shaxs nazarda tutilgan va metaforik ma’no hosil qilingan.*

Metaforik qo‘llanishlar baxshining “Jorxun maston” va “Oychinor” dostonlarida ham ko‘p uchraydi. Masalan “Jorxun maston” dostonidagi mana bu qo‘llanishlarga e’tibor beraylik. Go‘ro‘g‘libek asrga tushib qolgan Nurali va Avaz uchun o‘ch olish maqsadida Quldus shahriga yurish qiladi va o‘z maqsadini shunday ifodalaydi: *Qayg‘u tushsa qora tovlar buzilar, / Jabr bo‘lsa jona yerlar qazilar, / Loyday bo‘lib yuraklarim ezilar, / Ham norimdan, ham norchamdan ayrildim. // Norim uchun qobog‘imni uyayin, / Bulutlar qip-qizil qonga bo‘yalsin, / Norcham uchun qulochimni yoyayin, / Tovning boshi qorday bo‘lib erisin (JM)* Keltirilgan matndagi nor va norcha leksemalari o‘z ma’nosida emas, balki ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Nor leksemasi orqali Avaz nazarda tutilgan bo‘lsa, norcha leksemasi orqali uning o‘g‘li Nurali nazarda tutilgan. Demak baxshi nor (tuya) va norcha (bo‘taloq) leksemalarini metaforik qo‘llab, emotsionallikni yarata olgan.

Qodir baxshi metaforaning go‘zal namunalarini yaratgan iste’dodli san’atkor sanaladi. “Jorxun maston” dostoni epik qahramonlari Nurali va Avazning dushman qo‘lida asir bo‘lib qolganini bilgan Gulinor bobosiga bu xabarni quyidagi metaforik birlik orqali bayon qiladi: *Qarchig‘ay bolasi o‘tga tushibdi, / Bo‘z qarchig‘ay o‘tga o‘zin otibdi, / Oy bilan kun birga-birga botibdi, / Buni ko‘rib bo‘sag‘angda yig‘layman (JM)*. Matndan ko‘rinib turibdiki, qarchig‘ay bolasi va bo‘z qarchig‘ay birikmalari ko‘chma ma’noda, metaforik shaklda qo‘llanilgan. Qarchig‘ay bolasi – Nurali, bo‘z qarchig‘ay – Avaz. Bunday xulosa chiqarishimizga mantiqiy asos bor. Ovga ketgan Nurali Jorxun maston makri tufayli zindonband bo‘ladi. Bu xabar G‘irot orqali Chambilga yetgach, Avaz o‘g‘lini qutqazishga jo‘naydi va u ham dushman qo‘liga tushib qoladi. Bundan tashqari, birliklar orasidagi darajalanish ham ularning ota-o‘gil nazarga tutilgani xususida xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Keltirilgan matnda oy, kun leksemalari ham qo‘llangan bo‘lib, ular ham metaforik ma’noga ega. Baxshi birinchi oy leksemasini qo‘llab, Nuralini ifodalagan bo‘lsa, keyin quyosh leksemasi qo‘llanilib, Avaz nazarda tutilgan. Shu orqali baxshi emotsionallik va eksprissivlikni ta’minlay olgan.

Yuqorida keltirilgan dalillar asosida aytish mumkinki, Qodir baxshi Rahimov poetik ijodida metaforik birliklar keng ishlatilgan bo‘lib, baxshi shoir ko‘proq xususiy-muallif metaforalardan foydalangani kuzatiladi. Umuman olganda baxshi dostonlari tilida qo‘llanilgan metaforalar xalq ijodi poetik tilining emotsionalligi va eksprissivligini ta’minlash uchun xizmat qilgan.

3.3. Baxshining sinonim, omonim va antonimlardan foydalanish mahorati

Sinonimlar tilning lug‘aviy jihatdan boylik darajasini ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos vositadir. Tilda sinonimlarning ko‘p bo‘lishi tilning estetik vazifasini to‘liq bajara olishini osonlashtiradi.

O‘zbek tili sinonimlarga juda boy tillardan sanaladi. Yozma adabiyotda bo‘lgani singari og‘zaki adabiyotda ham baxshi-ijodkorlar tilimizdagi bu so‘zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan muayyan so‘zni topib o‘z

dostonlarida qo‘llaydilar. Bunday qo‘llanish orqali epik qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko‘rsatib beradilar.

Tilshunoslikda sinonimlikning uch turi farqlanadi: 1) leksik sinonimlar; 2) frazeologik sinonimlar; 3) leksik-frazeologik sinonimlar.

Leksik sinonimlardan bir necha maqsadlarda foydalaniladi:

Til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag‘alligi va rangsizligidan qochish uchun: *Otga yo‘l bermaydi tog‘ning o‘rlari, / Jabr qilsa chiqar bedov terlari (KN). // Zo‘rning molini olmanglar dedim, ko‘nmadinglar... / “Ey pahlavon, mening otimni Sherdonboy deydi, o‘zingga xudo insof bersin, bola-chaqam bor” (KN). // ...Oydin ko‘liga qush solsak, o‘ljaga ustozlarimizni, mullalarni bir ziyofat qilsak, elga mergan bo‘lib tanilsak. // Uch kungacha domullam berdi javob, Oydin ko‘ldan so‘na-suqsur ovlayman (JM).*

Tasvir obyektiga e‘tiborni jalb qilish uchun: *Xizimatinga yana tila berayin, / Endi ketma manzilimdan, xonamdan (KN). // Dobildiyo, dobildi, / Dobilga qo‘ylar jobildi, / Shukuralining To‘risi, / O‘rli – qirli chobildi (KN). // Ot bo‘ladi bir yigitning yo‘ldoshi, / Farzand bo‘lar orqa tovi, beldoshi (JM). // Bilganga bu dunyo bebaho, kengdir, / Saboq olmoq uchun keldim, ustozim (JM).*

Ijobiy belgining darajama-daraja ortib borishini aniq ifodalash uchun: *Bu so‘zni barcha donolar, jamiki fozilu fuzalolar eshitib, boshini xam qilib, nima dernil bilmadi (JM). // Avaz Soqi bilan G‘irotni silab-siypab qarayotir (JM).*

Salbiy belgining kuchayib borishini ifodalash uchun: *Bu qanday falokatdir, bilmadim, / Yoshligimda jabr ko‘rdim, naylayin. / Bu qandayin menga ofat, bilmadim, / Yolg‘iz boshga kulfat ko‘rdim, naylayin, Tanda armon qolarmikan, xudoyim (JM).*

Kontekstual sinonimlar. Badiiy adabiyotda bo‘lgani singari xalq poetik ijodida ham san’atkor baxshilar tilda avvaldan mavjud bo‘lgan sinonim so‘zlardan foydalanib qolmay, badiiy tasvir ehtiyojiga ko‘ra sinonim bo‘lmagan so‘zlarni ham shunday qo‘llaydilarki, bu so‘zlar ham matnda xuddi sinonim so‘zlar kabi idrok etiladi. Masalan: *Ichgan suving bekning uli, / Ham qizligim, ham bahorim, / Yoshlikda oqqan nahorim, / Bekning uli, keb suv ichkin (JM).* “Jorxun maston”

dostonidan olingan bu matnda *qizligim, bahorim, nahorim* soʻzlari sinonim emas. Lekin muallif kontekstda ularni sinonim sifatida qoʻllagani koʻrinib turibdi.

“Jorxun maston” dostonidan olingan yana bir matnni tahlilga tortamiz: *Oʻzbek, turkman xizmatkori, / Davralarning sohibkori, / Sozandasi, gul bahori, / Davra obodi, xush endi (JM, 81)*. Ushbu xoʻshlashuv soʻzi dostonning epik qahramoni Avazga tegishli boʻlib, u oʻgʻli Nuralini qutqazish uchun joʻnash oldidan Soqiga qarab shu soʻzlarni aytgan. Demak, xoʻshlashuv jumlasida keltirilgan birliklarning koʻpchiligi Soqining sifat-xususiyatlarini ifodalaydi va kontekstdagina sinonimik munosabat hosil qila oladi. Quyidagi misolni ham koʻrib chiqamiz: *Borib otga osildi, / Qurib ketgan madori, / Endi qayga ketdikan, / Yurakdoshi, padari (OCH)*. Koʻrinib turibdiki, yurakdosh va padar soʻzlari aslida sinonim emas. Baxshi bu leksemlarni yonma-yon qoʻllab, kontekstual sinonimlikni yaratgan.

Frazeologik sinonimlar. Xalq dostonlarida hikoya qilinayotgan voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon koʻzi oʻngida aniq va toʻla gavdalandirishda frazeologik iboralar sinonimiyasidan ham keng foydalaniladi. Tilimizda *toqati toq boʻlmoq – sabr kosasi toʻlmoq, burni koʻtarilmoq – dimogʻi shishmoq, yaxshi koʻrmoq – koʻngil bermoq, ikki oyogʻini bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, ogʻziga tolqon solmoq – mum tishlamoq* kabi sinonimik iboralar keng qoʻllaniladi.

“Jorxun maston” dostoni tilida bir qator iboralar qoʻllangan boʻlib, baxshi ular orqali epik qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikir-chikirigacha koʻrsatib tasvirlashga harakat qilgan: *Qaygʻu tushsa qora tovlar buzilar, Jabr boʻlsa jona yerlar buzilar, / Loyday boʻlib yuraklarim ezilar, / Ham norimdan, ham norchamdan ayrildim (JM)*.

Oʻzbek tilida leksik-frazeologik sinonimiya hodisasi mavjud boʻlib, baxshi dostonlari matnida unga ham oʻnlab misollar topish mumkin.

Baxshi dostonlari tilida omonim soʻzlardan ham keng foydalanilganini koʻramiz. Maʼlumki, shakli bir xil, maʼnolari turlicha boʻlgan soʻzlarga nisbatan omonim atamasi qoʻllaniladi. Badiiy adabiyotda shakldosh soʻzlarni qoʻllash orqali tajnis sanʼati yaratiladi.

Xalq dostonlari tilida qo‘llangan omonimlar orqali baxshi-shoirlar bir shakl bilan turlicha ma’nolarni ifodalashga harakat qilganlar. Qodir baxshi qo‘llagan omonimlar haqida ham shunday deyish mumkin.

Olma leksemasi omonimik munosabatni hosil qiladi. Leksemaning birinchi ma’nosi “Atirgullilar oilasiga mansub ko‘p yillik mevali daraxt hamda shu daraxt mevasi” ma’nolarini anglatga, uning ikkinchi ma’nosi buyruq fe’lining bo‘lishsiz shaklidir. Qodir baxshi dostonlarida ana shu ma’nolarda bu leksema qo‘llangan: *Dehqonsiz, deb ekdim olma, / Kelib ushla, lekin tolma, / Meni de boshqani olma, Sevarim, mana suv ichgin (JM, 68).*

Qatag‘on leksemasi ham shakldoshlik xususiyatiga ega. Leksema “taqiq, man”, “o‘zbek urug‘laridan birining nomi” ma’nolarini bildiradi. Qodir baxshining “Kelinoy yoki Norguloy” dostonida ushbu leksemaning qipchoq shevalarida qo‘llanishda bo‘lgan boshqa bir ma’noda qo‘llanganini ko‘ramiz: *Otga tashlasang qatag‘on, / Qatag‘onli ot ketahon (KN).* Misoldan ko‘rinib turibdiki, qatag‘on leksemasi doston matnida qandaydir o‘simlik nomi sifatida qo‘llangan.

Ma’lumki, so‘zlar tarkibidagi bir fonemaning o‘zgachaligi ham adabiyotlarda omonimiyaning bir turi (omofon) sifatida qaraladi. Baxshining “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni tilida shunday qo‘llanish mavjud: *Qarshilar bilan G‘uzora, / Borguncha olti guzara (KN).*

Antonim so‘zlarga nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta’sirchanligini ta’minlashda qulay vositalardan biri sifatida qaraladi. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Antonim so‘zlarni qo‘llash orqali tazod san’ati yaratilgan. Bu san’at mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod va takofu deb ham ataladi. Bundan tashqari xorijiy adabiyotlarda bu san’at antiteza deb yuritiladi.

Xalq baxshilari zid ma’noli so‘zlarni yonma-yon qo‘llab, tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlarni ziddiyatda ko‘rsatganlar. Antonimlarga bag‘ishlangan ishlarda lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma’noli so‘zlar farqlanadi. Baxshi dostonlarida lisoniy antonimlardan keng foydalanilgan: *Yaxshi farzand el baxtiga tug‘ilar, / Yomon tug‘ilganda xalqi bo‘g‘ilar (JM).* // *O‘qimagan odam nodonga*

tengdir, / Saboq olmoq uchun keldim ustozim. / Bilganga bu dunyo bebaho, kengdir, / Saboq olmoq uchun keldim, ustozim (JM). // Yomon tili chilladagi qor dedim, / Yaxshi tili xazinada zar dedim (JM).

Taniqli ijodkorlar epik qahramonlar ruhiyatidagi kontrastlikni boʻrttirib tasvirlash maqsadida muayyan bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha soʻzni boshqa bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha soʻzga birdaniga zidlantiradilar. Kontekstual antonimlardan asardagi tasvirning taʼsirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi. Baxshi dostonlarida ham kontekstual antonimlar qoʻllangan: *Dushman yoʻldan boʻlsa esh dema, Devonani koʻrsang mendan pas(t) dema (KN)*. Matnda keltirilgan dushman va esh leksemalari lugʻaviy jihatdan bir-biriga zid emas. Lekin kontekstda ular oʻzaro zidlikni hosil qilgan.

BOB BOʻYICHA XULOSA

1. Qodir baxshi Rahimovning dostonlarida qoʻllanilgan anʼanaviy oʻxshatishlarda ekspressivlik, oʻziga xos individuallik, yangilik boʻyogʻini bera olganligini taʼkidlab oʻtish joiz. Bu kabi oʻxshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida, dialektal qonuniyatlarga asoslangan holda, asrlar davomida xalq dostonlari tilini bezashda, epik tasvirning aniqligini va obrazlilikini taʼminlashda samarali xizmat qila olgan.

2. Noanʼanaviy yoxud xususiy-muallif oʻxshatishlar esa baxshining epik qahramonlar xatti-harakatiga munosabati, nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy tahayuli, badihagoʻylik mahorati asosida xalq tilidan yuksak darajada foydalanish orqali yuzaga chiqadi. Bunday oʻxshatishlar soʻz sanʼatkorining epik repertuarida nihoyat darajada kamyob, takrorlanmaydigan, oʻta original, baʼzida yagona va faqat baxshi dostonlari tilidagina uchraydi.

3. Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida shunday goʻzal oʻxshatishlar namunalari uchraydiki, ularda bir oʻxshatish subyekti uchun birdan ortiq oʻxshatish etaloni va oʻxshatish asosi tanlangani kuzatiladi. Boshqacha qilib aytganda, muayyan bir narsa-hodisa yoki harakat-holatga oʻxshatiladi. Oʻta ziyraklik va badiiy did bilan tanlangan bunday etalonlar tasvir obyektini bir necha jihatdan xarakterlash imkonini beradi. Bunda, albatta, tasvir toʻla, quyuq va taʼsirchan

bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlarda o‘xshatish etalonlarining ko‘p bo‘lishini, ularning bir-birlariga ustlanishlarini hisobga olib, ularni “qavatlangan o‘xshatishlar” deyish mumkin.

4. Qodir baxshi Rahimov poetik ijodida metaforik birliklar keng ishlatilgan bo‘lib, baxshi shoir ko‘proq xususiy-muallif metaforalardan foydalangani kuzatiladi. Umuman olganda baxshi dostonlari tilida qo‘llanilgan metaforalar xalq ijodi poetik tilining emotsionalligi va eksprissivligini ta‘minlash uchun xizmat qilgan.

5. Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta‘kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Takrorlar nutqning ta‘sirchanligini oshiruvchi vositadir. Qodir baxshi Rahimov dostonlari matnida takrorlarning turli ko‘rinishlari qo‘llanilgan. Baxshi o‘z dostonlari matnida takrorlarni qo‘llash orqali ohangdorlik, emotsionallik, ifodalilik va ta‘sirchanlikni ta‘minlay olgan.

6. O‘zbek tili sinonimlarga juda boy tillardan sanaladi. Yozma adabiyotda bo‘lgani singari og‘zaki adabiyotda ham baxshi-ijodkorlar tilimizdagi bu so‘zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan muayyan so‘zni topib o‘z dostonlarida qo‘llaydilar. Bunday qo‘llanish orqali epik qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko‘rsatib beradilar.

7. Xalq dostonlari tilida qo‘llangan omonimlar orqali baxshi shoirlar bir shakl bilan turlicha ma’nolarni ifodalashga harakat qilganlar. Qodir baxshi qo‘llagan omonimlar haqida ham shunday deyish mumkin.

8. Xalq baxshilari zid ma’noli so‘zlarni yonma-yon qo‘llab, tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlarni ziddiyatda ko‘rsatganlar. Antonimlarga bag‘ishlangan ishlarda lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma’noli so‘zlar farqlanadi. Baxshi dostonlarida lisoniy va kontekstual antonimlardan keng foydalanilgan.

UMUMIY XULOSA

1. O‘zbek tilshunosligida badiiy asarlar yoki folklor namunalari tilini leksik-semantik, lingvostilistik va lingvopoetik yo‘nalishlarda tadqiq etishga bag‘ishlangan, ulardan umumnazariy xulosalar chiqariladigan, ayni chog‘da, jiddiy va keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar yaratilishi lozim. Bu esa tilshunoslarimiz oldiga katta vazifalarni yuklaydi.

2. Xalq dostonlarining lisoniy xususiyatlarini keng qamrovda, umuman, doston janrining ichki guruhlariga mansub mavjud epik namunalari, qolaversa, hozirgacha chop etilgan dostonlar matnining leksik-semantik, lingvostilistik va lingvopoetik tabiatining o‘rganilish holati hozirgi vaqtda talab darajasida emas. “Alpomish”, “Ravshan”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Xirmondali” va “Qirq minglar” kabi dostonlarining leksikasi hamda funksional-uslubiy xususiyatlari, hamda “Shayboniyxon” tarixiy dostoni leksikasiga bag‘ishlangan ishlar bundan mustasno.

3. O‘zbek xalq dostonlarining lisoniy xususiyatlari tarixiy davriylik nuqtai nazardan ham qoniqarli darajada ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan emas. Fikrimizcha, xalq dostonlarining mumtoz namunalari leksik tarkibidagi o‘z va o‘zlashgan qatlamlarning qo‘llanish darajasi, har bir dostonlar tiliga xoslangan so‘zlarning chastotasi va leksikografik manbalari ham aniqlanishi va alohida o‘rganilishi, so‘ngra umumlashtirilishi lozim.

4. Xalq dostonlarini maroq bilan kuylagan ijrochilar - baxshilarning epik repertuaridagi o‘ziga xos individual uslubini aniqlashni ko‘zda tutadigan, quvvai hofizasidagi so‘zlarning boyligini va miqdorini shartli bo‘lsa-da aniqlab, umumlashtirib beradigan, hech bo‘lmasa, eng yuqori, o‘rtacha va past darajada qo‘llangan so‘zlarning chastotasini ko‘rsatadigan tadqiqotlar, shuningdek, so‘zlik, alfavitli chastotali, ters (chappa) va izohli lug‘atlar yaratilmog‘i shart.

5. Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida xalqimizning muayyan turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy holati, xatti-harakatlari, rasm-rusmlari, urf-odatlari, doston qahramonlari nomlari, voqealar kechgan joy

nomlari o'z ifodasini topgan. Qodir baxshi biror dostonni kuylar ekan, doston voqeligini, ya'ni epik syujetni bayon qilish jarayonida o'zbek tilining boy xazinasidan foydalanadi. Baxshi dostonlari tilida qo'llanilgan o'zbek tili leksikasining turli mavzuviiy guruhlariga kiruvchi so'z va boshqa til birliklaridan ma'lum bir maqsadda samarali foydalana olgan.

6. Baxshi dostonlari tilida qo'llanilgan leksik birliklar quyidagi mavzuviiy guruhlariga ajratib o'rganildi: 1) inson va uning tana a'zolarini ifodalovchi leksemalar; 2) kiyim-kechak nomlarini bildiruvchi leksemalar; 3) hayvonlar, jonivorlar va qushlar nomlarini bildiruvchi birliklar; 4) qavm-qarindoshlikni ifodalovchi leksemalar; 5) ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni anglatuvchi so'zlar; 6) shaxs (epik qahramon) larni ifodalovchi nomlar; 7) kasb-hunar nomlarini bildiruvchi birliklar; 8) o'simlik va daraxtlar nomlarini bildiruvchi birliklar; 9) o'tovsozlikka oid nomlar; 10) o'rin-joyini ifodalovchi nomlar; 11) ot va uning abzallari nomini bildiruvchi leksemalar.

7. Baxshi dostonlari tilida onomastik birliklar ham keng qo'llanilgan bo'lib, ularning nomlarini alohida tadqiq etish ehtiyoji bor. Ishda onomastik qatlamga kiruvchi antroponimlar, oronimlar, oykonimlar va gidronimlar alohida tadqiq etildi. Ularning dostonlar tilida tutgan o'rni, qaysi til birligi ekanligi (geneologik qatlamlari), leksik-semantik xususiyatlari o'rganildi.

8. O'zbek tilshunosligi fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri - xalq dostonlari tilida qo'llangan leksik qatlamlar tarkibidagi eski va eskirgan so'zlar tadqiqi masalasidir. Zero, xalq poetik ijodining paydo bo'lishi va shakllanishi uzoq kechmishga ega. Hali yozma adabiyot vujudga kelmagan bir davrda og'zaki ijod namunalari yaralgan. Shuning uchun ham xalq dostonlari tilida qo'llangan eskirgan so'zlar qatlamini tadqiq etish muhim sanaladi.

9. Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida qo'llangan va o'zbek tili leksikasida kamiste'mol so'zlar sifatida baholanayotgan eski so'zlar, eskirgan so'zlar va tarixiy so'zlar ma'lum bir maqsadni bajargan. Dostonlar tilida ularning qo'llanishi o'ziga xos badiiiy va uslubiy vazifalar bajaradi. Ishda bu

turkumga kiruvchi soʻzlar qadimgi lugʻatlar, etimologik lugʻat hamda izohli lugʻatlar materiallari bilan qiyosiy tahlil etilgan holda oʻrganildi.

10. Dostonlar tilida qoʻllangan tarixiy soʻzlar muayyan narsa va predmetlar yoki hodisaning tarixiy nomlarini ifodalovchi soʻzlar sanaladi. Qodir baxshi oʻz dostonlari tilida tarixiy soʻzlardan faol foydalangan. Ayniqsa baxshining “Oychinor” va “Jorxun maston” dostonlari tilida bu qatlamdagi soʻzlar bisyor. Baxshi qoʻllagan tarixiy soʻzlar maʼlum tematik guruhlariga boʻlib oʻrganildi.

11. Qodir baxshi Rahimovning dostonlarida qoʻllanilgan anʼanaviy oʻxshatishlarda ekspressivlik, oʻziga xos individuallik, yangilik boʻyogʻini bera olganligini taʼkidlab oʻtish joiz. Bu kabi oʻxshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida, dialektal qonuniyatlarga asoslangan holda, asrlar davomida xalq dostonlari tilini bezashda, epik tasvirning aniqligini va obrazlilikini taʼminlashda samarali xizmat qila olgan.

12. Noanʼanaviy yoxud xususiy-muallif oʻxshatishlar esa baxshining epik qahramonlar xatti-harakatiga munosabati, nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy tahayuli, badihagoʻylik mahorati asosida xalq tilidan yuksak darajada foydalanish orqali yuzaga chiqadi. Bunday oʻxshatishlar soʻz sanʼatkorining epik repertuarida, nihoyat darajada kamyob, takrorlanmaydigan, oʻta original, baʼzida yagona va faqat baxshi dostonlari tilidagina uchraydi.

13. Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida shunday goʻzal oʻxshatishlar namunalari uchraydiki, ularda bir oʻxshatish subyekti uchun birdan ortiq oʻxshatish etaloni va oʻxshatish asosi tanlangani kuzatiladi. Boshqacha qilib aytganda, muayyan bir narsa-hodisa yoki harakat-holatga oʻxshatiladi. Oʻta ziyraklik va badiiy did bilan tanlangan bunday etalonlar tasvir obyekti bir necha jihatdan xarakterlash imkonini beradi. Bunda, albatta, tasvir toʻla, quyuq va taʼsirchan boʻladi. Bunday oʻxshatishlarda oʻxshatish etalonlarining koʻp boʻlishini, ularning bir-birlariga ustlanishlarini hisobga olib, ularni “qavatlangan oʻxshatishlar” deyish mumkin.

14. Qodir baxshi Rahimov poetik ijodida metaforik birliklar keng ishlatilgan boʻlib, baxshi-shoir koʻproq xususiy-muallif metaforalardan

foydalangani kuzatiladi. Umuman olganda baxshi dostonlari tilida qo'llanilgan metaforalar xalq ijodi poetik tilining emotsionalligi va eksprissivligini ta'minlash uchun xizmat qilgan.

15. Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Takrorlar nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi vositadir. Qodir baxshi Rahimov dostonlari matnida takrorlarning turli ko'rinishlari qo'llanilgan. Baxshi o'z dostonlari matnida takrorlarni qo'llash orqali ohangdorlik, emotsionallik, ifodalilik va ta'sirchanlikni ta'minlay olgan.

16. O'zbek tili sinonimlarga juda boy tillardan sanaladi. Yozma adabiyotda bo'lgani singari og'zaki adabiyotda ham baxshi-ijodkorlar tilimizdagi bu so'zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan muayyan so'zni topib o'z dostonlarida qo'llaydilar. Bunday qo'llanish orqali epik qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko'rsatib beradilar.

17. Xalq dostonlari tilida qo'llangan omonimlar orqali baxshi-shoirilar bir shakl bilan turlicha ma'nolarni ifodalashga harakat qilganlar. Qodir baxshi qo'llagan omonimlar haqida ham shunday deyish mumkin.

18. Xalq baxshilari zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llab, tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlarni ziddiyatda ko'rsatganlar. Antonimlarga bag'ishlangan ishlarda lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi. Baxshi dostonlarida lisoniy va kontekstual antonimlardan keng foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 176 b.
2. Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998.

II. Darslik va o'quv qo'llanmalari:

3. Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент: Фан, 1979.
4. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1981.
5. Adabiyot nazariyasi. 2 tomli. 1-tom. Adabiy asar. –Toshkent: Fan, 1978.
6. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка. –Л., 1975.
7. Виноградов В.В. Проблемы русский стилистики. –М.: Высшая школа, 1981.
8. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1981.
9. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. –Toshkent: Fan, 1980. – 159 b.
10. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М.: МГУ, 1968.
11. Ефимов А.И. Язык и стиль. – М.: Наука, 1977. – 241 с.
12. Жирминский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. –М.:ГИХЛ, 1947. -520 с.
13. Jumanazarova G. Fozil shoir dostonlari tilining leksik-stilistik qatlamlari: Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.
14. Yo'ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. – Samarqand, 1982. – 81 b.
15. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
16. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. –Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
17. Karimov S. Badiiy matnning uslubiy vositalari. – Samarqand, 1990.

18. Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand, 1992
19. Кожина М.Н. Язык Л.Н.Толстого. – М.: Высшая школа. 1979.
20. Mahmudov N. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assmetriya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984.
21. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatishlar. –Toshkent, 1976.
22. Samadov Q. Oybek – so‘z san’atkori. – Toshkent, 1965.
23. To‘uchiboyev B. “Alpomish” va xalq tili. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2001. – 160 b.
24. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan, 1990. – 111 b.
25. Xolmurotova J. Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining funksional-uslubiy xususiyatlari – Toshkent, 2000. -160 b.
26. Шмелов Д.Н. Русский язык и его функциональных разновидностях. – М.: Наука, 1977.
27. Shomaqsudov A. va boshq. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. - 248 b.
28. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – Toshkent: Fan, 1982.
29. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1977.
30. Qo‘chqortoyev I. Badiiy so‘z ustasi. – Toshkent: Fan, 1967.

III. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

31. Абдуллаева Л. Стилистическая дифференция лексики узбекской художественной литературы // Автореф. дис. ...докт. филол. наук. –Ташкент, 1980. – 48 с.
32. Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964.
33. Ашурбоев С. Структурно-семантические особенности простого предложения в прозаических произведениях Алишера Навои // Автореф. дис. ...докт. филол. наук. –Ташкент, 1990. – 51 с.
34. Бабаева С. Лексико-стилистические особенности поэзии Хаида Алимжана: Автореф. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1989.

35. Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навои (лексико-семантические, стилистические и тематические исследования) Автореф. дис. ...докт. филол. наук. –Ташкент, 1989. – 54 с.
36. Yormatov I. O‘zbek xalq qahramonlik eposi poetikasi. Filol. fan. dokt... diss. avtoref. – Toshkent, 1994.
37. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. Filol. fan. dokt... diss.- Toshkent, 2005.
38. Yo‘ldoshev M. Cho‘lponning badiiy til mahorati. (“Kecha va kunduz” romani asosida): Filol. fan. nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2000. - 25 b.
39. Каримов А. Лексико-семантические и стилистические особенности языка поэмы «Фархад и Ширин» Алишера Навои: Автореф. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1975.
40. Mamadaliyeva M. O‘zbek tilida nominativ birliklarning konnatativ aspekti. – Filol. fan. nom. ...dis. –Toshkent.
41. Маматов Х. Лексико-стилистические особенности художественной прозы Алишера Навои: Автореф. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1969.
42. Mahmadiyev Sh. O‘zbek xalq dostonlari tilida stilistik formulalar: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2007. – 26 b.
43. Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане «Алпамыш»: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. -23 б.
44. Rahimov A.S. O‘zbek xalq dostonlari lekiskasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodi misolida): Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – Samarqand, 2002. – 26 b.
45. Рустамов А. Некоторые фонетические и морфологические особенности языка произведений Алишера Навои // Автореф. дис. ...докт. филол. наук. – Ташкент, 1966. – 62 с.
46. Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985.
47. Saparniyazova M. O‘zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2005. – 24 b.

48. Турдуалиев Б. Хамза и узбекский литературный язык (начало XX века) // Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. –Ташкент, 1988. – 48 с.
49. Турсунов С. Лексические особенности дастана «Алпамыш»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1990.
50. Xalikov A.A. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2009. -24 b.
51. Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисон ат-тайр» Алишера Навои: Автореф. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1982.
52. Xolmonova Z. “Shayboniyxon” dostoni leksikasi (Po‘lkan shoir varianti asosida): Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1998. – 27 b.
53. Xolmurotova J. Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2000.
54. Шоабдурахмонов Ш. О художественных средствах языка поэмы «Равшан»: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1949.

IV. Ilmiy jurnallardagi maqolalar va ilmiy to‘plam tezislari:

55. Abdurahmonov D., Bektemirov X. O‘zbek xalq dostonlari onomastikasi // O‘zbek xalq ijodi. –Toshkent: Fan, 1964. –B.186-191.
56. Doniyorov X. Qipchoq shevalarining o‘rganilishida xalq dostonlarining roli // O‘zbek xalq ijodi. –Toshkent: Fan, 1967. –B.162-166.
57. Ishayev A. Dostonlar tilining ba’zi xususiyatlari // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni. – Toshkent: Fan, 1971. –B.173-179.
58. Ishayev A. Xalq dostonlari leksikasidan // O‘zbek xalq ijodi. –Toshkent: Fan, 1967. –B.167-177.
59. Mahmudov N. “Alpomish” dostoni lingvopoetikasiga chizgilar // O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari.. To‘plam. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPI, 2010. –B. 12-18.
60. Oxunov N. Farg‘ona viloyati oykonimlarini o‘rganishga doir // Onomastika. Ilmiy maqolalar to‘plami. 1-chiqishi. – Samarqand, 2013. -15-17 –b.

61. Sodiqova M. “Chiqmoq” fe’lining semantik-stilistik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1989, -№2 (4). -60-62-b.
62. Tursunov S. “Alpomish” dostoni leksikasini o‘rganishga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1085. -№3 –B.36-38.
63. Tursunov S. “Alpomish” dostoni tilidagi antraponimlar // Antraponimika muammolariga bag‘ishlangan regional yig‘ilish dokladlari tezislari to‘plami. – Jizzax, 1985. -58-60-b.
64. Tursunov S. “Alpomish” dostonida sinonimlar // Jizzax DPI professor-o‘qituvchilarining ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Jizzax, 1988. –B. 101-102.
65. Hayitova F.B. Nikoh to‘yi qo‘shiqlarining lisoniy talqini: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. –Toshkent, 1998. - 26 b.

V. Lug‘atlar:

66. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi: (Izohli lug‘at). –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998. – 586 bet.
67. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1-jild., 2006.
68. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 2-jild, 2006.
69. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 3-jild, 2007.
70. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 4-jild, 2008.
71. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 5-jild, 2008.

VI. Elektron resurs manbalari:

1. www.n.b.g.t.intal.uz.
2. www//ziyonet.uz.
3. <http://feb-veb.ru/feb/izvest/1940/03/403-089htm>
4. <file://localhost/C:/Documents%20and%20Settings/..>